


90 *yil*
TDIU

Q.T.BAZAROV

SOLIQ MA'MURCHILIGI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVYERSITETI**

Q.T.Bazarov

SOLIQ MA‘MURCHILIGI

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

Toshkent 2021

UO‘K: 336.22

KBK 67.402-ya7

B 56

B 56 **Q.T.Bazarov. Soliq ma’urchiligi. Darslik. – T.:**
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 288 b.

ISBN 978-9943-7422-9-1

Ushbu darslikda soliq ma’uriyatchiligining iqtisodiy mohiyati, maqsadi va vazifalari, funksiyalari va roli, uning davlat soliq menejmenti tizimida tutgan o‘rni yoritilgan. Unda soliq ma’uriyatchiligi faoliyati samarali tizimini shakllantirish yo‘li orqali O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning soliq tizimi va ularni taraqqiyotining konseptual asoslari hamda soliq xizmati faoliyatini tashkil etish, ham soliq to‘lovchilar ham soliq xizmati organlari faoliyati orqali davlatning huquq va majburiyatlari, soliq nazorati va soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik tizimi chuqurlashgan tarzda o‘rganilgan.

Mazkur darslik Oliy ta’lim muassasalari bakalavriat bosqichi 5230800-”Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

В учебнике раскрываются экономическая сущность, цель и задачи, функции и роль налогового администрирования, его место в системе государственной налоговой системы. Отдельно излагаются концептуальные вопросы совершенствования налоговой системы Республики Узбекистан и углубленно рассматриваются вопросы организации налоговой службы, права и обязанности, как налогоплательщиков, так и государства, система налогового контроля и ответственности за нарушения налогового законодательства. Подробно исследуется порядок исчисления и уплаты конкретных налогов и сборов, действующих в налоговой системе Республики Узбекистан и зарубежных стран.

Данный учебник предназначен для студентов высших учебных заведений, по направлению бакалавриата 5230800 “Налоги и налогообложение”.

UO‘K: 336.22

KBK 67.402-ya7

Taqrizchilar: B.K.Tuxliyev – Toshkent davlat iqtisodiyot univyersiteti “Soliqlar va sug‘urta ishi” kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

A.M.Amanov – Toshkent moliya instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasini mudiri iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-7422-9-1

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

Ushbu darslik “Soliq ma’urchiligi” fanining mazmuni, predmeti va metodi, uning maqsadi va vazifalari, O‘zbekiston Respublikasida soliq ma’urchiligini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari va boshqa mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma- ketlikda o‘z aksini topgan.

Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda soliqlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar davlatning asosiy daromad manbai hisoblanib, ularni o‘z vaqtida to‘g‘ri hisoblanishi, davlat byudjetiga to‘liq hamda o‘z vaqtida o‘tkazilishi soliq ma’urchiligi yordamida ta‘minlanadi. Soliq ma’urchiligi soliq munosabatlarini boshqaruv tizimi sifatida davlatning soliq siyosatini bajarilishini ta‘minlaydi. Soliqqa tortish ishlarini yuritishda soliq tizimining eng asosiy vazifalaridan soliq qonunchiligi bajarilishini nazorat qilish, soliqlarni to‘g‘ri va to‘liq hisoblanishini nazorat qilish va soliqlarni davlat byudjetiga o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilishdir. Shu nuqtai nazardan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar asosiy hal qiluvchi moliyaviy manba bo‘lganligi sababli soliqlarni davlat byudjetiga tushishini ta‘minlovchi ma‘muriy tizimni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi uni takomillashtirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

«Soliq ma’urchiligi» fani soliq ma’urchiligini tashkil qilish va amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishni, soliq ma’urchiligida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar va atamalar qo‘llanilishini o‘rgatish, ular faoliyatiga oid soliq munosabatlari bilan bog‘liq masalalar echimini o‘z ichiga qamrab oladi.

“Soliq ma’urchiligi” fani o‘rganish zaruriyati, uning mohiyati va ahamiyati, soliq qonunchiligida uchrayotgan muammolarni yechimini topishga, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilishlari, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlarni davlat byudjetiga o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish va soliq siyosatini amalga oshirish ko‘nikmalarni ta‘minlashga qaratilganligi sababli ushbu fanning soliqlar va soliqqa tortish amaliyotida tutgan o‘rni juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan mazkur fan aynan amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan

bevosita bog‘langan bo‘lib, soliq sohasidagi yetuk mutaxassislar o‘z faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun yetarli darajada bilimga ega bo‘lishlari talab etiladi.

“Soliq ma‘murchiligi” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3, 4-kurslarida o‘qitilishi maqsadga muvofiq. “Soliq ma‘murchiligi” fani ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi va 5230800-”Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladi. Mazkur fan boshqa ixtisoslik fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o‘z rivojida aniq yo‘nalishdagi ixtisoslik fanlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

I QISM. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

1-BOB. SOLIQ MA'MURCHILIGI FANINING MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI. SOLIQ MA'MURCHILIGI TIZIMINING TASHKILIIY VA HUQUQIY ASOSLARI.

1.1 “Soliq ma'murchiligi” fanining predmeti va funksiyalari, o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

1.2 “Soliq ma'murchiligi” fanining maqsadi va kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati

1.3 Soliq ma'murchiligi to'g'risida tushuncha va uning mohiyati

1.4 Soliq ma'murchiligini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning prinsiplari.

1.5 Soliq tizimida soliq ma'murchiligini takomillashtirish tamoyillarining ustuvorligi.

1.6 Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma'murchiligining huquqiy asoslari.

1.1 «Soliq ma'murchiligi» fanining predmeti va funksiyalari, o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Soliq ma'murchiligi fani ?

Soliq ma'murchiligi fanining vazifalari – talabalarga soliq ma'murchiligi funksiyasining turlari, rejalashtirish uslublari, soliq nazorat va hisob yuritilishda muammolar yechish masalalari, soliq ma'murchiligida ishlatiladigan asosiy tushunchalar va atamalar qo'llanilishini o'rgatishdan iborat.

Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish obyektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'lib kimyoviy moddalarning tarkibini o'rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmini harakteristikasi bo'lsa, Soliq ma'murchiligi fanining predmeti soliq organlari faoliyati va to'lovchilari o'rtasida

vujudga keladigan soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Soliq ma'murchiligi fanining predmeti soliq voqe'liklari pul munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir. **Fanning mohiyati** shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'yimaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor byerish ko'zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham yerishish mumkin.

Fanning funksiyalari soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l - yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy funksiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislarini tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo‘llanmalar bilan ta‘minlashdir.

Soliq ma‘murchiligi fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Soliq ma‘murchiligi fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o‘qitishning zarurligi iqtisodiyotni modyernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta tashkil etishda davrida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi.

Soliq ma‘murchiligi fani soliq voqe‘liklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

Soliq ma‘murchiligi fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqe‘liklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladiyana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma‘qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kyerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

Soliq ma‘murchiligi fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, kyeraksiz soliqlar bo‘yicha o‘zgartishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga yerishish uchun ham zarurdir.

Soliq ma‘murchiligi fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liqdir, uning maxsus bo‘limi, ya‘ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, soliqlar va soliqqa tortish fani ham moliya nazariyasi

fani bilan chambarchas bog‘liq. Soliqlar va soliqqa tortish fanining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy haraktyerga ega bo‘lgan pul munosabatlarini o‘rgatadi.

Soliq ma‘murchiligi fani o‘z navbatida “O‘zbekiston tarixi” “Iqtisodiy nazariya”, “Makro va mikroiqtisodiyot”, “Institutsional iqtisodiyot”, Soliq nazariyasi”, “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”, “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”, “Soliq ma‘murchiligi asoslari”, “Soliq statistikasi va prognozi”, kabi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liq.

“Soliq ma‘murchiligi fani “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”, “Chet mamlakatlar soliq tizimi” va boshqa fanlarni o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Soliq ma‘murchiligi fanini o‘qitishdan maqsad – soliqlar va soliqqa tortish tizimida rejalashtirish, soliq to‘lovchilar va soliqqa tortiladigan ob’ektlar xisobini yuritish, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, soliqlar va soliqqa tortishni tartibga solish kabi muammoli masalalarni o‘rgatishdan iborat. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirishning strategiyasi va taktikasini, soliq rejalashtiruvining maqsadlarini o‘rganish va regional darajada soliqlarni rejalashtirish masalalarini tahlil qila olish, rejalashtirishda soliq potensialini baholay olish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim va qo‘niqma va malaka shakllantirishdir.

Iqtisodiyotimizda quy byerayotgan salbiy oqibatlarini bartaraf etishda soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyalardan soliq ma‘murchiligida samarali foydalanish.

Soliq ma‘murchiligi tizimida yuqorida ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlarning eng dolzarblarini qo‘llagan holda soliqqa tortishni tartibga solish bo‘yicha taklif muloxazalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yo‘llarini bilishi kyerak.

Soliq ma‘murchiligini to‘g‘ri va maqsadli tashkil etishda solq nazorati ham alohida o‘rin egallaydi.

Ma‘lumki, iqtisodiyotni yanada barqarorlashuvini ta‘minlash jarayonida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar - agrar, mulkiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy, moliya-kredit tizimi va ijtimoiy sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu islohatlar orasida

moliya-kredit tizimini isloh qilish alohida rol o‘ynaydi. Chunki, jamiyatni barcha sohalari faoliyati pulli munosabatlar bilan bevosita bog‘liqdir, vaholanki, pulli munosabatlarni samarali ishlash mexanizmi o‘z navbatida boshqa sohalarga bevosita ta’sir etadiki, bu moliya-kredit tizimini jamiyat iqtisodiy tizimidagi o‘rni naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. **Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi** «2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga yerishish mumkin.

Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham byerishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur”¹ deb ta’kidlaganlar.

Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash va divyersifikatsiyalash sharoitida soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Demak, davlat byudjeti daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlarning to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun barcha davlatlar qatori mavlakatimizda ham soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘liq, to‘g‘ri va o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazorat qilish tizimi yaratilgan.

Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini soliq qonunchiligiga rioya etish nuqtai nazardan nazorat qilishning huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini o‘rganadi. Ma’lumki, soliq to‘lovchilar davlat byudjetiga to‘laydigan soliqlarini mustaqil ravishda hisoblab belgilangan muddatda va miqdorda amalga oshirishlari lozim. Davlat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojatnomasi 28-dekabr 2018-yil. Toshkent, Xalq so‘zi gazetasi.

soliq to'lovchilarga soliqlarning fiskal majburiyatidan kelib chiqqan holda shunday qat'iy talabni qonun normalari sifatida belgilab qo'ygan.

Soliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.²

Soliq nazorati qanchalik qat'iy bo'lsa va tekshiruvlar natijasida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha chora ko'rish muqarrarligi to'liq ta'minlansa davlat byudjeti manfaatlari har tomonlama muhofaza qilingan va byudjet daromadlarining shakllanishi kafolatlangan bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlarining huquqiy masalalari, nazoratni tashkil qilishning uslubiy yo'nalishlari, nazorat natijalarini rasmiylashtirish va soliq qonunchiligiga rioya etishda qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan soliq to'lovchilarga chora ko'rish tartiblarini o'rganish bu fanning izlanish predmeti hisoblanadi.

1.2. “Soliq ma'murchiligi” fanining maqsadi va kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish qilish davrida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlatning asosiy daromad manbasi hisoblanib, ularning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi, davlat byudjetiga to'liq hamda o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan soliq ma'murchiligi va soliq nazoratini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Soliqlar va soliqqa tortish ixtisosligi talabalariga soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini

² O'zbekiston Respublikasi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni 2-modda Norma huquqiy manbasi 2015y.

soliq qonunchiligiga rioya etish nuqtai nazardan nazorat qilishning huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini o'rganishlari lozim bo'ladi. Buning uchun esa talabalar soliq to'lovchilarga nisbatan soliq majburiyatining yuzaga kelishi, soliq nazorati, uning shakllari, turlari, nazorat qiluvchi vakolatli organlar, ularning huquqlari va majburiyatlari, tekshirish o'tkazish tartiblari, tekshirish natijalarida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilish holatlari bo'yicha ma'muriy yoki moliyaviy jazo choralarini qo'llash bo'yicha yetarli darajada malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Qolavyersa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining tadrijiy rivojlanishi va Prezidentimiz tomonidan belgilab byerilgan soliq siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish ushbu soha mutaxassislaridan chuqur iqtisodiy bilimga ega bo'lishni talab etadi.

Bu fanni to'liq o'zlashtirgan talaba **soliq ma'murchiligiga** oid quyidagi bilimlarga ega bo'ladi va amaliy ko'nikmalar o'zlashtiradi:

- Soliq qonunchiligiga oid tekshiruvlarning nazariy, huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini;

- Hujjatli, nazorat tartibida va tezkor o'tkaziladigan tekshiruvlarning mohiyati va xususiyatlarini;

Tekshiruv natijalari haqida shakllantiriladigan tekshiruv matyeriallarining tarkibi, ularni rasmiylashtirish tartiblarini;

- Tekshiruv matyeriallarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish, aniqlangan huquq buzilish xolatlari bo'yicha ma'muriy yoki jinoiy chora ko'rish va ularni bajarilishini nazorat qilish bilan bog'liq ishlarni yuritishni.

- Ma'muriy amaliyot yuritish bo'yicha soliq organlarining tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtiriladigan hujjatlarni yuritish tartiblarini;

- Nazoratchi, taftishchi tekshiruvchi, va davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tushunchalarining amaliy tafsilotini;

- Nazorat qilish vakolati byerilgan funksiyaviy bo'limlar va ularning vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini;

- Soliq nazoratiga oid dasturiy mahsullarni;

- Davlat soliq xizmatining inspektorlik lavozimlarida ishlayotgan xodimlarga mutaxassis sifatida qo'yiladigan talablarni.

1.3. Soliq ma'murchiligi to'g'risida tushuncha va uning mohiyati

Iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda soliq tizimini modyernizatsiyalash, soliq ma'murchiligini va qonunchiligini yanada takomillashtirish, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirishda sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish hamda shuning asosida yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib kelgan.

“Soliq ma'murchiligi” – soliq organlari umumiy faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimi bo'lib, u soliq organlarida qonun tomonidan ko'zda tutilgan funksiyalarni bajarilishini ta'minlaydi.

Ba'zi hollarda “soliq ma'murchiligi”ning o'rniga “soliq ma'muriyatchiligi” iborasi ham ishlatilmoqda.

Soliq ma'murchiligini mohiyatini aniqlash uchun, bizning nazarimizda, bir necha muhim holatlarga e'tibor byermoq lozim. Ularning muhimlari va eng asosiylari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin;

1. Soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir.

Soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimi ekan, biz bu yyerda uning mohiyatini belgilab byerishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan “boshqarish” so'ziga alohida e'tibor byerishimiz kyerak. Boshqacha aytganda, “boshqarish”ning mohiyatiga xos bo'lgan holatlar soliq ma'murchiligining mohiyati uchun ham xosdir.

Shu yyerning o'zida soliq ma'murchiligining mohiyatini aniqlashga ko'mak byeruvchi yana bir holatni aniqlashimiz mumkin. Gap shundaki, soliq ma'murchiligi, birinchi navbatda, soliq munosabatlarini boshqarish tizimi sifatida qaralayotgan ekan, uning tizim ekanligiga ham e'tibor qaratmoq lozim. Soliq ma'murchiligi

tizim sifatda qaralsa, tabiiyki, uning bir necha elementlardan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi.

2. Soliq ma'murchiligi davlat soliq siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi va shunga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bu holat ham soliq ma'murchiligining mohiyatini belgilab byerishda o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shunga mos ravishda soliq ma'murchiligi operativ holda hayotga tadbiq etilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida aks ettirmog'i lozim.

3. Soliq ma'murchiligi soliq organlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirib turadi.

Bu narsa soliq ma'murchiligiga bevosita xos bo'lgan xususiyat bo'lib, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq organlarining faoliyatlarini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Busiz soliq organlarining faoliyatini sog'lom tashkil etishni tasavvur etish mumkin emas.

4. Soliq ma'murchiligining mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkin funksiyalar orqali namoyon bo'ladi.


Soliq ma'murchiligi, eng avvalo, soliq munosabatlarini boshqarish tizimi bo'lganligi uchun, unga umumiy ko'rinishdagi boshqarishga xos bo'lgan barcha funksiyalar tegishlidir.

5. Soliq ma'murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o'ziga xos tarzda to'ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtai-nazardan soliq mexanizmining o'ziga xos bo'lgan styerjeni sifatida talqin etish mumkin.

Soliq huquqining normalari soliq ma'murchiligi tizimini oqilona tashkil etishga imkon byeradi va uni butun soliq mexanizmiga tarqatadi.

6. Soliq munosabatlari soliq ma'murchiligining predmetini tashkil etadi. Ma'lumki, soliq munosabatlari davlat (soliq nazoratining subyekti sifatida) bilan soliqqa tortish subyektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasida vujudga kelib, bu subyektlar zimmasiga o'z mablag'lari hisobidan soliqlarni to'lash majburiyati yuklangandir.

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirgan holda quyidagi chizmaga asos solishimiz mumkin (1-chizmaga qarang).



1-chizma. Soliqa ma'muriyatchiligining mohiyatini aniqlovchi holatlar

Bozor munosabatlarining rivojlanishi soliqqa tortishni boshqarishga boshqacha iqtisodiy mazmun kiritadi. Bunda boshqaruv asta-sekinlik bilan statik holatdan chiqib, turli soliq huquqiy munosabatlaridagi o'zgarishlarga operativ ravishda o'z munosabatini bildirib boshlaydi. Shu munosabat bilan soliqqa tortish tizimining o'zi ham indikativ xususiyatlar kasb etadi.

Hozirgi sharoitda soliq to'lovlarining byudjetga o'z vaqtida borib tushmasligi quyidagi holatlar to'g'risida signal berishi mumkin:

- amaldagi soliq normalarining takror ishlab chiqarish talablariga (ehtiyojlariga) javob berib qolganligi va ularni reviziya qilishning zarurligi;

- soliq ma'murchiligining soliq tushumlarini monitoring qilish va soliqlardan qochish imkoniyatlarini yopib qo'yish salohiyatini (qobiliyatini) yuqotib qo'yganligi;

Xalqaro integratsion jarayonlarning kuchayganligi va soliq ma'muriyatlari tomonidan xorijiy soliq qonunchiligining xususiyatlarini va shuningdek, ikki marta soliqqa tortishdan qochish bo'yicha shartnomalar tuzishning xalqaro koidalarini o'zlashtirish zaruriyatining vujudga kelganligi. Bunaqangi signallarning mavjudligi soliq ma'murchiligi metodlarini qayta ko'rib chiqishning zarurligini taqoza etadiki, bular oqibat natijada, soliq ma'muriyatlarining tarkibiy tuzilish va funksiyalari, soliq siyosatining yo'nalishlari va soliqchilikning uslubiy asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqishga va hatto, soliq islohotlarining navbatdagi bosqichini o'tkazishga ham olib keladi

1.4. Soliq ma'murchiligini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning prinsiplari.


Soliq ma'murchiligining mohiyatini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning tamoyillari ham muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, bu prinsiplar uch guruhga bo'linadi:

1) soliqqa tortish jarayonlarini ma'muriy boshqarishni o'zida aks ettiruvchi tashkiliy prinsiplar (umumiylilik, tenglilik, o'zgaruvchanlik);

2) soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini o'zida ifodalaydigan iqtisodiy prinsiplar (samaradorlik, tejamkorlik, teng taqsimlanish);

3) soliq munosabatlarining qonun nuqtai-nazaridan aniqliligini ko'rsatuvchi prinsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlilik).

Bu ko'rsatib o'tilganlarni chizmalı tarzda, bizningcha quyidagicha ifodalash mumkin (2-chizma).



2-chizma. Soliq ma'murchiligini tashkil etishda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning tamoyillari.³

Endi ana shu yuqorida barcha bayon qilinganlarga asoslangan holda soliq ma'murchiligining mohiyatini ifodalovchi ta'rifni byerishga harakat qilaylik.

Dastlab shuni ta'kidlash kyerakki, yuqorida ta'kidlanganidek, "soliq ma'murchiligi" iborasi keyingi 4-5 yil ichida foydalanilayotgan bo'lishiga qaramasdan uning mohiyatini ifodalash maqsadida bir necha shakldagi ta'riflari mavjud. Masalan, O.A.Mironova va F.F.Xanafeevlarning 2005-yilda Moskvada "OMEGA-L" nashriyotida nashrdan chiqqan va "Nalogovoe administrirovanie" deb nomlangan darsliklarida (o'quv qo'llanmalarida) soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagi ta'rif byerilgan: "Nalogovoe administrirovanie - eto dinamicheski razvivayushayasya sistema upravleniya nalogovshi otnosheniyami, koordiniruyugsaya deyatelnost nalogovix organov v usloviyax rshochnnx otnosheniy"^{4*}.

Keltirilgan bu ta'rifni o'zbekchaga o'giradigan bo'lsak, u holda ta'rif quyidagi shakl va mazmunga ega bo'ladi: "**Soliq ma'murchiligi** - bu

³ Чизма муаллиф томонидан тузилган

⁴ Миронова О.А., Ханәфеев Ф.Ф. Налоговое администрирование. Учебник. – М.: «ОМГА-Л». 2016. стр:33

bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtiradigan, soliq munosabatlarini boshqarishning dinamik rivojlanayotgan tizimi”**

Bizning fikrimizcha, bu keltirilgan ta’rifda soliq ma’urchiligining mohiyatini ifodalovchi ikki jihatga alohida e’tibor qaratilgan:

1) bu yyerda soliq ma’urchiligining mohiyati, eng avvalo, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilinayapti;

2) ta’rifda Soliq ma’urchiligining mohiyati Soliq munosabatlarini boshqarish tizimi orqali ifodalanishi ham qayd etilgan.

Bizning nazarimizda, O.A.Mironova va F.F.Xanafeevlarning soliq ma’urchiligiga byergan ta’riflaridagi “bozor iqtisodiyoti sharoitida” va “dinamik rivojlanayotgan” kabi iboralar soliq ma’urchiligimining mohiyatini ochib byerishda, ma’lum darajada, ahamiyatga ega bo’lsa-da, ularni mohiyatni ifodalashning hal qiluvchi belgilari sifatida talqin etish unchalik maqsadga ega emasdir.

Umuman olganda, yuqoridagi mualliflar tomonidan soliq ma’urchiligiga byerilgan ta’rif o’zining qisqaligi va ma’lum darajada, aniqligi bilan ajralib turishini e’tirof etish joiz. Bu byerilgan ta’rifning yutug’i sifatida ko’rsatilishga arziydi. SHu bilan birgalikda, bizning fikrimizcha, O.A.Mironova va F.F.Xanafeevlar tomonidan soliq ma’urchiligiga byerilgan ta’rifda uning mazmun-mohiyati etarli darajada to’liq ochib byerilmaganga o’xshaydi. Buning asosiy sababi shundaki, qayd etilgan mualliflarning ta’rifida soliq ma’urchiligining mohiyatini ochib byerishga xizmat qiluvchi asosiy holatlarning hammasi ham inobatga olinmagan. SHuning uchun ham bu ta’rifni soliq ma’urchiligining mohiyatini to’liq ifodalovchi ta’rif deb atashga asoslar yetarli emasdir. Bizning fikrimizcha, soliq ma’urchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta’rifi bu jarayonda e’tiborga olinishi kyerak bo’lgan barcha holatlarni hisobga olishi zarur.

Ana shunday xulosalarga tayangan holda va yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olib, bizningcha, soliq ma’urchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta’rif byerish mumkin: Soliq huquqining qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga

xizmat qiladigan, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turish orqali soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi.

Bizning fikrimizcha, soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini yanada to'larok ifodalash maqsadida unga byerilgan bu yangi ta'rifda oldingi mualliflarning ta'rifiga qo'shimcha ravishda mana ikki holatga e'tibor byerilgan va ular yangi ta'rifda inobatga olingan. Bu, birinchidan, soliq ma'murchiliginiig soliq huquqining qoidalariga tayanishi bo'lsa, ikkinchidan, uning soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qilishidir.

Albatta, bu ta'rifni byerish orqali biz soliq ma'murchiligining mukammallashgan va barcha me'zonlarga to'liq javob byeradigan ta'rifining yaratilganligiga da'vo qilmoqchi emasmiz. Biz tomondan byerilgan ta'rifda ham ba'zi bir holatlar etarli darajada inobatga olinmagan bo'lishi mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu ta'rifni, ma'lum darajada mukammallashgan ta'rif deyishga, bizningcha, asoslar etarlidir.

1.5. Soliq tizimida soliq ma'murchiligini takomillashtirish tamoyillarining ustuvorligi

Bugungi kunda Respublikamizda soliq siyosatini yerkinlashtirish, soliq tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu uning tashkiliy tuzilishini ya'ni soliq ma'murchiligini soddalashtirish va takomillashtirishdan iborat.

Soliq ma'murchiligining mohiyati, vazifalari, qoidalari, soliq solish stavkalari va soliqqa tortiladigan obyektlarning hozirgi talqini soliq tizimi shakllanishining O'zbekiston xususiyatlariga xos bo'lgan hamda yerkin bozor munosabatlariga o'tish davrida bajariladigan o'ziga xos vazifalar bilan bog'liq dolzarb masalalar yechimiga yo'naltirilgan. Sababi soliq ma'murchiligida mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy manfaatlari mujassamlashadi.

Xorij andozalariga ko'ra soliq organlari tizimi ikki elementdan tarkib topgan:

- soliq ma'murchiligi tizimi;
- soliq organlarini tashkil qilish tizimi.

Soliq ma'murchiligi atamasi soliq xizmati tizimida keng tarqalmaganligi uchun unga shu o'rinda ta'rif byerib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Soliq ma'murchiligi”– soliq organlari umumiy faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimi bo'lib, u soliq organlarida qonun tomonidan ko'zda tutilgan funksiyalarni bajarilishini ta'minlaydi.

Soliq ma'murchiligi tushunchasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat byudjetiga soliq to'lovlarini tushishini ta'minlash bo'yicha rejalashtirish;

- soliq munosabatlarining tashkiliy shakl va metodlari asosida boshqaruv tizimi;

- soliq nazorati tadbirlari.

Soliq munosabatlarining zamonaviy samarali boshqaruv tizimini ta'minlashimiz uchun soliq ma'murchiligining quyidagi funksiyaviy xususiyatlari takomillashtirilishi zarur bo'ladi.

Birinchidan, – soliq ma'murchiligi davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishda soliq tushumlarini rejalashtirish funksiyasini bajaradi va soliqlarning mezon kriteriy ko'rsatgichlari buyicha rejalashtiriladi. Bunda asosan:

- mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini inobatga olingan holda soliq tushumlari, ularning tarkibiy turlari buyicha bashoratlashtiriladi;

- davlat byudjetining solikli daromadlari aniqlanadi;

- byudjet daromadlariga nisbatan harajatlar farqi (defitsiti) aniqlanadi;

- davlat byudjetidagi respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari ulushi aniqlanadi.

Soliq tushumlarining rejalashtirilishi quyidagicha muddatlarda mo'ljallanib amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni qisqa muddatli reja – odatda joriy bir yillik soliq tushumlarini rejalashtirish; va uzoq muddatli maqsadli reja – bir yildan uzoq muddatga rejalashtirish.

Ikkinchidan, – soliq hisobini yuritish funksiyasi, ya'ni soliq organlari tomonidan soliqlarning umumiy buxgaltyeriya hisobini olib borish.

Soliq ma'murchiligining bu funksiyasida soliq to'lovchilar sonining o'zgarishi dinamikasi, belgilangan soliq va yig'implarning o'z vaqtida byudjetga tushishi, soliq organlarining moliyaviy ahvoli. Bu borada quyidagi vazifalarni bajarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- soliq to'lovchilarni ruyxatdan o'tkazib hisobini olib borish;
- soliq to'lovchilarni hisobotlari va deklaratsiyalari bo'yicha ish yuritish;
- soliq tushumlari bo'yicha ortiqcha to'lov va boqimandalar hisobini yuritish;
- ma'lumotlar natijasini tahlil qilish.

Uchinchidan, – soliq nazorati funksiyasi. Bu funksiyaning xususiyati samarali soliq ma'murchiligining muhim sharti hisoblanadi. Soliq nazoratining asosiy maqsadi soliq to'lovchilarning soliq to'lovlaridan qochishini, buyin tovlashni oldini olishga qaratilgan.

Soliq nazoratining amaliyotdagi foydalaniladigan shakllari quyidagicha:

- soliq to'lovlarini o'z vaqtida davlat byudjetiga tushushining nazorati;
- soliq huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha monitoring;
- mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda qisqa muddatli, rejali tekshirish va hujjatli reviziya o'tkazish;
- tekshiruv matyeriallari b o'yicha ma'muriy amaliyot yuritish ya'ni qo'llanilgan ma'muriy va moliyaviy jarimalarning to'lanishini nazorat qilish.

To'rtinchidan, – soliq munosabatlarini tartibga solish. Soliqqa tortish jarayonini boshqarishning murakkabligi shundan dalolat byeradiki, soliqlar bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va xo'jalik xususiyatiga egadir.

Soliq ma'murchiligining obykti, soliqqa tortish subyektlaridan turli darajadagi byudjetlarga tushadigan mablag'lar oqimini tashkil qiladi va amalga oshirish bilan yuzaga keladigan munosabatlar tizimini muvozanatlashtiradi.

Soliqlar vositasida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish soliq ma'murchiligining muhim qismi hisoblanib davlatning soliqlar orqali

iqtisodiyotni boshqaruvi va soliqlar vositasida soliq munosabatlarini ragʻbatlantirish tizimini tartibga solinishi quyidagi omillarni nazarda tutgan holda amalga oshirilishi kerak:

- soliqqa tortish tizimini va tuzilmasining iqtisodiyoti uchun samarali shaklini ishlab chiqish;

- soliq va yigʻimlar muddati, miqdorini oʻzgartirish;

- soliq krediti yaʼni imtiyozlar berish;

- soliqqa tortishning umumiy darajasini oʻrnatish.

Hozirgi paytda islohotlar sari iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida Oʻzbekiston iqtisodiyoti, xoʻjalik yurituvchi subyektlar oʻrtasidagi huquqiy va moliyaviy munosabatlar sohasida yuz berayotgan islohiy oʻzgarishlar va shunga monand ravishda soliq siyosatini yerkilashtirilishida barqaror soliq maʼmurchiligini takomillashtirishimiz jahon talablariga javob beradigan soliq maʼmurchiligi, davlatning moliyaviy ehtiyojlari va soliq toʻlovchilarning moliyaviy salohiyatlari asosida optimallashtirilgan rejalarni tuzish, meʼyoriy tartibga solish va soliq organlari bilan soliq toʻlovchilar oʻrtasidagi hamkorona soliq nazoratini tashkil qilish metodlariga asoslangan boʻlishi lozim.

1.6. Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq maʼmurchiligining huquqiy asoslari

Soliq huquqining qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turish orqali soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq maʼmurchiligi deyiladi.

Davlat bilan majburiy toʻlov subyektlari oʻrtasidagi soliqlar va soliqqa tortish munosabatlariga oid tegishli vakolatga ega boʻlgan Davlat organlari tomonidan, ularga berilgan huquq va majburiyatlar asosida, soliq toʻlovlarini davlat byudjetiga toʻliq tushishini taʼminlash maqsadida amalga oshiriladigan rejalashtirish, tashkiliy, boshqaruv va nazorat tadbirlari soliq maʼmurchiligini anglatadi.

Soliq maʼmurchiligining huquqiy asoslari deganda, soliqqa oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga xizmat qiluvchi, davlat idoralari tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bajarilishi

lozimligi belgilangan, davlatning zoʻrlik kuchi bilan taʼminlangan qonuniylik hujjatlari tushuniladi.

Oʻzbekiston Respublikasi soliq maʼmurchiligining huquqiy asoslari ikki guruhga: qonunlar va qonun ostidagi meʼyoriy hujjatlarga boʻlinadi. Soliq munosabatlarini tartibga solishda qonun meʼyorlari yetakchi va belgilovchi ahamiyatga ega, chunki soliqlarni joriy etish, toʻlashga oid masalalar qonunlar bilan belgilanadi. Qonun ostidagi hujjatlar esa qonunlarni tugʻri va toʻliq ijro etilishini taʼminlash vositasi sifatida ahamiyatga ega.

Soliq maʼmurchiligining huquqiy asoslari sanaluvchi xuquqiy xujjatlar yuridik kuchga koʻra quyidagilari oʻz ichiga oladi:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha huquq soxalari uchun, shu jumladan soliq huquqi fani uchun xam bosh yuridik manba boʻlib hisoblanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 51-moddasida «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yigʻimlarni toʻlashga majburdirlar» deyiladi va shu bilan soliq munosabatlari jamiyatdagi yetakchi munosabatlardan ekanligi eʼlon qilinadi.

2. Soliq maʼmurchiligining huquqiy asoslarining ikkinchi eng muhim manbai Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksidir.

3. Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati toʻgʻrisida»gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari.

4. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidentning Farmon va qarorlari ham, soliq maʼmurchiligining huquqiy manbalari orasida muhim oʻrin tutadi. Respublika Prezidenti farmonlari vositasida soliqqa oid muhim qoidalar, imtiyozlar, chsklashlar muayyan huquqiy rejim joriy etiladi. Farmonlar Respublika Oliy Majlisi sessiyasida muhokama etilib, tasdiqlangach qonun kuchiga ega boʻladi. Keyingi yillarda Respublikamizda soliq rejimini oʻzgartirish, yangi rejim joriy etishga qaratilgan koʻplab farmonlar qabul qilinganligini qayd etish lozim. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Oʻzbekiston respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida” 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Soliq ma‘murchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 18-iyul. PF-5116-son., Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-avgustdagi 677-son qarori., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son Farmoni., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi “Imtiyozlar va pufyferensiyalar byerish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyul PQ-4389-sonli “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlarini keltirishimiz mumkin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa me‘yoriy hujjatlari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya Vazirligi, Respublika Markaziy bankining qonun asosidagi me‘yoriy hujjatlari soliq ma‘murchiligining huquqiy asoslarida salmoqli o‘rin tutadi.

7. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyat organlari to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra (6-modda) mahalliy davlat xokimiyati idoralari xalq deputatlari, viloyat, shahar, tuman kengashlari, viloyat, tuman, shahar hokimlari) o‘z vakolatlari doirasida qaror va

farmoyishlar chiqarishlari mumkin va ushbu hujjatlar ham soliq ma'murchiligi manbai sanaladi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining soliq va soliqqa tortishga doir qaror va farmoyishlar

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi tomonidan soliqqa oid ishlarni ko'rish yuzasidan sud amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunlarini qo'llash bo'yicha qarorlari ham soliq ma'murchiligini huquqiy asoslaridan biri bo'lishi mumkin.

Soliq ma'murchiligini yuqorida sanab o'tilgan huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi, shuningdek halqaro normalar ham qo'llaniladi.

Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma'murchiligining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi konuni;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi 1998-yil 12-avgustdagi 14-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Davlat soliq organlari faoliyatini hukukiy tartibga solinishini takomillashtirish to'g'risida"gi qaror.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.

Yangi Soliq kodeksining avvalgisidan eng asosiy farqi shundan iboratki, yangi Soliq kodeksi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kuchiga ega, yani har bir soliqni hisoblash turli xil huquqiy me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri Soliq kodeksida aks ettirildi hamda ilgari qonunosti xujjatlar asosida tartibga

solinuvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi va maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalarning hisoblanish va undirish tartiblari Soliq kodeksida aks ettirildi. O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi 2 ta (umumiy va maxsus) qism, 21 bo'lim, 64 bob va 392 ta moddadan iboratdir.

Amaldagi Soliq kodeksidan farqli ravishda har bir tamoyil alohida moddalar bilan tahlil qilingan. Shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini ko'zda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari hisobot davri boshlanishidan kamida 1 oy oldin e'lon qilinishi kyerakligi va ular rasmiy ravishda e'lon qilingan oydan keyingi hisobot davrining birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritilishi belgilab qo'yildi. Soliq kodeksida soliqlar va majburiy to'lovlarning yopiq ro'yxatini o'rnatish nazarda tutilgan.

Soliq kodeksi loyihasining umumiy qismida xalqaro me'yorlarga mos keluvchi soliqqa tortish tamoyillari, kodeksda foydalanilgan asosiy tushunchalar, soliq majburiyatlarini bajarishda foydalaniladigan tartiblar, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash yoki to'lov muddatlarini kechiktirish tartiblari, ortiqcha to'lovlarni qaytarib byerishning aniq mexanizmlari, soliq nazorati shakllari va ularni amalga oshirish tartiblari hamda soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat qilish tartiblari, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilash kabi masalalar keng yoritilgan.

Kodeksda soliqlar va majburiy to'lovlar tizimiga bag'ishlangan alohida bob mavjud bo'lib, mazkur bobda soliqlar va majburiy to'lovlarning turlari va ularning elementlari (soliq solish obykti, soliq solinadigan baza, soliq stavkasini hisoblab chiqarish tartibi, soliq to'lash davri, soliqqa doir hisobotlarni taqdim etish va.h.k) ochib byerilgan.

Moliyaviy jarimalarni qo'llashni tartibga solish maqsadida soliq to'lovchilarga, soliq agentlariga moliyaviy jarimalar sud tartibida qo'llanilishi, soliq to'lovchi, soliq agenti sodir etilgan huquqbuzarlikda aybini tan olganda va yetkazilgan zararni beligilangan muddatlarda va to'liq hajmda, shu jumladan, penyani ixtiyoriy ravishda to'lagan holatlarning bundan mustasnoligi belgilab qo'yildi.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. «Soliq ma'murchiligi» fanining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat ?
2. Soliq ma'murchiligining funksiyalari va elementlari nimalardan iborat ?
3. Soliq ma'murchiligining iqtisodiy nazariyasi asoschilariga qaysi olimlarni kiritishimiz mumkin ?
4. Soliq ma'murchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
5. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq ma'murchiligining tutgan o'рни va ahamiyati.
6. Soliq ma'murchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

2-BOB. SOLIQ MA'MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARINING O'RNI VA SOLIQ QONUNCHILIGI TARG'IBOTI

2.1. Soliq ma'murchiligini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o'rni

2.2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosati

2.1. Soliq ma'murchiligini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o'rni

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan, uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, boshqaruvning harakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bohliq bo'ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, **soliq siyosati** – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab byeradi⁵.

⁵ E.Gadoev. N. Kuzieva. N. Ashurova. "Soliq siyosati strategiyasi". O'quv qo'llanma. 83b.

«Soliq siyosatining vazifasi – bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchidan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»⁶ deb muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov alohida ta'kidlab o'tgan.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi (1991-yil 15-fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi (1993-yil 7-may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar»⁷. Shuningdek respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».⁸

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Res-

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «O'zbekiston», 1998. 52-b

⁷ O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. T «Adolat», 2016. 51-modda.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. T «Adolat», 2016. 132-modda

publikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ❖ mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va majburiy to'lovlarni qonuniy joriy etish;
- ❖ amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- ❖ soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- ❖ soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya'ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo'mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta'minlanadi: Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog'liqdir. Ijro hokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari, Davlat Soliq qo'mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo'li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga

tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning ishlash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy me'yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga byerilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo'g'inlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek, uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan subyektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarni o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida byerilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog'liq. Vakolat har bir organning spetsifik rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik xatti-harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvchi mumkin emas. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, konseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi⁹.

⁹ Gadoyev.E. Qo'ziyeva.N. Ashurova.N. O'rmonov.J. Dayyyerslik. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T:

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turining turlichaligi, ularni tashkil etish asoslarining farqlanishi, maqsad va vazifalarining ayrichaligi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda aktiv ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslushuvchanligini ta'minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning yerkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisito'g'risida" gi qonunning 4-moddasiga muvofiq hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati

va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati mustaqillikka yerishganimizdan so'ng ancha rivojlangan bo'lsada ushbu sohada olib borilish kerak bo'lgan ishlar juda ham ko'p. Buning misoli sifatida Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 18-iyulda tasdiqlangan "Soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"si PF-5116-son farmonini keltirish mumkin, chunki ushbu farmon bilan solliq siyosatidan quyidagi kamchiliklar asosli ravishda keltirildi:

birinchidan, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyatchiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamayapti.

Soliq to'lovchilarning, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlarining ularga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan «soliq to'lovchining shaxsiy kabineti»dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo'yicha faol ish tashkil etilmagan;

ikkinchidan, soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish obyektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini byermayapti;

uchinchidan, soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o'rta muddatli va istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish, soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish, shuningdek, byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyati takomillashtirishni talab qilmoqda;

to'rtinchidan, soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan soliq tekshiruv ob'ektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirmoqda;

beshinchidan, soliq nizolarini sudgacha hal etish – soliq apellyastiyasi instituti imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi soliq to‘lovchilarning sud organlariga murojaatlari ko‘payishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning yetarli darajada unifikatsiya qilinmaganligi, soliq qonunchiligining o‘zgaruvchanligi soliq to‘lovchilar tomonidan o‘z soliq majburiyatlarini to‘liq bajarish imkonini byermayapti;

Yettinchidan, soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to‘liqligini ta‘minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish va soliq to‘lovchilarni hisobga olish imkonini byermayapti;

sakkizinchidan, soliq to‘lovchilarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha o‘z konstitustiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni takomillashtirish talab etiladi;

to‘qqizinchidan, bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o‘rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to‘ldirish uchun mavjud rezyervlarni to‘liq safarbar qilish, shuningdek, naqd pul mablag‘larining kafolatli qaytishini ta‘minlamayapti;

o‘ninchidan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish ko‘rsatkichlarini yaxshilash, korrupsiya ko‘rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek soliq organlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalb etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Shularni inobatga olib shuni aytish mumkinki, soliq siyosatini takomillashtirish borasida hali olib borilishi kyerak bo‘lgan ishlar ko‘p. Bunda mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021-yillar uchun mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining Harakatlar Strategiyasi dasturil ama bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari va ushbu yo‘nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosati

Yuqorida ta’kidlanganidek, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq ma‘muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish maqsadida:

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;

ikkinchidan, soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta‘minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas‘uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to‘rtinchidan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta‘minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro

hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

Yettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Ushbu maqsadlarga yerishish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining PF-5116- sonli farmoni bilan 2018-yil 1-yanvardan quyidagilarni joriy qilish belgilandi:

soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etiladi;

yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi funkstiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi subyektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq ta'tillari byerilishi mumkin;

o'tkazilgan kamyeral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etiladi;

ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to'lovchi vakolatli organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi;

davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya

qiladigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarini 5 bank kunigacha bo‘lgan muddatga vaqtinchalik to‘xtatib turish vakolati byeriladi;

Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma’lumotlarning onlayn rejimida byerilishini ta’minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etiladi, respublikaning qolgan hududlarida mazkur tizim bosqichma-bosqich kiritiladi;

soliq tekshiruvi obyektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek, soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etiladi;

davlat soliq xizmati organlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi, natijasi bo‘yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtiradi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromad va harajatlari sezilarli darajada oshgan. Ya’ni 2014-yilda byudjet daromadlari 30 160,8 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yil uchun esa 62 259,5 mlrd so‘m qilib belgilangan, bu esa ikki barobar ko‘p mablag‘ degani. Shu bilan birga byudjet harajatlari ham keskin oshdi. 2018-yilda o‘tgan yilardan farqli ravishda davlat byudjeti YAIM ga nisbatan 0.02 % profitsit qilib belgilandi. Bundan tashqari, byudjet daromadlari ichida bilvosita soliqlarning ulushi 53,65 % ni tashkil qilib eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Soliq ma'murchiligini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining o'rni va ahamiyatini tushuntirib byering.
2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasida Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida soliqlar asosida rag'batlantirish yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Soliq siyosati targ'iboti nimalarda namoyon bo'ladi?
5. O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini tushuntirib byering.

3-BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGI TIZIMINING AHAMIYATI

3.1. Iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishi va divyersifikatsiyalashuvida soliq siyosatini yuritishda soliq ma'muriyatchiligining o'рни va ahamiyati.

3.2. Soliq siyosatida soliq ma'murchiligini tutgan o'рни va uning asosiy yo'nalishlari.

3.1. Iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishi va divyersifikatsiyalashuvida soliq siyosatini yuritishda soliq ma'muriyatchiligining o'рни va ahamiyati.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va divyersifikatsiyalashtirish bosqichida davlat moliyasini isloh etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda fiskal va monetar siyosatning o'рни, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning zamonaviy yo'nalishlari, moliyaviy tizim va resurslarni boshqarishning ilg'or xorij tajribasidan respublikamizda foydalanish masalalari hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzalarida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx

darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.”¹⁰ deb alohida ta'kidladilar.

Ma'lumki muhtaram Prezidentimiz Shavkt Mirziyoyev tomonlaridan 2017-yil 7-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.¹¹

Mazkur Farmonga muvofiq aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. va bular qatorida Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va libyerallashtirishga yo‘naltirilgandir.

Shu o‘rinda hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ularning natijalariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ularning ijobiy natijalarini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish hamda soddalashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada soliq ma'muriyatchiligi shaffofligini ta'minlash, soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilish borasida muayyan yutuqlarga yerishilmoqda.

Jumladan, bu yo‘nalishda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirish maqsadida, eng avvalo, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog‘ini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, soliq yukini kamaytirish natijasida korxonalarda o‘z ixtiyorida qoladigan mablag‘lardan ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda xodimlar mehnatini yanada rag‘batlantirish imkoni paydo bo‘lmoqda.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси [хтпс://www.rov.uz/uz/news/view/8879](https://www.rov.uz/uz/news/view/8879)

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон.

Spuningdek, soliq tizimini soddalashtirish va soliqlarni bir xillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, o'z navbatida, korxonalarining buxgaltyeriya xodimlarini soliqlarni hisoblash va to'lash ishlarini soddalashtirishga hamda soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

Ta'kidlash lozimki, bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirish va yanada jadallashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Binobarin, zamonaviy talablarga javob beradigan soliq tizimi – iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida tadbirkorlik subhektlarida tekshirishlarni va ularning faoliyatiga asossiz aralashishlarni qisqartirish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlar bekor qilindi, hisobotlarning shakli va topshirish muddatlari soddalashtirildi.

Spu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligi sohasida, jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ishda, soliq solinadigan bazani kengaytirishda va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolar mavjudligi va bu esa o'z navbatida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgartirishlar va islohotlarning mantiqiy davomi sifatida, jumladan, soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligini oshirish maqsadida Prezidentimizning «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Soliq ma'murchiligini amalga oshirish mexanizida asosiy jarayonlardan biri bu soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini aniqlash

hisoblanadi. Soliqlarning yig‘iluvchanligini aniqlash byudjetga soliq tushumlarining o‘z vaqtida va belgilangan miqdorda kelib tushishini ta‘minlash holatini aniqlash imkonini bildiradi. Ma‘lumki, soliq tushumlarining miqdori har yili davlat byudjeti daromadlari rejalashtirilayotgan vaqtda aniqlanadi. Bu jarayon soliqlarni prognozlashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu bilan birgalikda soliq to‘lovchilarimizga yaratilayotgan sharoitlar ham soliq yig‘iluvchanligida asosiy o‘rin egallaydi. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonlaridan tomonlaridan qabul qilingan Farmonda ta‘kidlanganidek, “.....soliq ma‘muriyatchiligi sohasida, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.”¹²

Mazkur Farmon bilan soliq tizimini takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanlik darajasini oshirish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlari belgilab byerildi.

Jumladan, soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish vazifasi belgilandi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, bir tomondan, soliq to‘lovchilarning behuda qog‘oz, yo‘l va boshqa sarf-harajatlarini kamaytirsam, ikkinchi tomondan, ta‘magirlik kabi korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil etish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta‘minlash va soliq solinadigan bazani

¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бoshqa мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2017 йил 18 июлдаги ПФ-5116 сонли Фармони

kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi esa mahalliy byudjetlarning daromad bazasini oshirib, ularning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu borada soliq solish masalalarida, shu jumladan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasi ham alohida ahamiyatga ega.

Soliq tizimining samaradorligi va soha xodimlarining soliq to'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatishi, albatta, kadr larni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, ular o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash hamda ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz tomonlaridan Farmonda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida maqsadli va samarali bajarilishi mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida soliq masalalari yuzasidan vujudga keladigan moliyaviy masalalarning, muammolarning echimini topishning shaffofligini ta'minlaydi, bu esa shubhasiz mamlakatimizda olib borilayotgan puxta soliq siyosatining barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotni modyernizatsiyalash orqali yurtimizning gullab-yashnashi va aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

3.2. Soliq siyosatida soliq ma'murchiligini tutgan o'rni va uning asosiy yo'nalishlari

Soliqlar har bir davlatda muhim iqtisodiy dastak bo'lib xizmat qilgan. Oddiy qilib aytganda, soliqlar fuqarolardan, aholidan, korxonalar va tashkilotlardan davlat tomonidan undiriladigan majburiy to'lovdir. Shuningdek, soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan davlat o'rtasida bo'ladigan munosabatdir. Soliqlarni

to‘lash har bir fukaroning konstitutsiyaviy burchidir. Soliqlar ko‘rinishida davlat byudjetiga tushgan mablag‘lar ijtimoiy himoyaga, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mudofa, aholining tinch yashab mehnat qilishi kabi ijtimoiy xizmatlarga sarflanadi, Albatta tan olish kyerak, har bir fuqaro davlatning ijtimoiy xizmatlaridan bahramand bo‘ladi. Masalan, fuqoro yil davomida malum bir daromadga ega bo‘ldida, soliqlarni byudjetga muntazam ravishda to‘lab bordi. U tomonidan to‘langan mablag‘ byudjetdan sarflanib qaysidir talaba yoki o‘qituvchining daromadiga aylanadi. Demak, soliq to‘lovchilar tomondan to‘langan mablag‘ mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun sarflanadi.

Soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq qonunchiligiga asosan, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni davlat byudjetiga o‘z vaqtida tushishi hamda ular ustidan olib boriladigan nazorat borasidagi soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi munosabat soliq ma‘murchiligining asosiy mohiyatini bildiradi.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliq tizimining eng asosiy vazifalaridan coliq va yig‘imlarning byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash soliq ma‘murchiligi hamda uning ta‘sirchanligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Soliq ma‘murchiligi davlat soliq xizmati organlari tomonidan to‘liq to‘lovchilarni hisobga olish, soliq va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblash hamda ularni to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi usgidan nazorat olib borish bilan bog‘liq tartib qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qoidalar soliq solishning adolatli tizimini yaratishga, shuningdek, soliq tulashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olishga xizmat qiladi. Ya‘ni soliq ma‘murchiligining samaradorligi butun soliq tizimining samaradorligini ta‘minlaydi. Soliq tizimidagi bo‘layotgan o‘zgarish va yangiliklar soliq ma‘murchiligini muntazam takomillashtirishni taqozo etadi.

Soliq ma‘murchiligi soliq to‘lovchi bilan bog‘liq bo‘lgan soliq ishini yuritishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- Soliq to‘lovchilarni hisobga olish.
- Soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni taqdim etilishini nazorat qilish.

- Soliq tushumlari hisobini yuritish.
- Tekshirishlarni tashkil etish.
- Soliq qonunchiligi buzilganda tegishli choralar ko‘rish.
- Soliq targ‘iboti.
- Soliqlarning yig‘iluvchanligini ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida fuqarolarning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlari ifodalangan. Ushbu asosda soliq to‘lovchilarning davlat byudjetiga soliq va to‘lovlar bo‘yicha munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilab byerilgan. Mazkur konstitutsiyaviy majburiyatlarning bajarilishi, ya‘ni belgilangan soliq va yig‘imlarni soliq to‘lovchi - har qanday yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to‘lanishi davlat soliq xizmati tomonidan, birinchi navbatda, soliq to‘lovchilarni hisobga olish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatini boshlashdan oldin belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tishi shart.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni ro‘yxatga olish tartibi tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish va ma‘muriy sarf-harajatlarni kamaytirish maqsadida yil sayin takomillashib bormoqda. Mazkur jarayon xozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risida»gi va Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yhatdan o‘tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi 357-son qarorlarida belgilangan tartib-qoidalariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Bunga asosan ro‘yhatdan o‘tkazadigan davlat organi soliq organlariga ro‘yhatdan o‘tgan shaxslar to‘g‘risida, ularga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini byerish uchun elektron pochta yoki maksimal aloqa orqali murojaat qiladi. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami soliq to‘lovchining soliq organlarida ro‘yhatdan o‘tganligini tasdiqlovchi ma‘lumot hisoblanadi va bu raqam soliq to‘lovchining barcha moliyaviy hujjatlarida ko‘rsatilishi kyerak. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish Davlat soliq qo‘mitasida Yagona davlat

reestrada olib boriladi. Bu borada soliq to'lovchilar va ularning ta'sischilari to'g'risida ma'lumotlar bazasini to'liq shakllantirish maqsadida, yuridik shaxslarni tashkil etishda ro'yxatga oluvchi organ tomonidan identifikatsiya raqamini olish uchun soliq organiga murojaat qilinganda to'ldiriladigan belgilangan shaklda ta'sischi fuqarolarning shaxsi to'g'risida, jumladan, pasport malumotlarini to'liq aks ettirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Soliq to'lovchi davlat ro'yhatidan o'tib, identifikatsiya raqamini olgandan so'ng xo'jalik faoliyatini amalga oshirishni boshlash mumkin. Shundan boshlab unda soliq va yig'implarni to'lash majburiyati vujudga keladi hamda u soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni davlat soliq organlariga taqdim etish yo'li bilan amalga oshiradi. Shu asosida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq va yig'implarni to'g'ri hisoblash bo'yicha majburiyat soliq to'lovchi zimmasiga tushadi. Lekin, ayrim soliq to'lovchilar ya'ni, mahalliy soliq hisoblangan yyer va mol-mulk soliqlarini to'lovchi jismoniy shaxslarga tartib o'zgachadir. Ular uchun mazkur soliqlar davlat soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to'lov xabarnomalari tarqatiladi.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq va yig'implarni to'g'ri hisoblanishi ustidan nazorat olib borish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tomonidan tekshirishlar tashkil qilinadi.

Tekshirishlarni tartibga solishga doir qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, tekshirishlar quyidagi toifalarga bo'linadi:

- Rejali tekshirish;
- Rejadan tashqari tekshirish.

Rejali tekshirish nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik (chorakli) reja-jadval asosida bir yoki bir necha nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Rejadan tashqari tekshirish quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- tekshirishlarni o'tkazish zarurati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki hukumatining qarorlaridan kelib chiqqanda (agar mazkur qarorlarda tekshiriladigan subyekt nomi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, bunda Kengash yoki uning viloyat komissiyasi roziligini olish talab

etilmaydi);

- nazorat qiluvchi organga tadbirkorlik subyekti tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi hollari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushganda (korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolardan kelib tushgan, aniq dalillangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xuquqbuzarlik xolatlari ko'rsatilgan axborot qo'shimcha ma'lumot bo'lib xizmat qilishi mumkin);

- favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish zarur bo'lganda;
- sanitariya-epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek, qo'shni davlatlardan tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Tekshirishlarni tartibga solish borasida ham yildan yilga tadbirkorlar huquqini himoya qilish va tekshirishlarni qisqartirishga qaratilgan me'yorlar qabul qilinmoqda.

Soliq qonunchiligi buzilganda va qonunbuzarlik holatlari aniqlanganda, aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ushbu choralarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- moliyaviy jarimalar;
- ma'muriy javobgarlik;
- jinoiy javobgarlik;

Moliyaviy jarimalar asosan tekshirishlar natijasi bo'yicha qo'llaniladi. Shuningdek, ayrim xuquqbuzarliklar bo'yicha jarimalar tekshirishlar amalga taqdirida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'z vaqtida soliq va yig'imlarni to'lamaganlik uchun penya hisoblash, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik uchun jarimalar qo'llash shular jumlasidandir.

Soliq ma'murchiligini mazkur sohasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ushbu yo'nalishda amaliyotda uchrayotgan muammolar va munozarali holatlarni bartaraf etish maqsadida yuqorida keltirilgan yangiliklardan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyektlarga moliyaviy va ma'muriy choralarni qo'llash bo'yicha yagona muvofiqlashtirilgan me'yoriy hujjat ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliqlar va yig'imlarni to'lash zaminida davlat bilai soliq to'lovchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabat yotadi. Mazkur munosabatlarni yaxshilanishida soliq targ'iboti muhim rol o'ynaydi. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarda soliq targ'ibotining huquqiy kafolatlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq organlaridan tegishli

axborotlarni olish soliq to'lovchilarning huquqlari sifatida aks ettirilgan bo'lsa, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunda soliq to'lovchilarga maslahatlar byerish soliq organlarining vazifa va majburiyatlari sifatida belgilangan.

Soliq targ'iboti yuzasidan olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish zarur. Soliq madaniyatini yuksaltirish, soliqlar mohiyatini fuqarolarimiz ongiga yoshlikdan singdirib, maktablarda «Soliqlar» to'g'risida fan joriy etish va bu yo'nalishda o'qitishni tashkil etish lozim. Ommaviy axborot vositalari orqali soliq qonunchiligini mazmun va mohiyatini ochib byeruvchi ommabop ko'rsatuv, eshittirish, maqolalar tashkil etishni yana ham ko'paytirish kyerak. Eng asosiysi, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, shunga yerishmog'imiz kyerakki, har bir soliq, to'lovchi, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Soliq siyosatida soliq ma'murchiligining tutgan o'rni va asosiy vazifalari nimalardan iborat?

2. Soliq ma'muriyatchiligi shaffofligini ta'minlash, soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga izoh byering.

3. Mamlakatimizda soliq tizimini soddalashtirish va soliqlarni bir xillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iborat.

4. soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ishda, soliq solinadigan bazani kengaytirishda va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarni qayd eting.

5. Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ko'rsatib byering.

II QISM. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI ASOSIY BOSQICHLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

4-BOB. SOLIQ IDORALARIDA SOLIQLAR VA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING YURITILISHI

4.1. Soliq idoralarida yuridik va jismoniy shaxslarni hisobga olish tartibi.

4.2. Identifikatsiya raqami (STIR) tushunchasi va uni joriy qilishning zaruriyati.

4.3. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo'yicha ishlarni tashkil qilish.

4.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini yuritish.

4.5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini yuritish.

4.6. Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratilishi hisobidan tushgan summalarni SHKlarda aks ettirish tartibi.

4.7. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish yoki soliq to'lovchining hisob raqamiga qaytarilgan mablag'lar hisobini yuritish tartibi.

4.8. Shaxsiy kartochkalarda penya hisoblash va to'lash tartibi.

4.1. Soliq idoralarida yuridik va jismoniy shaxslarni hisobga olish tartibi

Yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, daromadlarining bir qismini davlat byudjetiga soliqlar sifatida undirilishi ular faoliyatining qonun tomonidan himoyalanganligini ta'minlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish Vazirlar Mahkamasining 20.08.2003-yildagi 357-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat byeruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi

to'g'risida" gi Nizomga muvofiq olib boriladi. Korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registri joylardagi statistika organlari tomonidan to'ldiriladigan ro'yxatdan o'tkazish kartalari asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan yuritiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil etilishi manbaalariga ko'ra va mulkchilik shakliga ko'ra guruhlagan holda quyidagi Vazirlik va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan:

- auditorlik tashkilotlar;
- sug'urtalovchilar va sug'urta brokyerlari;
- birjalar;
- Aksiyadorlik kompaniyalari va xoldinglar;
- xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar;
- Toshkent shahrida tashkil etiladigan bozorlar ;
- soliq maslahatchilari tashkilotlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda boshqa tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan:

- xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan bozorlar;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda boshqa tashkilotlar

Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiya-laridan:

- barcha tadbirkorlik subyektlari;
- xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari

Tadbirkorlik subyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun ro'yxatdan o'tkazish Inspeksiya tomonidan davlat boji undiriladi, uning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilanadi. Olingan mablag'lar Inspeksiyalar ixtiyorida ular faoliyatini moliyalashtirish manbai sifatida qoladi va faqat ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga hamda xodimlarni rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik uchun:

dehqon xo'jaliklari, shuningdek, davlat korxonalari negizida tashkil qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlaridan davlat boji olinmaydi;

borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlaridan davlat boji belgilangan miqdorning 20 foizi miqdorida undiriladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga (shaxsan kelib, pochta aloqasi vositasida yoki Intyernet tarmog'i orqali) belgilangan shakldagi ariza taqdim etiladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga:

1. Davlat tilidagi ta'sis hujjatlarining ikki asl nusxasi

- ustav yoki ta'sis shartnomasi va ustav yoki faqat ta'sis shartnomasi;
- mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar uchun ta'sis shartnomasi va ustav;
- oilaviy korxonalar, to'liq va kommandit shirkatlar uchun faqat ta'sis shartnomasi;
- akstiyadorlik jamiyatlari, xususiy korxonalar, fyermyer xo'jaliklari hamda yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklari faqat ustav;
- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy sarmoya ishtirokidagi boshqa korxonalar uchun notarial tasdiqlangan ta'sis hujjatlari talab etiladi.

2. Davlat bojining belgilangan miqdori to'langanligi haqidagi bank to'lov hujjati (dehqon xo'jaliklari, shuningdek davlat korxonalari negizida tashkil etiladigan akstiyadorlik jamiyatlaridan tashqari);

3. Firma nomlarining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasida qulay firma nomi zaxiraga olinganligini tasdiqlaydigan yagona login va parol (keyingi o'rinlarda — firma nomining zaxiraga olinishi tasdig'i);

4. Ikki nusxada muhr va shtamp eskizlari ilova qilingan holda taqdim etiladi.

Yakka tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun jismoniy shaxs tomonidan o'z yashash joyidagi Inspeksiyaga kelgan holda, pochta aloqasi vositasida yoki Intyernet tarmog'i orqali Nizomda ko'rsatilgan shaklda davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida ariza taqdim etiladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1. 3x4 sm o'lchamdagi ikkita fotosurat;*
- 2. davlat bojining to'langanligi haqidagi bank to'lov hujjati;*
- 3. ikki nusxada muhr va shtamp eskizlari;*
- 4. pasport nusxasi.*

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazish yoki asoslangan holda rad etish to'g'risidagi qaror zarur hujjatlar ilova qilingan ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza olingan kundan boshlab:

yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari bo'yicha — 2 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda;

yuridik shaxs sifatidagi barcha tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 3 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan yuridik shaxsni tashkil etgan barcha tadbirkorlik subyektlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar yuridik shaxslarning davlat reestriga kiritiladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tadbirkorlik subyektiga Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining tegishli idoraviy saytlaridan foydalanib real vaqt rejimida Intyernet tarmog'idan olingan STIR va XTUT kodlarini byeradi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar davlat ro'yxatidan o'tkazish amalga oshirilgan kundan boshlab bir kun mobaynida tadbirkorlik subyektini joylashgan joy bo'yicha davlat reestridan olingan uning to'g'risidagi ma'lumotlarni:

yuridik shaxslar bo'yicha — statistika va soliq organlariga,

aksiyadorlik jamiyatlari hisoblangan yuridik shaxslar bo'yicha esa, — shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga ham;

yuridik shaxs bo'lmagan yakka tadbirkorlar, yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini va yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha — soliq organiga rasman taqdim etadilar.

Ma'lumotlar olingach ikki kun muddatda:

soliq organlari — yuridik shaxsni, yakka tartibdagi tadbirkorni, yuridik shaxs bo'lmagan tashkil etilgan dehqon xo'jaligini yuridik shaxs bo'lmagan tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik sub'yektini, shu jumladan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, ish bilan ta'minlash jamg'armasi va yo'l jamg'armasiga (tegishli jamg'armalarga badal to'lovchilar hisoblangan subyektlar uchun) sug'urta badallari to'lovchi sifatida (yuridik shaxs bo'lmagan tashkil etilgan dehqon xo'jaliklaridan tashqari) hisobga qo'yadi;

davlat statistika organlari — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan byerilgan statistika kodlarini tekshiradi va yuridik shaxsni Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga kiritadi.

2012-yilning 18-iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka keng yerkinlik byerish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 18 iyuldagi PF-4455-son Farmoniga muvofiq, shuningdek tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ro'yxatdan o'tkazish tartibotlarini amalga oshirishni elektron tizimga o'tkazishni ta'minlash maqsadida 2014-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlarini Intyernet tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmi joriy etildi va amaliyotda o'z samarasini ko'rsatdi.

4.2. Identifikatsiya raqami (STIR) tushunchasi va uni joriy qilishning zaruriyati

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan yuridik va jismoniy shaxslarga byerilgan STIRlarni

ko'rsatgan holda ro'yxatga olinganlik to'g'risida davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shaklda ma'lumot taqdim etiladi. Ushbu ma'lumot tuman (shahar) DSI boshlig'ining munosabat belgisi bilan Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimiga topshiriladi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi ushbu ma'lumotni 1 ish kunida kitobga qayd qiladi va Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi boshlig'iga (mas'ul xodimiga) imzo qo'ydirgan holda yakka tartibdagi tadbirkorni ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotni topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 80-moddasi talablarini bajarish maqsadida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga qo'yilishi kerak.

Yuridik shaxslar —davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizaga yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari soliq solish obyekti vujudga kelgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart.

Davlat soliq inspeksiyalarida soliq to'lovchilar va soliq tushumlariga oid ma'lumotlarni yuritish va aniq hisob-kitoblarni olib borish soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqamlarini joriy etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunga binoan soliq xizmati xodimlarining asosiy funksiyalari sifatida yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ro'yxatga olish(identifikatsiya) raqamlarini byergan holda soliq to'lovchilar sifatida ro'yxatga qo'yish haqidagi hujjatlarni byerish qayd qilingan.

Identifikatsiya raqami bu – soliq to‘lovchilarga byeriladigan maxsus kodlar bo‘lib, u soliq to‘lovchilarga markazlashtirilgan tartibda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan byeriladi.

Soliq to‘lovchilarga identifikatsiya raqamlarini byerish quyidagilarni ta‘minlashga qaratilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining identifikatsiya raqamlari yagona reestrini shakllantirish;
- soliq to‘lovchilarni hisobga olishni tartibga solish;
- soliqlarning byudjetga tushishini hisobga olish va soliq organlarining o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma‘lumotlarni kompyutyerda ishlashni joriy etish;
- soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo‘yicha axborotlarning yaxlitligi va ishonchliligi ko‘p tomonlama tekshirilishi, nazorat qilinishini tashkil etish;
- soliq organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, bank muassasalari va moliyaviy tuzdagi, shuningdek, ko‘char va ko‘chmas mulk bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar o‘rtasida axborot ayirboshlashni birxillashtirish;
- daromadlarni, to‘langan soliqlarni va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy va boshqa sug‘urta bo‘yicha davlat jamg‘armalariga to‘lovlarni hisobga olishni birxillashtirish.

Identifikatsiya raqami soliq to‘lovchining barcha soliq majburiyatlari va barcha ijtimoiy huquqlari bo‘yicha yagona hisoblanadi, uning davlat hokimiyati va nazorat organlari bilan davlat ijtimoiy sug‘urtasi hamda boshqa sug‘urta jamg‘armalaridan to‘lovlar (mablag‘lar) olish bo‘yicha barcha o‘zaro munosabatlarida qo‘llanadi va o‘zgartirilmaydi.

Identifikatsiya raqami bir marta byeriladi va faqat yuridik shaxsning tugatilishi, jismoniy shaxsning vafoti yoki boshqa mamlakatga ko‘chib ketishi munosabati bilan, ushbu voqealar ro‘y byergandan keyin uch yil o‘tgach, bekor qilinishi mumkin.

Identifikatsiya raqami soliq to‘lovchilarga — yuridik (jismoniy) shaxslarga ular o‘zlari joylashgan (yashaydigan) joydagi davlat soliq

inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazish shakllarini to'ldirgandan keyin byeriladi. Ro'yxatdan o'tkazish shakllari ma'lumotlari davlat soliq inspeksiyasida kompyutyerga yoziladi, elektron pochta orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga byeriladi. Davlat soliq qo'mitasida identifikatsiya raqamini byerishda takrorga yo'l qo'ymaslik maqsadida har bir soliq to'lovchining ma'lumotlari tekshiriladi. Byerilgan identifikatsiya raqami yoki uni byerish rad etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, rad etish sabablari ko'rsatilgan holda, elektron tarzda davlat soliq inspeksiyasiga qaytariladi. Davlat soliq qo'mitasidan identifikatsiya raqami byerilgani to'g'risidagi ma'lumotlar olingach, davlat soliq inspeksiyasida soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqami byerilganligi to'g'risidagi guvohnoma taqdim etiladi.

Identifikatsiya raqamini:

davlat soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazishga asos bo'ladigan ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda respublika Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan ushbu ishlarga vakil qilingan boshqa organlar tomonidan (tadbirkorlik faoliyati, shuningdek, faoliyatning boshqa muayyan turlari bilan shug'ullanish uchun) byerilgan listenziyalarga;

bank to'lov hujjatlarining elektron shakllariga;

davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etiladigan hisobot hujjatlariga;

davlat maxsus jamg'armalaridan ijtimoiy nafaqalar byerish bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va to'lov hujjatlariga qo'yish majburiydir.

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuzilayotgan xo'jalik, fuqarolik-huquqiy va mehnat shartnoma (kontrakt)larida, ularga ilovalarda;

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bitishuvlar sodir etilganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan, schyot-fakturalarda va transport hujjatlarida;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy, mulkiy va qiymat ifodasiga bo'lgan boshqa majburiyatlarning yuzaga kelishini, shuningdek, ularning chaqirilganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda;

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qiymat ifodasiga ega bo'lgan mulk egasi huquqi sotib olinganligini va byerilganligini belgilovchi va tasdiqlovchi, shuningdek bunday huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda aks ettirish shart.

Identifikatsiya raqamlari byerilishi kyarak bo'lgan subyektlar

a) yuridik shaxslarga;

b) quyidagi toifadagi jismoniy shaxslarga (O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, keyingi o'rinlarda «fuqarolar» deb yuritiladi);

asosiy yashash joyi bo'yicha fuqarolarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga;

doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, biroq soliq majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi hududida paydo bo'lgan fuqarolarga.

Soliq solish maqsadida hisobga olinadigan fuqarolarga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan fuqarolar; shu jumladan, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtincha turganlar ham; O'zbekiston Respublikasida kalendar yilda 183 kundan ko'proq turgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar («O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, xorijiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq).

Soliq majburiyatlari deganda jismoniy yoki yuridik shaxsda daromad olish manbai mavjudligi yoki soliq solishining boshqa obykti tushuniladi.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami tuzilishi

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami to'qqizta raqamli belgidan iboratdir, dastlabki 8 raqam soliq to'lovchining o'z raqami, oxirgi raqam esa nazorat sonini tashkil etadi.

Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlari barcha to'plami soliq to'lovchilarning tiplarini aniqlashtiruvchi ikki turkumlash guruhiga: jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan.

Ushbu maqsadlarda quyidagi kodlardan foydalanilishi kyarak:

20000000Xdan 29999999Xgacha — yuridik shaxslar uchun;
40000000Xdan 79999999Xgacha — jismoniy shaxslar uchun;

bunda X-soliq to'lovchining identifikatsiya raqami sonlari izchilligi to'g'riligini nazorat qiluvchi son, ushbu son O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasida kompyutyer tomonidan soliq to'lovchiga identifikatsiya raqami byerish jarayonida muayyan algoritm bo'yicha shakllantiriladi.

Zarurat bo'lganda, kodlashtirish tizimi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida quyidagi kodlar zaxira qilingan:

00000000Xdan 19999999Xgacha;
30000000Xdan 39999999Xgacha;
80000000Xdan 99999999Xgacha.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqami soliq to'lovchi tomonidan tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazish shaklini to'ldirishga ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida byeriladi. Soliq organlari bilan davlat hokimiyati boshqaruvi boshqa organlari o'rtasida axborot ayirboshlashni birxillashtirish maqsadida soliq to'lovchining ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarida unga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasida byerilgan KTUT kodi ko'rsatiladi.

Yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazish u tashkil etilgan joy bo'yicha soliq inspeksiyasi tomonidan faqat bir marta amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsni soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazish uning tomonidan o'zi tashkil etilgan joydagi davlat soliq inspeksiyasida to'ldirilgan ro'yxatdan o'tkazish soliq shakli ma'lumotlari asosida Davlat soliq qo'mitasida unga identifikatsiya raqami byerilgandan hamda unga tashkil etilgan joy bo'yicha davlat soliq inspeksiyasida soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma byerilgandan va identifikatsiya raqami byerilgandan keyin tugallangan hisoblanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda mustaqil yuridik shaxs sifatida ish ko'ruvchi hamda alohida hisob-kitob schyotiga ega bo'lgan vakolatxonalar va filiallarni ro'yxatdan o'tkazishda ro'yxatdan o'tkazish

ma'lumotlarida bosh korxonaning identifikatsiya raqami ham ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqami tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchi tomonidan tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasida soliq majburiyatlari paydo bo'lishi fakti yuzasidan ro'yxatdan o'tkazish shakli to'ldirilgandan keyin byeriladi. Boshqa soliq to'lovchilarga — jismoniy shaxslarga ro'yxatdan o'tkazish shakllari uyma-uy yurib rasmiylashtiriladi. Soliq organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi boshqa organlari o'rtasida axborot ayirboshlashni birlashtirish maqsadida O'zbekiston fuqarolarining ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti raqami va identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi) ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxsni ro'yxatdan o'tkazish yashash joyi bo'yicha davlat soliq inspeksiyasida faqat bir marta amalga oshiriladi. Har bir soliq to'lovchi faqat bitta identifikatsiya raqamiga ega bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxsni soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazish uning tomonidan yashash joyi bo'yicha davlat soliq inspeksiyasida to'ldirilgan ro'yxatdan o'tkazish soliq shakli asosida Davlat soliq qo'mitasida unga identifikatsiya raqami byerilgandan keyin tugallangan hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar o'z pasportidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda davlat soliq inspeksiyasida asosiy ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari o'zgarishini hisobga olishning ro'yxatdan o'tkazish shakllarini to'ldiradilar, boshqa soliq to'lovchilarga — jismoniy shaxslarga ushbu shakllar uyma-uy yurib to'ldiriladi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchilarni hisobga olish eski namunadagi pasportga ega bo'lgan fuqarolar uchun ham, yangi namunadagi pasportga ega bo'lgan fuqarolar uchun ham amalga oshiriladi.

4.3. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo'yicha ishlarni tashkil qilish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-moddasi va Soliq Kodeksining 6-moddalariga asosan mamlakatimizda soliqlar va qonun bilan belgilangan boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyligi qat'iy ravishda belgilab qo'yilgan. Shuningdek, soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) soliq kodeksi 34-moddasida belgilanganidek, o'zlariga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarish uchun davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatda turishlari shart. Xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat ro'yxatidan o'tgach, jismoniy shaxslar esa uchastka davlat soliq inspektorlari tomonidan ro'yxatga olingach Davlat soliq inspeksiyasida soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga turadi va uning zimmasiga qonun hujjatlariga binoan soliq to'lash majburiyati yuklatiladi. Shu munosabat bilan soliq subyektlari va soliq organlari o'rtasida huquqiy munosabatlar o'rnatiladi.

Davlat soliq organlariga kelib tushadigan axborotning katta hajmlarda bo'lishi, ularga qisqa muddatlarda unumli va aniq ishlov byerish zarurligini inobatga olib xodimlarning sa'y-arakatidan bevosita soliq xizmati organlarining asosiy funksional vazifalarini xal etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish soliq xizmatlari ishining barcha jarayonlariga joriy etilgan.

Bugungi kunda Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalari DSQ raisining 2012-yil 15-sentyabrdagi 350-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish" tartibiga asosan yuritiladi.

Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, Mehnat kodeksiga, Fuqarolik kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi, «Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida»gi, «Byudjet tizimi to'g'risida»gi, «Fuqarolarning Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi, «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan Pensiya ta'minoti to'g'risida»gi, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib,

davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarida byudjetga, byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga hamda Davlat soliq qo'mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoyalash, soliq organlarini rivojlantirish va kutilmagan harajatlar maxsus jamg'armasiga to'lovlarning tezkor hisobini yuritish, soliq organlarining funksional bo'linmalari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi tartibini belgilaydi.

Hududiy davlat soliq inspeksiyalarida soliq to'lovchilarni hisobga olishni va ularning shaxsiy kartochkalarini elektron ko'rinishda yuritish ishlari "Soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish" bo'limi tomonidan yuritiladi. Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini bajarilishiga doir ayrim ma'lumotlar soliq to'lovchining shaxsiy kartochkalarida yuritiladi. Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, bu tushunchaga ta'rif byersak:

soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi (keyingi matnda «SHK» deb yuritiladi) – Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli dasturiy maxsul orqali soliq to'lovchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini bajarilish hisobi yuritiladigan elektron shakldagi hujjatdir;

Davlat soliq xizmati organlarida byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobi byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq tegishli SHKlarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning, shuningdek, penya va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks etgan holda yuritish uchun, to'liq Davlat soliq qo'mitasining (keyingi matnda «DSQ» deb yuritiladi) YUridik shaxslarga soliq solish va Jismoniy shaxslarga soliq solish bosh boshqarmalari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turi bo'yicha amaldagi mavjud SHKlar yoki bank hisobvaraqlari ro'yxati byudjet klassifikatsiyasi va soliq hisoboti shakllaridan kelib chiqib

ochilishi yoki yopilishi bo'yicha inventarizatsiya qilib boriladi. Soliq qonunchiligiga kiritiladigan o'zgartirishlar belgilangan tartibda qonuniy kuchga kirgandan so'ng, 10 kun muddatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari ko'rsatilgan holda to'liq DSQning Axborot - tahlil bosh boshqarmasiga rasman ma'lum qilib boriladi.

1. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turi bo'yicha ochilishi yoki yopilishi lozim bo'lgan SHKlar yoki bank hisobvaraqlari bo'yicha rasman byerilgan ma'lumotga asosan dasturiy majmualarga o'zgartirish kiritish yuzasidan Axborot - tahlil bosh boshqarmasi tegishligicha Yangi texnologiyalar ilmiy - axborot markaziga buyurtma topshiriqlar byeradi.

2. Davlat soliq xizmati organlarida SHK milliy valyuta – so'mda yuritiladi. Qonun hujjatlariga asosan soliq hisobi chet el valyutasida yuritilishi belgilangan taqdirda, SHK chet el valyutasida hamda unga mos ravishda milliy valyutada yuritilishi mumkin.

3. SHKlarda quyidagi summalar aks ettiriladi:

a) soliq to'lovchining soliq hisobotiga, shu jumladan, aniqlashtirilgan soliq hisobotiga va tekshirishlar natijasida qo'shimcha yoki kamaytirishga hisoblangan summalar;

b) to'langan (undirilgan) summalar;

d) qaytarilgan yoki amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning bir turidan boshqa turdagi soliq qarzi uchun hisobga olingan summalar;

e) to'lash muddati kechiktirilgan (bo'lib-bo'lib to'lash imkoni byerilgan) to'lovlar;

f) hisobdan chiqarilgan va alohida hisobi yuritiladigan summalar;

g) hisoblangan penya va boshqa moliyaviy sankstiyalar.

4. SHKni yuritish dasturiy mahsulida ma'lumotlar bazasiga ushbu Tartibda belgilangan tarzda ma'lumotlar kiritiladi va to'liqligicha saqlanishi ta'minlanib, noqonuniy foydalanishdan himoyalanaadi.

5. SHKga ma'lumotlar asosan birlamchi hujjatlar yoki maxsus elektron raqamli imzo bilan yuborilgan elektron hisobotlar (aniqlashtirilgan hisobotlar) asosida kiritiladi.

6. SHKga barcha yozuvlar ketma-ket tartibda sanalari va kiritilayotgan yozuvlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjatlar (soliq

hisobotlari, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, to'lov hujjatlari, bank ko'chimalari, tekshirish natijasida rasmiylashtirilgan 10-shakl ma'lumotlari, ariza va vakolatli organlar xujjatlari, xo'jalik va fuqarolik sudlari qarorlari, ajrimlari va boshqa qonun bilan belgilangan hujjatlar) ko'rsatilgan holda tegishli ustunlarda aks ettiriladi.

Soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish bo'yicha ishlarni tashkil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. SHKlarni yuritish huquqi faqat funksional vazifalardan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organi rahbarining buyrug'i bilan yuklatilgan mas'ul xodimlarga byeriladi.

2. Davlat soliq xizmati organining buyrug'i bilan Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi ma'lumotlar bazasi administratori etib tayinlanadi, unga mazkur Tartib va boshqa qonun hujjatlarda belgilangan vazifalar hamda javobgarliklar yuklatiladi.

3. Xizmat vazifasida foydalanish uchun SHKlardagi ma'lumotlarni kiritish va o'zgartirish huquqsiz, faqatgina ko'rish huquqi davlat soliq xizmati organi rahbarining rasmiy ko'rsatmasi asosida tegishli mas'ul xodimlarga byerilishi mumkin.

4. SHKlarga ma'lumotlarni kiritish va ularni o'zgartirish huquqi byerilgan xodimlarga ma'lumotlar bazasi administratori tomonidan alohida «parol» yoki elektron raqamli imzo (keyingi matnda «parol» deb yuritiladi) byerilib, ushbu «parol» asosida ma'lumotlar bazasiga kirib ishlashga ruxsat byeriladi.

5. SHKlarga ma'lumot kiritish va ularni o'zgartirish huquqini byeruvchi «parol»ni mas'ul hodim va ma'lumotlar bazasi administratori tomonidan boshqa shaxslarga oshkora qilinishi, shuningdek, SHKlarga boshqa xodimning paroli bilan ma'lumotlar kiritish yoki kiritilgan ma'lumotlarni o'zgartirish (o'chirish) qat'iy taqiqlanadi, Davlat soliq inspeksiyasi (keyingi matnda «DSI» deb yuritiladi) rahbariyatining ruxsatiga asosan Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i tomonidan noaniqliklarni to'g'rilash maqsadida SHKga kiritiladigan o'zgartirishlar bundan mustasno.

6. Maspul xodimlarga alohida byerilgan «parol»lar zaruriyatdan kelib chiqib, xodimning o'zi tomonidan o'zgartirib turiladi va ushbu kiritilgan o'zgartirishlar ma'lumotlar bazasida saqlanib boriladi.

Ma'lumotlar bazasida «parol»larni qayd qilish elektron jurnali dasturiy majmuada yuritiladi. Elektron jurnalda har bir xodim va uning amaldagi paroli avtomatik tarzda qayd qilinib boriladi. Elektron jurnalda ma'lumotlar shifrlanadi hamda u bilan ishlashga faqat ma'lumotlar bazasi administratoriga ruxsat etiladi.

Xodimlar egallab turgan lavozimidan ozod etilganda yoki boshqa lavozimga o'tganda ma'lumotlar bazasiga kirib ishlash uchun unga byerilgan imkoniyat (dostup) ma'lumotlar bazasi administratori tomonidan byerkitiladi.

SHKlarda amalga oshirilgan har bir operatsiya va uni amalga oshirgan mas'ul xodimning ismi sharifi, sanasi va vaqti dasturiy maxsul tomonidan maxsus elektron jurnalda qayd etib boriladi. Har bir operatsiyaning eski holati keyinchalik aniqlik kiritish maqsadida va nazoratini ta'minlash uchun avtomatik tarzda saqlanib qolinadi.

Soliq organining mas'ul xodimlari (DSI boshlig'i, mas'ul o'rinbosari va Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i) lavozimga tayinlanayotganda yoki vazifasidan ozod qilinayotganda, ushbu sanaga ma'lumotlar bazasi arxivlanadi va arxiv faylining nomi, hajmi va sanasi ko'rsatilgan holda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, DSI administratorida saqlanadi.

Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar hisobini yuritish bo'yicha xujjatlar soliq qonunchiligida belgilangan ish yuritish xujjatlar jildida (nomenklatura) belgilangan muddatlargacha saqlanadi. Ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng, belgilangan tartibda soliq organining arxiviga topshiriladi.

Moliya yili tugashi bilan SHK bo'yicha qoldiq summaları keyingi yilga o'tkaziladi hamda ma'lumotlar bazasi to'liq arxivlanib, DSQning 2007-yil 21-dekabrda «Davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar ma'lumotlar bazasi arxivini

DSQga taqdim etish va saqlash to'g'risida»gi Ichki tartibi asosida DSI, Davlat soliq boshqarmasi (keyingi matnda «DSB» deb yuritiladi) hamda DSQda saqlash uchun olib qo'yiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisobga olish hujjatlari quyidagi ish yuritish jildlarida saqlanadi:

a) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq to'lovchining solishtirma dalolatnomasi hamda SHKsidan ko'chirma;

b) moliya idorasi, bank muassasasi va boshqa vakolatli tashkilotlardan olingan, byudjet klassifikastiyasi bo'yicha amalga oshirilgan bank operatsiyalarining to'lov xujjatlari va bank ko'chirmalari, to'lov reestrlari;

d) ortiqcha to'langan summalarni hisobga olinganligi yoki qaytarilganligi bo'yicha xujjatlar;

e) SHKlarni boshqa tuman (shahar) soliq organiga jo'natish va qabul qilish yuzasidan hujjatlar;

f) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni majburiy undirish bo'yicha hujjatlar;

g) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishda to'lash muddatlarini o'zgartirilishi yuzasidan hujjatlar;

h) soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari to'xtatilganligi to'g'risida xujjatlar;

i) tugatilgan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ijrosi to'g'risidagi hujjatlar;

s) qayta tashkil bo'lgan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ijrosi bo'yicha hujjatlar;

k) Davlat byudjetining kelgusi yildagi asosiy parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek, byudjet klassifikastiyalariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Moliya vazirligining buyruqlari;

l) ish yuzasidan boshqa zaruriy hujjatlar.

2. Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida umumiy tartibda quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

a) soliq to'lovchining identifikatsion raqami (keyingi matnda STIR deb yuritiladi);

b) soliq to'lovchining to'liq nomi;

d) soliq to'lovchining yuridik manzili;

e) soliq yoki majburiy to'lov turi nomi;

f) byudjet klassifikatsiyasi asosida byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga o'tkaziladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisob raqami;

g) soliq to'lovchining mulkchilik shakli;

h) soliq to'lovchining yuqori tashkiloti;

i) soliq to'lovchining faoliyat turi;

s) soliq to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi, bank kodi va bankdagi asosiy (birlamchi) hisob raqami;

k) soliq to'lovchi yuridik shaxsning rahbari va bosh hisobchisining ismi, sharifi (F.I.SH) hamda telefon raqamlari.

Yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalarini ochishning umumiy qoidalari:

1. SHK amaldagi soliq qonunchiligiga asosan soliq to'lovchining majburiyatlaridan kelib chiqib, har bir soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi bo'yicha alohida ochiladi.

2. Davlat soliq xizmati organlarida byudjetga va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga, Davlat soliq qo'mitasining moddiy yordam, ijtimoiy ximoyalash, soliq organlarini rivojlantirish va kutilmagan harajatlar maxsus jamg'armasiga to'lovlar bo'yicha SHK yuritiladi.

3. Soliq to'lovchi yuridik shaxslar davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilishi (davlat ro'yxatidan o'tgan joydan tashqari soliq to'lovchining obyektlari bo'yicha hisobga olingan yoki «Fuqarolarning Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida belgilangan pensiya to'lovi majburiyati paydo

bo'lgan soliq to'lovchilar bundan mustasno) bilan bir vaqtda quyidagi to'lov turlari bo'yicha topshirilgan hisobotga asosan SHKlar ochiladi:

- a) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- b) yagona ijtimoiy to'lov;
- v) fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- g) fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya badallari.

4. Ma'lumotlar bazasidagi barcha soliq to'lovchilarning o'tgan hisobot yili oxiridagi qoldiq summalarini joriy yilga ko'chirib o'tkazish jarayonida dasturiy mahsul orqali joriy yil uchun SHKlar avtomatik tarzda ochiladi.

5. Soliq to'lovchiga SHK ochish uchun asos bo'lib soliq to'lovchi tomonidan DSIga soliq majburiyatlari bo'yicha taqdim etilgan soliq hisobotlari, tekshirish natijalarida soliq va boshqa majburiy to'lov turlari bo'yicha qo'shimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliq summolari to'g'risidagi ma'lumotlar yoki soliq to'lovchi tomonidan to'langan to'lov topshiriqnomalari hisoblanadi.

6. «Fuqarolarning Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida belgilangan pensiya to'lovi majburiyati paydo bo'lgan soliq to'lovchilarga tuman (shahar) Ijtimoiy ta'minot bo'limidan ma'lumot kelib tushgan kundan so'ng, 3 ish kunidan oshmagan muddatda SHKlar ochiladi.

7. YUridik manzili o'zgarganligi sababli, boshqa tuman (shahar)dan kelgan soliq to'lovchilarga ma'lumot kelib tushgan kundan so'ng, 1 ish kunidan oshmagan muddatda Kamyeral nazorat bo'limi tomonidan Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga DSI boshlig'ining munosabat belgisi bilan bildirgi byerilgandan so'ng, bir ish kunida ma'lumotlar

bazasi administratori elektron fayllarni ma'lumotlar bazasiga qabul qilib tegishli SHKlarni ochadi.

8. Ma'lum bir tuman (shahar) soliq organida hisobga olingan soliq to'lovchi boshqa tuman (shahar) hududida soliq solish obyekti va soliq solish bilan bog'liq obyektga ega bo'lgan taqdirda, soliq solish

obyektidan kelib chiqib belgilangan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlari bo'yicha SHKlar ochiladi.

4.4.. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini yuritish

Yuridik shaxslarning SHKlaridagi mavjud barcha soliq va majburiy to'lov turlari bo'yicha hisobot yilining yil oxiriga qoldiq (joriy va alohida hisobi yuritilgan va to'lash muddati uzaytirilgan soliq qarzi va penyasi, penya hisoblanmaydigan soliq qarzi, ortiqcha to'langan summasi, shu jumladan, QQS bo'yicha manfiy qoldig'i, qo'llanilgan moliyaviy jarimaning undirilmasdan qolgan qismi) summolari keyingi yilning yil boshiga qoldiq summasi sifatida soliq to'lovchining shu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlari bo'yicha ochilgan yangi SHKlariga dasturiy mahsul orqali avtomatik ravishda o'tkaziladi.

1.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning SHKdagi o'tgan yil oxiriga qoldiq summasi hisobot yili boshiga SHKning tegishli «qoldiq» (saldo) qatorining «soliq qarzi», «penya», «ortiqcha to'langan summa», «shu jumladan QQS bo'yicha manfiy qoldiq» hamda «penya hisoblanmaydigan soliq qarzi miqdori» (CHSNNKNNP) ustunlarida aks ettiriladi.

2.Ma'lumotlar bazasidan barcha soliq to'lovchilarning SHKlaridagi qoldiq summalarini yildan-yilga dasturiy maxsul orqali avtomatik ravishda o'tkazish vakolati davlat soliq xizmati organlari ma'lumotlar bazasi administratoriga byeriladi.

3.Soliq to'lovchilarning SHKsidagi hisobot yili oxiriga qoldiq summalarini keyingi yilning boshiga qoldiq summolari sifatida o'tkazish soliq organida hisobga qo'yilgan barcha soliq to'lovchilar bo'yicha amalga oshiriladi.

4.Yangi hisobga qo'yilgan soliq to'lovchilarning SHKlarida hisobga qo'yilgan yil boshidagi qoldiq summa sifatida – «nol» aks ettiriladi.

5. YUridik manzili o'zgarganligi munosabati bilan qayta hisobga qo'yilgan soliq to'lovchilarga ochiladigan SHKda qoldiq summalar

sifatida avval ro'yxatda bo'lgan tuman (shahar) soliq organida «shaxsiy kartochkani uzatish» operatsiyasi amalga oshirilgan sanasi bilan SHKdagi mavjud qoldiq summalari aks ettiriladi.

6. Ma'lum bir tuman (shahar) soliq organida hisobga qo'yilgan bo'lib, ikkinchi bir tuman (shahar) hududida soliq solish obyekti paydo bo'lgan sanadan boshlab, ushbu DSI bazasida soliq to'lovchilar SHKsida yil boshiga qoldiq summa sifatida «nol» aks ettiriladi.

7. Soliq to'lovchining o'tgan yil uchun SHKsida yil boshiga oldingi yildan o'tkazilgan qoldiq summalar noto'g'riligi aniqlangan taqdirda, uni to'g'rilab o'zgartirish kiritish faqat tegishli xujjatlar asosida ma'lumotlar bazasi administratori ishtirokida Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i tomonidan DSI boshlig'i nomiga yozilgan bildirishnomaga qo'yilgan munosabat belgisi asosida amalga oshiriladi.

8. Soliq qarzini undirish maqsadida tayyorlanadigan inkasso topshiriqnomalari, soliq to'lovchi tomonidan taqdim qilingan bankda 2-sonli kartotekaga qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari, xulosalar reestrlarida ham ushbu hujjatlarni tayyorlagan mas'ul xodimning ismi sharifi qayd qilib boriladi.

Soliq to'lovchining pochta manzili boshqa hududga o'zgarganda SHKlarni boshqa DSIGA ko'chirib o'tkazish tartibi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan soliq to'lovchining pochta manzili o'zgarganligi to'g'risidagi xabarnoma va yangi ro'yxatdan o'tgan DSIning so'rovnomasi DSIGA kelib tushgandan so'ng, 3 ish kuni davomida kuzatuv xati orqali yangi hisobga olinayotgan DSIGA ko'chayotgan soliq to'lovchi bo'yicha quyidagi hujjatlar yuboriladi:

- a) yuridik ish jildi va undagi mavjud hujjatlar reestri;
- b) barcha SHKlaridan hisobot yiliga ko'chirmalar;
- d) hisobot davriga soliq organi bilan soliq to'lovchi o'rtasida rasmiylashtirilgan solishtirma dalolatnoma;
- e) soliq qarzi summasi mavjud bo'lganda majburiy undiruv yuzasidan soliq to'lovchiga byerilgan ijrodagi o'gohlantirish talabnomasi asl nusxasi;

f) soliq qarzi summasini majburiy undirish bo'yicha soliq organiga kelib tushgan va sud ijrochilar Departamenti tuman (shahar) bo'limiga yuborishga ulgirilmagan sud buyruqlari;

g) yuridik manzil o'zgarganligi sababli, soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan soliq to'lovchi hisob raqamiga qo'yilgan inkasso topshiriqnomalarini ijrosiz qaytarib olish to'g'risida bankka yozilgan xat (DSI boshlig'i tomonidan imzolangan, muxrlangan va ro'yxatga olingan holda);

h) Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Respublika komissiyasining (keyingi o'rinlarda Respublika komissiyasi) bayonlariga asosan to'lash muddati kechiktirilgan soliq qarzi summalari bo'yicha tegishli hujjatlar qo'shimcha ravishda ish jildiga ilova qilinadi.

Boshqa DSIga o'tayotgan yuridik shaxs hisobot topshirish muddati o'tgan davr uchun hisobotlarni taqdim etmagan bo'lsa, u holda Kamyeral nazorat bo'limi mas'ul xodimi soliq to'lovchining barcha hisobotlarini to'liq qabul qilib olinishini ta'minlaydi va SHKga kiritish uchun Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimiga belgilangan tartibda topshiradi.

Soliq to'lovchining barcha hisobotlari SHKsiga kiritilgandan so'ng DSIning mas'ul xodimi tomonidan soliq to'lovchi bilan solishtirma dalolatnoma tuziladi.

Pochta manzili o'zgarayotgan soliq to'lovchining SHKlaridan joriy hisobot yiliga ko'chirma 2 nusxada tayyorlanib, 1-nusxasi Kamyeral nazorat bo'limi tomonidan soliq to'lovchining ish jildiga qo'shib tikib tegishli tuman (shahar) davlat soliq xizmati organiga ishonchli vakil orqali yuboriladi, 2-nusxasi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limida alohida ish jildida saqlanadi.

Soliq organi soliq to'lovchining xujjatlarini boshqa tuman (shahar) soliq organiga jo'natishdan oldin bankda ijrosi to'liq bajarilmagan ushbu soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan xulosalarni 1 ish kuni davomida ijrosiz chaqirib oladi.

Shuningdek, soliq to'lovchini boshqa DSI hisobga olgandan so'ng, avval hisobda turgan soliq organi tomonidan qo'yilgan inkasso topshiriqnomalar (yoki korxonalar tomonidan 2-sonli kartotekaga qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari) bank muassasasidan ijrosiz chaqirib olinadi.

Soliq qarzini majburiy undiruvga qaratish bo'limi tomonidan ko'chayotgan soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan soliq qarzlarini undirish yuzasidan ijroda turgan sud buyruqlari bo'yicha sud ijrochilar Departamentining tuman (shahar) bo'limiga soliq to'lovchining yuridik manzili o'zgarganligi yuzasidan yozma ravishda ma'lumot yuboriladi.

Soliq organi SHKlarni boshqa hududga yuqorida keltirilgan tartibda jo'natgandan so'ng, Ma'lumotlar bazasi administratori yangi manzildagi DSIning elektron adresiga soliq to'lovchiga tegishli ma'lumotlar va SHKlarni pochta faylini shakllantirib yuboradi. SHKlarni yuritgan mas'ul xodim tomonidan boshqa hududga yuborilgan soliq to'lovchining SHKlaridagi soliq qarzi yoki ortiqcha to'langan summa, hisoblangan penya va jarima summalari «Boshqa soliq organiga o'tkazilgan» degan yozuv bilan alohida rejim orqali hisobdan chiqarilib, SHKlardagi ushbu qoldiq summalari «nol»ga keltirib yopiladi.

Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tuman (shahar) bo'limi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan soliq to'lovchini boshqa hududga o'tganligi yoki boshqa xududdagi soliq to'lovchiga qo'shilganligi bo'yicha Davlat reestridan chiqarilganligi to'g'risidagi qarori DSI rahbarining munosabat belgisi bilan Kamyeral nazorat bo'limi hodimi tomonidan ikki ish kunida ushbu xujjatlarga asosan 04-shakl to'ldirilib ma'lumotlar bazasi administratoriga taqdim etiladi, administrator tomonidan ma'lumotlar bazasiga 04-shakl kiritilib, soliq to'lovchining holatiga o'zgartirish kiritiladi.

Soliq to'lovchini yangi hisobga olgan tuman (shahar) soliq organi soliq to'lovchining SHKlaridan ko'chirmalar olgandan so'ng, 1 ish kuni ichida soliq to'lovchiga belgilangan tartibda SHKlar ochib, mavjud soliq qarzi summalariga inkasso topshiriqnomalari bilan bir vaqtda oldingi ro'yxatda turgan soliq organining inkasso

topshiriqnomalarini ijrosiz qaytarib olish to'g'risida oldingi ro'yxatda turgan soliq organiga murojaat qiladi.

Agarda ko'chib o'tgandan so'ng 15 kun davomida to'lovlar oldin hisobga olingan DSIning hisob raqamlariga amalga oshirilgan bo'lsa, korxonaning SHKda to'lov summasi aks ettirilib, tasdiqlangan holda SHKdan ko'chirmalar yangi ro'yxatdan o'tgan DSIga rasmiy xat orqali yuboriladi. Tasdiqlangan SHKdan ko'chirma yangi manzil bo'yicha SHKda o'zgartirish kiritishga asos bo'ladi.

SHKlarni yuritishda kiritiladigan ma'lumotlar

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblangan, undirilgan, to'langan, qaytarilgan (hisobga olingan), kamaytirilgan hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar bo'yicha operatsiyalar, tekshiruv natijasida aniqlangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda qo'llanilgan moliyaviy sanksiyalar bo'yicha SHKlarni yuritishda quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

a) soliq to'lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etgan soliq hisobotlari asosidagi ma'lumotlar;

b) soliq to'lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari asosidagi ma'lumotlar;

v) qonun xujjatlari hamda vakolatli organlar qarorlari asosida ayrim soliq to'lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik summalarini to'lash muddatini uzaytirish, bo'lib-bo'lib to'lash imkonini byerish, hisobdan chiqarish, penya hisoblanishini to'xtatish to'g'risidagi ma'lumotlar;

g) byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'langan (undirilgan) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ma'lumotlar;

d) soliq tekshiruvlari natijasida qo'shimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda qo'llanilgan moliyaviy sanksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

e) soliq qarzini soliq to'lovchining mol-mulki sotuvidan Sud ijrochilari departamenti tomonidan tushirilgan tushumning 10 foizi

(sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasining hisob raqamiga o'tkazilgan);

j) qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa holatlar.

Soliq to'lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etgan hisobotlari asosidagi ma'lumotlarni SHKlarga kiritish tartibi

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2005-yil 29-iyulda 1500-son bilan ro'yxatga olingan «Davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlaridan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to'lovlar va daromadlar to'g'risidagi Deklaratsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar, yozma arizalar va bildirishnomalarni qabul qilib olish hamda ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida»gi Nizom talablaridan kelib chiqib, Kamyeral nazorat bo'limining mas'ul xodimi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qabul qilingan soliq hisobotlariga, soliq hisobotiniqabul qilingan sana, hisobot davri, soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR), nomi, soliq yoki to'lov turi va SHKga kiritilishi lozim bo'lgan hisoblangan (yoki kamaytirilgan) soliq summasini ko'rsatgan holda hisoblashga qabul qilingan soliq hisobotlari reestri (3-ilova) 1 ish kunidan oshmagan muddatda Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga SHKga kiritish uchun taqdim etadi.

2. Reestr 2 nusxada tuziladi, topshirgan va qabul qilgan mas'ul xodimlar tomonidan imzolanib, uning 1-nusxasi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limida, 2-nusxasi Kamyeral nazorat bo'limida saqlanadi.

3. Kamyeral nazorat bo'limi mas'ul xodimi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni (elektron tarzda yuborilgan soliq hisobotlaridan tashqari) har tomonlama ko'rib (tekshirib) chiqib, uning pastki qismiga SHKga kiritilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatgan holda hisobotni qabul qilgan kun bilan imzolaydi (provodkaga byeradi).

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi esa ushbu ko'rsatilgan summani SHKga o'tkazadi va kiritilgan soliq summasi va sanasini ko'rsatib imzo bilan tasdiqlaydi.

4. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan soliq to'lovchining SHKsiga yuqorida belgilangan tartibda ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, imzo bilan tasdiqlangan soliq hisobotlari bilan birga reestrning 2-nusxasi 1 ish kunidan oshmagan muddatda Kamyeral nazorat bo'limining mas'ul xodimiga qaytarib byeriladi.

5. Elektron tarzda taqdim qilingan soliq hisobotlari bo'yicha SHKlarga ma'lumotlar kiritish uchun asos bo'lib, elektron imzo bilan tasdiqlangan soliq hisobotlari Kamyeral nazorat bo'limining mas'ul xodimi tomonidan Nizom talablari asosida tekshirib ko'rib, xato va kamchilik aniqlanmagan taqdirda (xato va kamchilik aniqlangan taqdirda, ushbu topshirilgan elektron ko'rinishdagi hisobot qabul qilinmasdan soliq to'lovchiga qaytariladi), hisobotni SHKlarga kiritish uchun 1 ish kunidan oshmagan muddatda «soliq hisobotlari qabul qilindi» belgisini qo'ygandan so'ng, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga o'tkazadi (provodka byeradi), ushbu bo'limning mas'ul xodimi tomonidan esa 1 ish kunidan oshmagan muddatda dasturiy maxsul yordamida elektron hisobotlar yana bir bor qayta ko'rib chiqilib, tegishli SHKlarga o'tkaziladi (provodka byeriladi).

6. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan hisobotlarda kamchilik aniqlangan taqdirda, bunday hisobotlar SHKlarga o'tkazilmasdan reestrlarga izoh keltirilgan holda 1 ish kuni ichida Kamyeral nazorati bo'limiga qaytariladi.

7. Soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha amaldagi soliq qonunchiligidan kelib chiqib, soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan taqdim qilingan soliq hisobotlari bo'yicha hisoblangan, kamaytirishga hisoblangan summalari –

SHKning «Hisoblangan» yoki «Kamaytirishga hisoblangan» ustunlarida aks ettiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari asosidagi ma'lumotlarni SHKlarga kiritish tartibi

1. Kamyeral nazorat bo'limining mas'ul xodimi soliq to'lovchi tomonidan amaldagi soliq qonunchiligida ko'rsatilgan muddatgacha soliq organiga yozma ravishda o'zgartirish sabablari aniq ko'rsatilgan holda belgilangan tartibda, taqdim etilgan soliq hisoboti shakllari asosida qabul qilingan aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini har tomonlama ko'rib (tekshirib) chiqib uning pastki qismiga SHKga kiritilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatib hisobotni imzolaydi (provodkaga byeradi) va 1 ish kunidan oshmagan muddatda Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga reestr asosida (4-ilova) belgilangan tartibda taqdim etadi.

2. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi esa ushbu ko'rsatilgan summani ko'rib chiqib, kamchilik aniqlanmagan taqdirda, 1 ish kuni ichida soliq summasi va sanasini ko'rsatgan holda SHKga o'tkazadi va imzo bilan tasdiqlaydi, agarda aniqlashtirilgan soliq hisobotida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, bunday hisobotlar SHKlarga o'tkazilmasdan reestrda izox keltirilgan holda Kamyeral nazorati bo'limiga qaytariladi.

3. Aniqlashtirilgan soliq hisoboti asosida qo'shimcha (kamaytirishga) hisoblashga byerilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarning SHKdagi to'lash muddati etib – aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim qilingan sana ko'rsatiladi.

4. Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan va to'langan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasidan ortiq bo'lsa (aniqlashtirilgan soliq hisoboti asosida qo'shimcha hisoblashga byerilgan), tegishli hisobot davrida amalda bo'lgan soliq qonunchiligida belgilangan

to'lash muddatidan kelib chiqib, mazkur tafovutga qonunda belgilangan tartibda penya hisoblanadi.

5. Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan va to'langan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasidan kam bo'lsa (aniqlashtirilgan soliq hisoboti asosida kamaytirishga byerilgan), aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e'tiboran SHKda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi tafovut miqdoriga kamaytirilganligi aks ettiriladi va Soliq kodeksining 46-moddasiga muvofiq penya qayta hisob-kitob qilinadi.

6. Aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblangan yoki kamaytirishga hisoblangan summalar SHKlarda mos ravishda «Hisoblangan» yoki «Kamaytirishga hisoblangan» ustunlarda va hisoblangan penya ustunida esa musbat yoki manfiy penya summalari aks ettiriladi.

7. Agarda, taqdim qilingan aniqlashtirilgan hisobotdagi soliq turi bo'yicha soliqni hisoblash usuli o'sib borish tartibida bo'lib, aniqlashtirilgan hisobotlar yilning oxirigacha davrlar ketma-ketligida topshirilmagan bo'lsa, u holda Kamyeral nazorati bo'limi tomonidan soliq to'lovchidan aniqlashtirilgan hisobotlarni ushbu yilning oxirgi hisobot davrigacha qabul qilinishi ta'minlanadi. (joriy yil uchun esa oxirgi qabul qilingan hisobot davrigacha aniqlashtirilgan hisobotlar qabul qilinishi lozim).

Soliq tekshiruvlari natijasida qo'shimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda qo'llanilgan moliyaviy jarimalarni hisobga olish va SHKlarda aks ettirish tartibi

1. Soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha xujjatlarni yuritishga biriktirilgan mas'ul xodim soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha DSIning qarori nusxasini soliq to'lovchiga topshirgan kundan e'tiboran 1 ish kuni ichida soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalardan qo'shimcha (kamaytirishga) hisoblangan to'lovlar, qo'llanilgan moliyaviy jarimalar va penyalar

to'g'risida Soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasini (5-ilovalar) ikki nusxada to'ldirib SHKga o'tkazish uchun Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim etadi.

2. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi taqdim etilgan soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasining 1-nusxasiga SHKga kiritish uchun qabul qilganlik to'g'risida imzo qo'yib qaytarib beriladi va 1 ish kuni ichida tegishli SHKlarga o'tkazib, 2-nusxasiga SHKga kiritilganligi to'g'risida imzo qo'yib, bo'limda alohida ish jildida saqlaydi.

3. Soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasidagi qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda penya summalarini to'lash muddati qilib soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha davlat soliq xizmati organi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran (qarorning nusxasi soliq to'lovchiga berilgan kundan) soliq to'lovchining murojaatiga asosan davlat soliq xizmati organi qarori asosida o'ttiz kun qilib yoki 6 oy davomida teng ulushlarga bo'lib to'lash imkoniyati belgilangan holda SHKga kiritiladi. Bunda, agar soliq to'lovchi tekshiruv natijasida aniqlangan summalarni to'lash muddatidan oldin amalga oshirgan taqdirda, SHKda yuzaga keladigan sun'iy ortiqcha to'langan summalarni bartaraf etish uchun SHKdagi tekshiruv natijalari bo'yicha to'lash muddatlarini to'g'rilashga ruxsat beriladi.

4. Soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasidagi moliyaviy jarima qismini SHKda to'lash muddati Soliq kodeksining 104-moddasiga muvofiq belgilanadi. Agarda moliyaviy jarima soliq to'lovchi tomonidan ixtiyoriy to'lab berilmagan taqdirda, SHKda moliyaviy jarimani to'lash muddati sud qarori asosida belgilanadi. Moliyaviy jarima summasi ixtiyoriy ravishda to'langanda yoki sud qarori asosida qo'llanilgandan so'ng soliq tekshiruvi o'tkazgan xodim tomonidan qo'shimcha rasmiylashtirilgan 10-shakl ma'lumoti asosida soliq to'lovchining SHKda aks ettiriladi.

5. O'tkazilgan soliq tekshiruvlari natijasida soliq to'lovchiga qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda penya summalariga, keyinchalik yuqori organ vakolati doirasida yoki sud qarori asosida o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi raxbari (o'rinbosari)ning yozma ko'rsatmasi asosida soliq tekshiruvi o'tkazgan xodim tomonidan bildirgi bilan birga oldingi tekshirish natijasi yuzasidan taqdim qilingan 10-shakl ma'lumotlari bilan farq summasiga qo'shimcha 10-shakl to'ldirilgan holda, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim qilinadi.

Ushbu bo'limning mas'ul xodimi tomonidan soliq to'lovchining SHKsiga qo'shimcha ma'lumot taqdim qilingan muddat bilan yangi yozuvlar (avvalgi yozuvlar o'chirilmasdan) kiritish orqali tegishli o'zgartirishlar kiritiladi, bunda SHKda oldin hisoblangan penyalar qayta hisob-kitob qilinib, SHKga penya o'zgarishi bo'yicha tegishli o'zgartirish kiritiladi.

6. Boshqa tashkilotlar va idoralar tomonidan qo'llanilgan jarimalar DSIning funksional bo'limlari tomonidan jarima qo'llash to'g'risidagi qarorlar kelib tushgan kundan yoki moliyaviy jarimani ixtiyoriy ravishda to'langan kundan e'tiboran bir kun muddatda jarimani qayd etish varaqasini (10-shakl) belgilangan tartibda to'ldirib, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim qilinadi va mas'ul xodim tomonidan soliq to'lovchining SHKsiga kiritiladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish va ularga SHKlarni ochish tartibi

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 68-moddasiga asosan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning SHKlarini ochish uchun asos bo'lib, vakolatli organlar tomonidan soliq obykti (mol-mulki, yyer maydoni, ishlatilgan suv hajmi) ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi, yuridik shaxs tashkil qilmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlik (keyingi matnlarda YATT deb yuritiladi) faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi xujjatlar, shuningdek, Soliq kodeksining 189-moddasida belgilangan ro'yxat

bo'yicha daromad olgan jismoniy shaxslar to'g'risida olingan ma'lumotlar hisoblanadi.

2. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning SHKlari O'zbekiston Respublikasi DSQ tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan dasturiy mahsulda yuritiladi.

3. Quyidagi soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga soliq va boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalar bo'yicha soliq majburiyatlari bajarilishi hisobini yuritish uchun soliq organlarida SHKlar ochiladi:

YATT faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga;
dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil topgan dehqon xo'jaliklari)ga;

turar va noturar uy-joylarga, yyer uchastkalariga yoki boshqa soliqqa tortiladigan mol-mulkka egalik qiluvchi fuqarolarga;

asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslarga.

4. Soliq to'lovchi jismoniy shaxs va YATT SHKlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 69-moddasiga asosan byudjet klassifikatiasiga muvofiq har bir soliq to'lovchi uchun alohida soliq majburiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ochiladi:

a) yyer solig'i;

b) mol-mulk solig'i;

d) YATTga qat'iy belgilangan soliq;

e) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali;

f) yyer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq;

g) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

h) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

i) boshqa to'lovlar;

s) soliq organlarini rivojlantirish jamg'armasiga to'lovlar;

k) Oddiy shirkat shartnomasiga asosan yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovi hamda aksiz solig'i (aksiz solig'i to'lanadigan tovar ishlab chiqarsa).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar SHKlarini yuritish tartibi

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risida»gi 2006-yil 24-maydagi PQ-357-sonli va Vazirlar Maxkamasining «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2003-yil 20-avgustdagi 357-son qarorlariga asosan tuman (shahar) xokimliklari xuzuridagi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyalari tomonidan yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan jismoniy shaxslarga byerilgan STIRlarni ko‘rsatgan holda ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shaklda ma‘lumot taqdim etiladi. Ushbu ma‘lumot tuman (shahar) DSI boshlig‘ining munosabat belgisi bilan Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma‘lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limi mas‘ul xodimiga topshiriladi.

6. Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma‘lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limi mas‘ul xodimi ushbu ma‘lumotni 1 ish kunida 11-ilovaga asosan kitobga qayd qiladi va Jismoniy shaxslarga soliq solish bo‘limi boshlig‘iga (mas‘ul xodimiga) imzo qo‘ydirgan holda yakka tartibdagi tadbirkorni ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni topshiradi.

7. Bundan tashqari, Vazirlar Maxkamasining 2004-yil 2-sentyabrdagi «Tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash xaqida»gi 413-son qaroriga asosan import operatsiyalari faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan jismoniy shaxslarning tuman (shahar) DSI boshlig‘i nomiga yozgan arizasiga muvofiq mas‘ul xodim tomonidan jismoniy shaxsning STIRi mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritiladi. Agar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati (YATT) bilan shug‘ullanish istagini bildirgan jismoniy shaxsning STIR ma‘lumoti soliq organining ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lmasa, mas‘ul xodim soliq to‘lovchini ro‘yxatga olish (o‘zgartirish kiritish)

varaqlarini (12, 12a-ilova) to'ldirib, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimiga taqdim etadi.

8. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi ma'lumotlar va Vazirlar Maxkamasining 2004-yil 2-sentyabrdagi «Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 413-son qaroriga muvofiq tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoxnomadagi ma'lumotlarga asosan, uchastka soliq inspektori 1 ish kuni ichida belgilangan soliq hamda to'lovlar bo'yicha SHKlar ochish uchun Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimiga tadbirkorlar soliqlarini hisobga olish varaqasini (13-ilova) to'ldirib taqdim etadi va Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi tomonidan 1 ish kuni ichida tegishli SHKlar ochiladi.

9. Soliq kodeksining 382-moddasiga asosan, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyat faqat YATTLar tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, birgalikdagi ishlab chiqarilgan maxsulotni (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs mazkur mahsulotni realizastiya qilishdan olingan tushumdan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovchisi, shuningdek agar birgalikdagi ishlab chiqarilgan mahsulot aksiz to'lanadigan maxsulot bo'lsa, aksiz solig'i to'lovchisi sifatida ro'yxatga olinadi.

10. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan YATTLarni hisobga olish, ularga soliq hisoblash va hisoblangan soliqlarni SHKga kiritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Kamyeral nazorat bo'limi mas'ul xodimi oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan ishonchli shaxsning arizasi

(14-ilova) va belgilangan tartibda tasdiqlangan hisob-kitoblarni qabul qilib oladi. SHKga kiritilishi lozim bo'lgan hisoblangan soliq summasini ko'rsatgan holda hisoblashga qabul qilingan soliq hisobotlari reestri (15-ilova) bilan birga 1 ish kunida Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimiga taqdim etadi;

reestr 2 nusxada tuziladi, topshirgan va qabul qilgan mas'ul xodimlar tomonidan imzolanib, uning 1-nusxasi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limida, 2-nusxasi Kamyeral nazorat bo'limida saqlanadi;

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi uchun reestr asosida taqdim qilingan soliq turlari bo'yicha hisobotlar SHKlarga kiritish yoki avval kiritilgan ma'lumotlarga aniqlik kiritish uchun asos bo'ladi;

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi soliq hisobotida ko'rsatib byerilgan soliq summasini soliq to'lovchining SHKsiga kiritadi va kiritilganligi to'g'risida soliq hisobotiga SHKga kiritilgan soliq summasi va sanasini ko'rsatib imzo bilan tasdiqlaydi;

SHKda kiritilayotgan har bir yozuv bo'yicha yozuv kiritilgan sana, mazmuni va yozuv kiritish uchun asos bo'lgan xujjat turi hamda ularni kiritgan xodimning familiyasi, ismi, sharifi aks ettiriladi;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblangan, kamaytirishga hisoblangan summolari bo'yicha yozuv SHKning «Hisoblangan», «Kamaytirishga hisoblangan» summalariga ajratilgan ustunlariga kiritiladi;

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan soliq to'lovchining SHKsiga belgilangan tartibda ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, imzo bilan tasdiqlangan soliq hisobotlari reestrining 2-nusxasi bilan birga 1 ish kundan oshmagan muddatda Kamyeral nazorat bo'limi mas'ul xodimiga taqdim etiladi;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini SHKlarga kiritish, to'langan (undirilgan) solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar va noto'g'ri o'tkazilgan to'lovlarni SHKda aks ettirish tartiblari yuridik shaxslardagi kabi amalga oshiriladi.

11. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 373-moddasiga asosan Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan faoliyatini qayta boshlagan yakka tadbirkorlar to'g'risida taqdim etilgan ma'lumot (16-ilova) DSIning devonxonasida ro'yxatga olinib, Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi boshlig'i (mas'ul xodimi) tomonidan tadbirkorlar solliqlarini hisobga olish varaqasi 1 ish kuni ichida Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga topshiriladi. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimiga taqdim qilingan ma'lumot asosida 1 ish kunida soliq to'lovchining SHKsida soliq hisoblanishi davom ettiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning SHKlari, joriy solliqlarni hisoblash, faoliyat turini o'zgartirish yoki faoliyatni to'xtatish bo'yicha uchastka davlat soliq inspektori tomonidan belgilangan tartibda Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga tadbirkorning solliqlarini hisobga olish varaqasi bo'yicha byerilgan ma'lumot asosida yuritiladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun, mol-mulk va yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar SHKlarini yuritish tartibi

12. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257, 272, 276, 287 va 291-moddalariga asosan suv resurslaridan foydalangan jismoniy shaxslar hamda jismoniy shaxslarga tegishli mulki hisoblangan kvartiralar, uy-joylar, dala-hovlilar, yyer maydonlari va bino inshootlari bo'yicha mol-mulk va yer solliqlariga uchastka soliq inspektori tomonidan taqdim etilgan soliq to'lovchi jismoniy shaxsning solliqlarini hisobga olish varaqasi (17-ilova) ma'lumotlari asosida Soliqlar va

majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan SHKlar ochiladi.

13. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 81-moddasiga asosan jismoniy shaxslarning majburiyatlaridan kelib chiqib, soliq to'lovchilarni hisobga olish va soliq hisoblash bo'yicha soliq to'lovchi jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga olish varaqasi uchastka soliq inspektorlari tomonidan 3 ish kuni ichida to'ldirilib, belgilangan tartibda Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim etiladi.

Shuningdek, soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish davri yakuni bilan 1-yanvar holatiga Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi va Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi uchastka soliq inspektori bilan 19-ilovaga asosan solishtirma dalolatnoma tuzadi. Ushbu solishtirma dalolatnomalar 2 nusxada tuziladi, 1-nusxasi Uchastka soliq inspektorida, 2-nusxasi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limida saqlanadi.

14. Soliq ob'ektlari (yer, mol-mulk) egalari o'zgargan xollarda yangi egalarning DSIda soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga qo'yish to'g'risida byergan arizasiga muvofiq uchastka soliq inspektori tomonidan jismoniy shaxsning STIRi mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritiladi. Agar jismoniy shaxsning STIRi mavjud emasligi aniqlangan taqdirda, uchastka soliq inspektori 3 ish kuni ichida jismoniy shaxsning pasport ma'lumotlari asosida 12, 12a-ilovalarni to'ldirib, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim etadi.

Ushbu bo'lim mas'ul xodimi 1 ish kunida jismoniy shaxsni STIR bilan ta'minlaydi va jismoniy shaxsga STIR byerilganlik to'g'risida guvoxnomadan 1 nusxani uchastka soliq inspektoriga taqdim etadi. Uchastka soliq inspektori 3 ish kuni ichida yer, mulklarning avvalgi va yangi egalari to'g'risidagi 18-ilovadagi shaklga asosan obyektning avvalgi egasiga ochilgan SHKni yopish va uning yangi egasiga SHKni ochish uchun to'ldirilgan ma'lumotni Soliqlar va majburiy to'lovlar

tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimiga taqdim etadi.

15. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257-moddasiga asosan suv resurslarini hisobga oluvchi idoralarning ma'lumotlari asosida suv resurslaridan foydalanuvchi YATTLarni ro'yxatga olish hamda SHK ochish maqsadida, 3 ish kunida Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi mas'ul xodimi soliq to'lovchi jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga olish varaqasini to'ldirib, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimiga hisoblangan soliq summalarini ko'rsatib, 1 ish kuni ichida SHKga kiritish uchun (provodka qilib) taqdim etadi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi taqdim etilgan ma'lumotga asosan 1 ish kunida YATTga SHK ochib, suvdan foydalanganlik uchun hisoblangan soliq summalarini SHKga kiritadi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga SHK ochish va yuritish tartibi

16. Asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar to'g'risida DSIga kelib tushgan ma'lumotlar (o'rindosh, tijorat do'konlariga mol topshirgan, ijara, bir martalik deklaratsiya asosida soliqqa tortilgan jismoniy shaxslar bo'yicha soliq organlaridan, mutasaddi idora va tashkilotlardan, uchastka soliq inspektorlaridan kelib tushgan ma'lumotlar) asosida yakuniy yoki dastlabki Deklaratsiya taqdim etish natijasida hisoblangan daromad solig'i bo'yicha «Fuqarolar daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish» sho'basining mas'ul xodimi 20-ilovada belgilangan tartibda to'ldirib SHKga kiritiladigan soliq summasi va sanasini ko'rsatib imzo bilan tasdiqlangan holda 1 ish kuni ichida SHKga kiritish uchun Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim etadi va ushbu bo'limning mas'ul xodimi tegishli SHK ochadi va hisoblangan summalarini kiritib, imzo va sanani ko'rsatib tasdiqlaydi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga qo'llanilgan moliyaviy jarimalar bo'yicha SHK ochish va hisobini yuritish tartibi

1. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar, shuningdek, yakka tartibda mexnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, mulk egalari va yyerdan foydalanuvchilarning faoliyati yuzasidan o'tkazilgan tekshirishlarda qo'llanilgan moliyaviy jarimalar bo'yicha SHKlarga yozuvlar kiritiladi.

Jismoniy shaxslarga qo'llanilgan moliyaviy jarimalarga SHK ochish va hisobini yuritish tartibi ushbu Tartibning II-bobi 8-paragrafida belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar tomonidan to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini yuritish

2. Byudjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha kelib tushgan mablag'lar to'g'risidagi yozuv soliq to'lovchining SHKga tegishli bank muassasasining har kunlik to'lov xujjatidan ko'chirma hamda ilovasidagi to'lov topshiriqnomasining nusxasi orqali undirilgan soliqlar bo'yicha tegishli SHKlarga kiritiladi.

3. Soliq to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan ishchi va xizmatchilarining daromadidan ushlab qolinib, ularning maxalliy soliqlariga o'tkazilib byerilgan soliqlari DSIga (21-ilova) reestr orqali (to'lov topshiriqnomasining sanasi, raqami, jami summasi, hisob raqami ko'rsatilishi lozim) topshiriladi va Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi tomonidan reestrda jismoniy shaxslarning SHKlariga o'tkaziladi.

4. Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga tushgan tushumlar bank hujjatlaridan ko'chirmalar asosida 1 ish kunidan kechiktirmay tegishliligi bo'yicha soliq to'lovchilarning SHKlariga kiritiladi.

5. Soliq to'lovchining SHKlariga soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha kelib tushgan va qaytarilgan mablag'larga, bank muassasasi

tomonidan mablag' o'tkazilganligini tasdiqlovchi bank xujjatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'langan (undirilgan) soliq va boshqa majburiy ajratmalar bo'yicha to'lov hujjatlari;

soliq to'lovchining to'lov topshiriqnomalari va to'lov kvitanstiyalari; soliq organi tomonidan ortiqcha to'langan summalarni qaytarish to'g'risidagi xulosasi asosida tayyorlangan moliya bo'limining to'lov topshiriqnomasi;

yuridik shaxslar tomonidan o'z ishchi va xizmatchilarining yozma arizasiga asosan ish xaqi hisobidan jismoniy shaxslarning yer, mulk va daromad solig'iga pul ko'chirish orqali o'tkazilgan mablag'larning yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan reestri.

6. Soliq organiga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasi tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bank to'lov xujjatlarining elektron ko'rinishidagi shakli «Bank-klient» dasturiy maxsuli orqali (ayrim xolatlarda qo'lda) Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan tegishliligiga ko'ra soliq to'lovchining soliq turi bo'yicha ochilgan SHKsiga kiritiladi.

Bank to'lov hujjatlaridan ko'chirma qog'ozda chop etilgan ko'rinishda olingandan so'ng, elektron shaklda olingan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi va farq aniqlangan taqdirda, unga aniqlik kiritilib bartaraf qilinadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga noto'g'ri yoki ortiqcha to'langan summalar hisobini yuritish

7. Quyidagi hollarda soliq to'lovchi jismoniy shaxslar tomonidan to'langan mablag'lar noto'g'ri o'tkazilgan deb hisoblanadi:

a) soliq to'lovchi jismoniy shaxs tomonidan STIR ko'rsatilmaganda yoki noto'g'ri ko'rsatilganda;

b) soliq organi nomi noto'g'ri ko'rsatilganda;

d) soliq va boshqa to'lovlar hisob raqami noto'g'ri ko'rsatilganda;

e) to'lov maqsadi noto'g'ri ko'rsatilganda.

8. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summa birinchi navbatda soliq to'lovchining boshqa soliq turlaridan soliq qarzini qoplashga yo'naltirilgandan keyin ortiqcha to'langan soliqlarning qolgan summasini soliq to'lovchi jismoniy shaxsning bank muassasasida ochilgan hisob raqamiga qaytarish Soliq kodeksining 57 va 58-moddalari asosida amalga oshiriladi.

9. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi soliq to'lovchining to'lov topshiriqnomasida tegishli ma'lumotlari to'liq bo'lmagan taqdirda, 2 ish kunida (STIR, yashash manzili, FISH) SHKga kiritilmagan to'lov hujjatlari bo'yicha 22-ilovada belgilangan shaklda reestr tuzib, bildirgi asosida Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limiga to'lovlarga aniqlik kiritib byerish uchun taqdim etadi.

10. Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi boshlig'i yoki mas'ul xodimi taqdim etilgan reestr asosida 3 ish kuni ichida to'lov xujjatlariga aniqlik kiritib, belgilangan tartibda SHKga kiritish uchun Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga 22-ilovada belgilangan shakldagi reestr asosida ma'lumotlarni haqqoniyligini tasdiqlash uchun imzo bilan topshiradi.

11. Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi ma'lumotni olgandan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan reestr asosida aniqlik kiritib byerilgan to'lov hujjatlarini tegishli SHKlarga kiritadi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning soliq qarzi summasi hisobini yuritish

12. Har oy yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oying 15-sanasiga qadar Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi (yoki administrator) tomonidan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar elektron tarzda (MS Excel fayl ko'rinishida) Soliq kodeksining 62-moddasiga asosan majburiy undiruvga qaratish

choralarini ko'rish uchun Soliq bo'yicha qarzlarni majburiy undirish bo'limiga (yoki mas'ul qilib belgilangan xodimga) yozma bildirishnoma (rahbariyatining munosabat belgisi) orqali taqdim etiladi.

13. Taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Soliq bo'yicha qarzlarni majburiy undirish bo'limi soliq qarzi summalarini ko'rib chiqib, Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'limi bilan birgalikda Soliq kodeksining 60, 61 va 62-moddalariga asosan majburiy undirish choralarini ko'radi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxsning pochta manzili o'zgarganda SHKlarni boshqa soliq organiga ko'chirib o'tkazish tartibi

14. Soliq to'lovchi jismoniy shaxsning pochta manzili o'zgarganda, uning SHKlari Jismoniy shaxslarga soliq solish hamda Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimlari tomonidan belgilangan tartib asosida boshqa soliq organiga yuboriladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning SHKlarini yopish yoki vaqtinchalik to'xtatib turish

15. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning SHKlariga quyidagi xolatlarda soliqlar va to'lovlar vaqtincha hisoblanmaydi yoki SHKlar yopiladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 373-moddasiga asosan yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza bilan davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga murojaat qilib, davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan axborotnoma taqdim qilinganda;

b) amaldagi qonunchilik asosida ro'yxatga olishning alohida tartibi joriy qilingan import faoliyati bilan shug'ullanish uchun yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini butunlay to'xtatish yoki vaqtinchalik to'xtatish to'g'risidagi ariza bilan DSIga murojaat qilganda (ariza DSI devonxonasida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi shart);

d) yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini butunlay to'xtatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 27-apreldagi PQ-630-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risida»gi

Nizomga muvofiq ro'yxatdan o'tkazuvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorni davlat reestridan chiqarish to'g'risidagi qarori asosida;

e) jismoniy shaxsning soliq ob'ekti uchun qonunchilikka asosan soliq majburiyati tugatilganda;

f) jismoniy shaxsning jami yillik daromadlari to'g'risida taqdim etgan Deklaratsiyasiga ko'ra qo'shimcha hisoblangan daromad solig'i bo'yicha soliq majburiyati to'liq bajarilganda (qo'shimcha hisoblangan daromad solig'ini qisman yoki ortiqcha to'lashda xosil bo'ladigan soliq qarzi va ortiqcha to'langan summasi mavjud bo'lgan xolatlar bundan mustasno);

g) soliq to'lovchi uchun soliq qonunchiligiga asosan soliq majburiyati tugagan boshqa hollarda.

16. YATT faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning SHKlarini yopishdan avval Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi SHKda belgilangan soliq va pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaga hisoblashni to'xtatib, soliq to'lovchi bilan 3 nusxada solishtirma dalolatnoma tuzib, 1-nusxasi soliq to'lovchiga taqdim etiladi, 2-nusxasi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limida, 3-nusxasi esa Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limida saqlanadi.

17. Soliq to'lovchi bilan tuzilgan solishtirma dalolatnomaga asosan soliq va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha soliq qarzi hosil bo'lsa, Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan mavjud soliq qarzini amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda undirish choralari ko'rib, soliq qarzi penyasi bilan birga to'liq undirilgandan so'ng qayta solishtirma dalolatnoma tuzilib, SHKlar yopiladi.

18. Solishtirma dalolatnomaga asosan soliq to'lovchi jismoniy shaxsning soliq va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha SHKda ortiqcha to'langan summa hosil bo'lsa, soliq to'lovchining yozma murojaatiga asosan Soliq kodeksining 56-57-moddalarida belgilangan tartibda unga tegishli boshqa obyekt bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarilishida

hisobga olinadi yoki qaytariladi, soliq to'lovchining qarzi mavjud bo'lmagan xolatda SHKdagi qoldiq ortiqcha to'langan summalar davlat foydasiga hisobga olinib, SHKlar yopiladi va bu to'g'risida solishtirma dalolatnoma tuziladi.

Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratilishi hisobidan tushgan tushumlarni SHKlarda aks ettirish tartibi

1. Sud ijrochilari tomonidan soliq to'lovchining mol-mulkini bevosita sotish (realizastiya qilish) natijasida undirilgan pul mablag'larini SHKlarda aks ettirilishi quyidagicha:

soliq to'lovchining bankdagi maxsus hisob raqamiga kelib tushgan mablag'lar (ya'ni, mol-mulk sotuvidan tushgan tushumning 92 foizi) soliq organlarining inkasso topshiriqnomalariga (yoki soliq to'lovchining to'lov topshiriqnomalariga) muvofiq proporsional ravishda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlari bo'yicha hisob raqamlariga belgilangan tartibda o'tkaziladi hamda soliq to'lovchining SHKlariga kiritiladi.

Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan (undirilgan) 8 foiz mablag'lar – SHKga «Sud ijrochilarining 8 foizlik ulushi» nomi bilan Sud ijrochilari tomonidan majburiy undiruv bo'yicha DSIga (soliq qarzini qoplash uchun) o'tkazib byerilgan mablag'lardan kelib chiqib (jami undirilgan summani 92 foiz deb qaralib), mutanosib ravishda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlariga qolgan 8 foizidan oshmagan miqdorda (ortiqcha to'langan summa xosil qilinmagan tarzda) alohida rejim orqali kiritiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summalarni hisobga olish yoki soliq to'lovchining hisob raqamiga qaytarilgan mablag'lar hisobini yuritish tartibi

2. Soliqlar bo'yicha ortiqcha to'langan summani hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 56, 58 va 227-moddalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summani belgilangan tartibda hisobga olish amalga oshirilgandan keyin

ortiqcha to‘langan soliqlarning qolgan summasini soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘iga qaytarish Soliq kodeksining 57, 58 va 228-moddalari va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

4. Ortiqcha to‘langan summa boshqa soliq turiga o‘tkazilgan yoki soliq to‘lovchining hisob raqamiga qaytarilgan xollarda bank to‘lov hujjatlari ko‘chirmasi asosida qaytarilgan summa to‘g‘risidagi yozuv SHKda «qaytarildi» ustunida aks ettiriladi.

5. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha ortiqcha to‘langan summalarni hisobga olish yoki soliq to‘lovchiga qaytarishning hisob-kitobi reestri dasturiy majmua yordamida elektron tarzda yuritiladi.

6. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan manfiy qoldiq bo‘yicha yuzaga kelgan ortiqcha to‘langan summa Moliya vazirligi tomonidan soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘iga qaytarilgan taqdirda, ushbu summa bank hujjatlarini SHKga o‘tkazish dasturi orqali soliq to‘lovchi SHKsining «qaytarildi» ustunida aks ettiriladi. Bunda DSIning hisob raqamlar reestrida alohida hisob raqam (Moliya vazirligidagi mablag‘ qaytarilgan hisob raqam) ochilib, moliya vazirligi tomonidan soliq to‘lovchiga mablag‘larni qaytargan to‘lov topshiriqnomasida ko‘rsatilgan sana – SHKga operatsiya amalga oshirilgan (to‘lov) sanasi sifatida kiritiladi.

SHKlarda penya hisoblash va to‘lash tartibi

7. Soliq to‘lovchining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha SHKlarida penya hisoblash Adliya vazirligida 2007-yil 9-oktyabrda 1724-son bilan ro‘yxatga olingan «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga penya hisoblash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Hisoblangan (kamaytirilgan), hisobdan chiqarilgan, undirilgan (to‘langan) penya summalari SHKning penya bo‘yicha tegishli ustunlarida qayd etiladi.

1724-sonli Nizom O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 52 (I-son) va O‘zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 232-modda) muvofiq qonun hujjatlarida

belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha penya hisoblash va undirish tartibini belgilaydi hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalariga taalluqlidir.

penya — soliq qarzi summasidan, belgilangan to‘lov muddatidan keyingi kundan boshlab to‘langan kunga qadar, to‘lov kunini xam o‘z ichiga olgan davr uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda hisoblab yoziladigan moliyaviy sanksiya.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lov turlari bo‘yicha penya hisoblash uchun joylardagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi ochiladi.

Soliq qarzi summasining ortiqcha to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan oshgan qismiga penya hisoblash uchun soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkalarida har bir soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari (jismoniy shaxslar daromad solig‘i bundan istisno) bo‘yicha barcha operatsiyalar qoldiq summalari aks ettirilgan holda operatsiyalar amalga oshirilgan (soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkalarida yozuvlarni yuritish) sanaga yoziladi.

Soliq to‘lovchining faoliyatini tugatish yuzasidan Maxsus komissiyaning xulosasi bildirgi orqali olingandan so‘ng, ma‘lumotlar bazasida soliq to‘lovchining holati «Tugatishga tayyorlanayotgan korxonaga»ga o‘zgartiriladi.

Soliq to‘lovchining faoliyatini tiklash yuzasidan Maxsus komissiyaning tegishli xulosasi olingan taqdirda, ma‘lumotlar bazasida soliq to‘lovchining holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan soliq to‘lovchi sifatida tegishli o‘zgartirish kiritiladi.

Soliq to‘lovchining ma‘lumotlar bazasida o‘zgartirishlarni to‘liq aks ettirilib borilishini ta‘minlash maqsadida, YUridik shaxslarga soliq solish bo‘limining mas’ul xodimi maxsus komissiyadan olingan ma‘lumotlarni Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma‘lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limining mas’ul xodimiga taqdim etadi. Ushbu bo‘limining mas’ul xodimi

taqdim etilgan reestr ma'lumotlari asosida ma'lumotlar bazasiga tegishli o'zgartirishlarni kiritadi.

Ma'lumotlar bazasi administratori har oyda bir marta hisobot oyidan keyingi oyning 3-sanasi gacha ma'lumotlar bazasidagi soliq to'lovchining xolati to'g'risida reestr ma'lumotlarini tegishli bo'limlarga ish jarayoni va hisobotda foydalanish uchun taqdim etadi.

Bankrot deb e'lon qilingan soliq to'lovchilarning SHKlarini hisobini yuritish tartibi

Xo'jalik yurituvchi subyektni bankrot deb e'lon qilinganligi to'g'risidagi Xo'jalik sudining qarori soliq organiga belgilangan tartibda kirim qilingach, DSI boshlig'ining munosabat belgisi bilan bir nusxadan Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga ijroga byeriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektni bankrot deb e'lon qilinganligi to'g'risidagi Xo'jalik sudining qarori Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan ijroga olingach, bankrot korxonaning SHKsini yurituvchi mas'ul xodim tomonidan 1 ish kuni ichida korxonani bankrot deb e'lon qilingan sanadan boshlab, soliq to'lovchining SHKsidagi barcha to'lash muddati uzaytirilgan qarzlarning to'lash muddati kelgan deb hisoblanib SHKda tiklanadi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi (administrator) 1 ish kuni ichida ma'lumotlar bazasiga soliq to'lovchini bankrot deb e'lon qilinganligi to'g'risidagi tegishli o'zgartirishni kiritadi.

Ushbu hujjat chiqqan sanadan boshlab bankrot deb e'lon qilingan soliq to'lovchining SHKlarida barcha soliq qarzi summalariga penya hisoblanishi dasturiy maxsuldagi imkoniyatlardan foydalanib, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan to'xtatiladi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan bankrot korxonaning soliq qarzlari to'g'risida solishtirma dalolatnoma tuzilib, tugatish boshqaruvchisiga tasdiqlatish uchun DSI nomidan tugatish komissiyasiga vakil qilib ishonchnoma byerilgan xodimga rasman ro'yxatdan o'tkazilgan holda taqdim etiladi.

DSIning mas'ul tuzilmasi tomonidan tasdiqlangan solishtirish dalolatnomasi asosida 3 kun muddatda DSI nomidan boshliq yoki uning o'rinbosari imzosi bilan tugatish boshqaruvchisi nomiga bankrot korxonaning soliq qarzlari qarzdorning kreditorlar reestriga kiritish xaqida rasman xat bilan murojaat qilinadi.

Bankrot deb e'lon qilingan xo'jalik sub'ekti amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tugatilib, Xo'jalik sudi tomonidan tugatish boshqaruvchisining yakuniy hisoboti tasdiqlangach, uning asosida korxonani davlat reestridan o'chirish to'g'risida chiqarilgan qaror nusxasi DSIning devonxonasi orqali rasman ro'yxatga olinib, DSI raxbarining munosabat belgisi bilan bir nusxasi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga ijroga byeriladi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi bankrotlik yo'li bilan tugatilgan korxonani davlat reestridan o'chirish to'g'risida chiqarilgan qaror nusxasi va unga DSI boshlig'ining bildirgan munosabat belgisi asosida Ma'lumotlar bazasiga tegishli o'zgartirish kiritadi.

Ushbu davlat reestridan chiqarish to'g'risidagi xujjat chiqqan sanadan boshlab bankrotlik tamoyili natijasida tugatilgan soliq to'lovchining SHKlaridagi qoldiq summalar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 38-moddasiga asosan da'vo qilish muddati o'tgunga qadar alohida hisobda yuritilib, SHKda joriy va muddati uzaytirilgan soliq qarzdorligi (shu jumladan penya) yoki ortiqcha to'langan summalar sifatida aks ettirilmaydi.

Mazkur operatsiyalar bajarilganidan keyin Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga

xizmat ko'rsatish bo'limi mas'ul xodimi tomonidan bankrot korxonaning SHKlari 1 ish kuni ichida belgilangan tartibda yopiladi.

Faoliyati tugatilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning SHKlarini hisobini yuritish tartibi

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-iyuldagi «Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to'g'risida»gi 327-son qaroriga asosan amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda (3 oy, 6 oy) faoliyat ko'rsatmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha bank muassasalaridan olingan ma'lumotlarni DSIning Kamyeral nazorat bo'limi mas'ul xodimi 3 ish kuni ichida soliq to'lovchining holatiga o'zgartirish kiritish uchun ma'lumotlar bazasi administratoriga taqdim etadi, ma'lumotlar bazasi administratori soliq to'lovchining holatiga tegishli o'zgartirishlarni kiritganligi to'g'risida Kamyeral nazorat bo'limining soliq to'lovchilarni hisobga olish kitobiga munosabat belgisi qo'yadi.

Kamyeral nazorat bo'limining mas'ul xodimi Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi bilan birga soliq to'lovchi faoliyat ko'rsatgan davrda SHKga kiritilgan ma'lumotlarni taqdim etilgan hujjatlar asosida to'liq kiritilganligini tekshirib chiqadi.

Bunda, noto'g'ri kiritilgan yoki kiritilmagan xolatlar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli bo'limga ko'rsatma byerish bo'yicha soliq organining boshlig'i (o'rinbosari) nomiga yozma ravishda bildirgi kiritilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ko'riladi.

Maspul bo'lim tomonidan soliq to'lovchi ixtiyoriy tugatish orqali tugatilayotganda soliq organlari tomonidan o'tkazilgan yakuniy tekshirish dalolatnomasi bo'yicha hisoblangan (qo'shimcha hisoblangan, kamaytirishga hisoblangan) summalar bo'yicha belgilangan tartibda 10-shakl ma'lumoti to'ldirilib SHKga kiritish uchun Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limiga taqdim etiladi.

Soliq to'lovchining yozma murojaatiga asosan byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bo'yicha tugatish tekshiruvigacha hamda tekshiruv natijasida xosil bo'lgan ortiqcha to'langan summa birinchi navbatda boshqa soliq yoki majburiy to'lov turidagi soliq qarzi, penya va jarima summalarini belgilangan tartibda qoplashga yo'naltiriladi, qolgan qismi tekshiruvda jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblab, undirilganligi to'g'risida soliq to'lovchining tugatish ishlari bo'yicha mas'ul xodimi tomonidan tegishli xulosa byerilgandan so'ng qonunchilikka muvofiq soliq to'lovchining yozma arizasiga asosan belgilangan tartibda soliq to'lovchining hisob raqamiga qaytarilishi mumkin.

Tugatilayotgan soliq to'lovchining byudjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha tugatish tekshiruvi o'tkazilgandan keyin soliq qarzi kelib chiqmasa yoki kelib chiqqan soliq qarzi summasi belgilangan tartibda soliq to'lovchi tomonidan to'lab byerilgan(undirilgan)dan so'ng, ya'ni soliq qarzdorligi mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq to'lovchining yozma arizasiga muvofiq Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan 3 ish kuni ichida (10-ilova) byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bo'yicha soliq qarzi yo'qligi to'g'risida tegishli tashkilotlarga taqdim qilish uchun ma'lumotnoma byeriladi.

Yuridik shaxs tugatilayotganda uning negizida yoki o'rnida yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxs (huquqiy voris) bo'lsa, tugatilayotgan korxonaning soliq majburiyatlari Soliq kodeksining 51-moddasiga asosan yangi tashkil qilinayotgan korxonaga SHKlariga o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tuman (shahar) bo'limida soliq to'lovchi belgilangan tartibda tugatilib, Davlat reestridan chiqarilganligi to'g'risida soliq organiga tegishli ma'lumot kelib tushgan kundan boshlab, 1 ish kuni ichida Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi soliq to'lovchi Davlat

reestridan chiqarilganligi yuzasidan ma'lumotlar bazasiga tegishli o'zgartirish kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 27-apreldagi PQ-630-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan ixtiyoriy tugatilayotgan korxonalar bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bilan munosabatlar ushbu nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning SHKlarini yopish tartibi

SHKlar quyidagi xollarda yopiladi:

a) soliq to'lovchining soliq majburiyatlari boshqa korxonaga o'tkazilganda (qo'shilganda);

b) soliq to'lovchining faoliyati qonunda belgilangan tartiblarda tugatilib, davlat reestridan chiqarilganda (bunda, bankrotlik alomatidan tashqari boshqa holatlar bo'yicha korxonaga tugatilgan bo'lsa, soliq qarzi undirilgandan so'ng, ortiqcha to'langan summolari esa soliq to'lovchi tomonidan qaytarish to'g'risida yozma murojaat qilinmagan taqdirda, davlat foydasiga hisobga olingandan so'ng SHKlari yopiladi);

d) soliq to'lovchining yuridik manzili o'zgarganligi munosabati bilan boshqa tumanga soliq to'lovchining SHKlari jo'natilgandan so'ng;

e) amaldagi soliq qonunchiligiga asosan boshqa xollarda.

Soliq to'lovchining byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bo'yicha soliq majburiyatlari boshqa korxonaga o'tkazilishida (qo'shilishida), boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs boshqa tuman (shahar) soliq organida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, soliq to'lovchining yuridik manzili o'zgarganligini SHKlarda aks ettirish tartibida amalga oshiriladi (faqat soliq to'lovchiga tegishli ma'lumotlar va SHKning pochta fayli shakllantirib yuborilmaydi), SHKlardagi qoldiq summalar soliq turlariga nisbatan mos ravishda qo'shib olayotgan soliq to'lovchining SHKlariga o'tkaziladi.

Agarda qo'shilayotgan yuridik shaxs va boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs bilan birga

bitta soliq organidan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, qo'shilayotgan soliq to'lovchining SHKlaridagi qoldiq summalar soliq turlari bo'yicha mos ravishda o'tkaziladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan soliq to'lovchining SHKlaridagi soliq qarzi (yoki ortiqcha to'langan summa) kabi qoldiq summalari alohida rejim orqali hisoblashga (kamaytirishga) byerish orqali «tugatilgan», «boshqa tumanga o'tgan», «boshqa korxonaga qo'shilgan» kabi yozuvlar bilan qoldiq summalar yopilib, Soliq kodeksining 38-moddasiga asosan da'vo qilish muddati o'tgunga qadar alohida hisobda yuritiladi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i, ma'lumotlar bazasi administratori va mas'ul xodimlar (o'ziga tegishli statuslar bo'yicha) soliq to'lovchining SHKlariga kiritilgan ma'lumotlarning to'liq va to'g'riligi yuzasidan inventarizastiya o'tkazib boradilar.

SHuningdek, DSQning 2008-yil 2-maydagi 84-sonli, 2011-yil 6-iyuldagi 188-sonli, 2012-yil 15-martdagi 71-sonli buyruqlari va boshqa DSQ tomonidan yuborilgan topshiriqlar talablariga asosan yuridik va jismoniy shaxslar ma'lumotlar bazasi belgilangan muddatlarda inventarizastiyadan o'tkazib borilib, aniqlangan xato va kamchiliklar DSI rahbariyatiga ma'lum qilinib, bartaraf qilib boriladi.

Soliq to'lovchining SHKlari inventarizastiyadan (nazoratdan) o'tkazilayotganda Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining mas'ul xodimi SHKga kiritilgan yozuvlar uchun javobgar hisoblanadi va quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarni (hisobotlar, qayta hisobotlar va ma'lumotnomalar), o'tkazilgan tekshiruv dalolatnomalari bo'yicha ma'lumotlarni (qo'shimcha va kamaytirishga hisoblangan summalar, penya va jarimalar) o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq SHKlarga kiritilishi;

byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bo'yicha kelib tushgan va qaytarilgan mablag'larni o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq SHKga birlamchi bank to'lov hujjatlari asosida to'g'ri kiritilishi;

hisobot yili boshidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kelib tushgan hamda qaytarilgan mablag'larni, byudjet klassifikastiyasi me'yorlariga to'g'ri kelishi;

vakolatli organlarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha soliq qarzi, penya hamda jarimalar to'lash muddatini uzaytirish, bo'lib-bo'lib to'lash imkonini byerish va hisobdan chiqarish, qayta tiklash to'g'risidagi xujjatlari (qaror va majlis bayonnomalari) asosida SHKga yozuvlar to'g'ri, belgilangan tartibda va muddatlarda kiritilishi;

soliq qarzi summalariga o'z vaqtida, to'liq va belgilangan tartibda inkasso topshiriqnomalari qo'yilishi;

soliq qarzigaga belgilangan tartibda penya hisoblanganligi.

SHKlardagi tegishli qoldiq summalarini yildan-yilga o'tkazish dasturiy mahsullar yordamida amalga oshiriladi. Dasturiy maxsullar yordamida qoldiq summalari keyingi yilga o'tkazilganligi to'g'risida DSI boshlig'i, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i va Ma'lumotlar bazasi administratori ishtirokida dalolatnoma tuzilib, tasdiqlanadi va 1 nusxasi yuqori soliq organiga taqdim etiladi.

Ma'lumotlar bazasi har kuni arxivlanadi va oy yakunlangunga qadar arxiv fayllari Ma'lumotlar bazasi administratorining kompyuterida saqlanadi. Har oy yakuni bilan bir marotaba ma'lumotlar bazasi administratori, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi va Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi boshliqlari ishtirokida ma'lumotlar bazasi arxivlanib, ma'lumotnoma tuziladi va saqlash uchun kompakt disk hamda syervyer kompyuterida alohida arxiv ma'lumotlari uchun ajratilgan joyda kelgusida foydalanish uchun saqlanadi.

Ma'lumotnomada arxiv bazasi hajmi va sanasi ko'rsatilib, mas'ul xodimlar tomonidan imzolanadi. Ma'lumotnoma tuzilgandan so'ng, oy

davomida administrator kompyuterida saqlanib kelingan arxivlangan ma'lumotlar bazasi o'chiriladi.

SHKlarni yuritish ishlarini qonuniyligi uchun javobgarlik

Xorijiy valyutada soliq hisoboti taqdim etuvchi soliq to'lovchilar ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organlarida yangi dasturiy majmua yaratilguniga qadar SHKlarda qo'lda yuritiladigan hisob-kitoblar to'g'riligiga hamda yangi dasturiy majmua ishga tushirilib, amaliyotga joriy qilingandan so'ng, tegishli ma'lumotlar to'liq yangi dasturiy majmuaga o'tkazilishiga davlat soliq xizmati organlari raxbari javobgar hisoblanadi.

SHKlarda soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni to'g'ri va haqqoniy yuritilishini ta'minlash uchun quyidagilar:

Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limining soliq to'lovchi SHKsini yuritish uchun mas'ul xodimi hamda bo'lim boshlig'i soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisoblangan (kamaytirishga hisoblangan), qo'shimcha hisoblangan, undirilgan (to'langan, qaytarilgan), to'lash muddati kechiktirilgan (hisobdan chiqarilgan, bo'lib-bo'lib to'lash imkoni byerilgan), hisoblangan penya va jarima summalarini SHKlarda to'g'ri va to'liq aks ettirilishi, shuningdek ularni hisobini yuritilishi va belgilangan hisobotlarni to'g'ri tuzilishi bo'yicha;

DSIning YUridik shaxslarga soliq solish, Jismoniy shaxslarga soliq solish va boshqa funksional bo'linmalarining mas'ul xodimlari mazkur Tartib bilan belgilangan shakllar bo'yicha ma'lumotlarni to'liq va to'g'ri to'ldirib (yoki tayyorlab) o'z vaqtida ta'minlanishi bo'yicha;

Kamyeral nazorat bo'limining mas'ul xodimlari, qabul qilingan soliq hisobotlaridagi SHKga kiritilishi lozim bo'lgan hisoblangan soliq summalarining to'g'ri aks ettirilishi, soliq hisobotlari reestrini saqlanishi hamda tegishli funksional bo'limga belgilangan muddatlarda taqdim etib borilishi, soliq hisobotlaridagi soliq summasini reestrda soliq summalariga to'g'ri kelishi va ularning haqqoniyligi bo'yicha;

Davlat soliq xizmati organining raxbarlari, soliq va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limida byudjetga va byudjetdan tashqari maqsadli

jamg'armalarga soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlar hisobini hamda soliq to'lovchilarning SHKlarini yuritilishini to'g'ri tashkil etilishi, shuningdek nazorat qilinishi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda javobgardirlar.

SHKlarga asossiz tarzda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi taqiqlanadi. SHKlarni yuritish uchun asos bo'ladigan boshqa ma'lumotlarni noqonuniy ko'rsatganlik va SHKlarga noqonuniy ma'lumotlar kiritganlik uchun mas'ul xodimlar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi.
2. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi qanday yuritiladi?
3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini qanday yuritiladi?.
4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish yoki soliq to'lovchining hisob raqamiga qaytarilgan mablag'lar hisobini yuritish tartibiga izoh byering.
6. Shaxsiy kartochkalarda penya hisoblash va to'lash tartibi.
7. Soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritilishini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?

5-BOB. SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

5.1. Soliqlarni undiruviga javobgar soliq organlari tarkibiy bo‘linmalari

5.2. Soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari

5.1. Soliqlarni undiruviga javobgar soliq organlari tarkibiy bo‘linmalari

Soliq nazorati soliq to‘lovchilarni, soliq solish ob‘ektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari nazorati, soliq to‘lovchilarning soliq majburiyati yuzaga kelgandan keyin, qonunchilikda belgilangan tadbirlar ijrosi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e‘tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to‘lovchi:
hududiy Davlat soliq inspeksiyasida hisobga turishi;
soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq ob‘ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;

moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etishi;

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshiriladi, lekin istisno tariqasida Soliq kodeksiga va boshqa qonunlarga muvofiq soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga yuklatilishi ham mumkin.

Yuridik shaxsning alohida bo‘linmalari bo‘yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo‘linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo‘lsa va ular mustaqil balansga ega bo‘lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Soliq solinadigan mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo‘lgan soliq to‘lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo‘lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to‘lovchiga nisbatan Soliq kodeksda nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta‘minlash choralari qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonunida Davlat soliq xizmati organlariga belgilab byerilgan asosiy vazifalaridan biri soliqlarni undirish hisoblanadi. Byudjet, byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar daromadlarini shakllantirishda asosiy manba hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida undirilishini ta‘minlashda soliq xizmati organlarining vazifalari va majburiyatlari ham ushbu qonun va Soliq kodeksida o‘z aksini topgan.

Soliq xizmati organlariga birinchi navbatda, soliqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq hajmda va o‘z vaqtida byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘lanishini nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq qarzi, shu jumladan, qonunchilikda belgilgan tartibda qo‘llanilgan jarima summalarini qonun hujjatlariga muvofiq, soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari asosida bank muassasalari tomonidan soliq to‘lovchining bank hisobvarag‘idan so‘zsiz to‘lanishi nazorati ham soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirda davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishiga, ularning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishiga rioya qilinishini ta‘minlash, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlatning maqsadli jamg‘armalariga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘liq miqdorda tushishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-

yil 24 yanvardagi «CHakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblar mexanizmini yanada tartibga solish to'g'risida»gi PQ-1910-sonli Qaroriga asosan Davlat soliq xizmati organlarining quyidagi tarkibiy tuzilmasi shug'ullanmoqda.

Davlat soliq inspeksiyalarida soliq va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida tushirish maqsadida soliq nazorati yo'lga qo'yilgan. Bu borada jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzini majburiy undirishga qaratishda har bir bo'linma tomonidan bajaradigan ishlar belgilab byerilgan. Ular quyidagilardir:

1. YATTLarga qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badali, jismoniy shaxslarga yyer va mol-mulk soliqlari hisoblanishi uchun bazaga kiritiladigan ma'lumotlarni (09, 16 va 17 shakllar) belgilangan tartibda hamda muddatlarda to'ldirish Jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi, ushbu ma'lumotlarni (hisoblangan soliqlarning) elektron bazaga (SHXVga) kiritish Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

2. YATTLar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida qo'llanilgan moliyaviy jarimalar, tekshiruvni amalga oshirgan mas'ul xodim tomonidan taqdim etilgan 10-shakl asosida Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan ushbu YATTning SHXVga kiritiladi.

3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan, muddatida to'lanmagan moliyaviy jarimalar, Soliq kodeksida belgilangan tartibda majburiy undiruvga qaratiladi.

4. Dasturiy mahsuldagi soliq qarzlarini har bir YATT va jismoniy shaxs kesimida belgilangan muddatdan kechiktirmasdan tegishli uchastka soliq inspektori (USI), Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi va Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'limi boshliqlari tomonidan dalolatnoma asosida uch tomonlama tasdiqlangan holda, Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limiga ijro uchun topshiriladi.

5. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsuli orqali soliq qarzi mavjud har bir YATTga 3 kun muddatda ogohlantirish talabnomalarini tayyorlab,

hududlar kesimida ro'yxatini tuzib tegishli USIlariga taqdim etish maqsadida bildirgi bilan DSI boshlig'i (o'rinbosari)ga kiritadi.

6. Tayyorlangan ogohlantirish talabnomalari DSI boshlig'i (o'rinbosari) munosabat belgisi orqali Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi tomonidan USIlariga ro'yxat va shaxsiy imzosi orqali topshirilgandan keyin, ikki kun muddatda shaxsan yoki pochta xizmati orqali buyurtma xat bilan qarzdorlarga yetkazilishi ta'minlanadi.

7. USI soliq qarzini uzish to'g'risidagi ogohlantirish talabnomalarini qarzdor YATT ga yetkazgan kundan boshlab bir kun muddatda Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limiga ogohlantirish talabnomasining fuqaro olganligini tasdiqlovchi (koreshogi) nusxasini yoki pochta orqali buyurtma xat bilan topshirilganligi to'g'risidagi kvitansiyaning taqdim etadi.

8. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi Soliq kodeksining 61 va 62-moddalariga asosan soliq qarzini uzish to'g'risidagi ogohlantirish talabnomasini YATT tomonidan olingan kundan e'tiboran tegishliligicha o'ttiz kun ichida soliq qarzi uzilmagan taqdirda, ogohlantirish talabnomasini bajarishning belgilangan muddati o'tgan kundan e'tiboran uch ish kunida soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish maqsadida sudga ariza (da'vo) tayyorlaydi.

9. USI da'vo arizasi tayyorlash uchun belgilangan muddatda o'ziga birlashtirilgan uchastka bo'yicha arizaga (da'vo arizasi) ilova qilinadigan tegishli hujjatlarni (to'lov xabarnoma koreshogi, qarzdor fuqaroning yashash joyidan ma'lumotnoma, soliq qarzi to'g'risida solishtirish dalolatnomasi) yig'ib, Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limiga byerilishini ta'minlaydi.

10. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi xodimlari tegishliligi bo'yicha fuqarolik (iqtisodiy) sudga da'vo arizasi kiritadilar hamda sud jarayonida DSIning ishonchli vakili sifatida ishtirok etadilar.

11. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi tomonidan qarzdor YATTLar bo'yicha sudlardan qabul qilib olingan ijro hujjatlarni «Ijro varaqalarini ro'yxatga olish kitobi»da qayd etib, uch ish kundan kechiktirmasdan hududiy Sud ijrochilari bo'limiga ijrosini ta'minlash uchun yuboradi.

12. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi Sud ijrochilari bo'limlari bilan har oyda hisobot oyidan keyingi oying 5 sanasiga qadar ish yurituvda bo'lgan, yuborilgan, ijro qilingan va ijrosiz qaytarilgan ijro hujjatlari, undirilgan qarzdorlik summalari va boshqa amalga

oshirilgan ishlar bo'yicha taqqoslash dalolatnomalarini tuzadi va tasdiq uchun DSI boshlig'iga (o'rinbosari) kiritadi.

13. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi Sud ijrochilari bo'limlari tomonidan ijrosiz qaytarilgan ijro hujjatlarini qabul qiladi, ularning asoslilikini o'rganadi va etarli asosga ega bo'lmagan holatlar bo'yicha qayta ijroga qaratish uchun yuboradi va bu haqda tegishli sud organiga taqdimnoma yuboradi.

14. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi soliq qarzlarini majburiy undirishga qaratish va umidsiz soliq qarzlarini hisobdan chiqarish uchun ish jarayonida zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni uchastka soliq inspektorlaridan talab qilib oladi.

15. Xizmat ko'rsatuvchi bank belgisi qo'yilgan to'lov topshiriqnomasining nusxasi YATT tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, talabnomani bajarishning belgilangan muddati o'tgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi inkasso topshiriqnomalarini taqdim etadi;

16. USI tomonidan YATT debitori bilan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi taqdim etilgan taqdirda, Soliqlar va majburiy to'lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi ushbu solishtirma dalolatnomasi asosida debitorlarning bank hisobvaraqlariga YATTning soliq qarzi summasini soliq to'lovchi oldidagi qarzidan oshmaydigan miqdorda undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini taqdim etadi.

17. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi Soliq qarzini undirish bo'yicha nazarda tutilgan barcha choralar ko'rilganidan keyin qarz to'lanmagan taqdirda YATT bo'yicha iqtisodiy sudiga «Bankrotlik to'g'risidagi» Qonuniga asosan bankrot deb topish to'g'risida, jismoniy shaxslar bo'yicha esa byudjet oldidagi qarzini kechish to'g'risida Fuqarolik sudiga ariza bilan murojaat qiladi.

18. Soliq qarzini majburiy undirishga qaratish bo'limi YATTlarning soliq qarzini majburiy undirish bo'yicha Soliq kodeksida nazarda tutilgan barcha choralar ko'rilgandan keyin qarzdorlik to'lanmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan subsidiar tartibda undirish choralarini ko'radi.

Soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushishiga soliq nazoratining ta'siri soliqlarning yig'iluvchanlik darajasida ko'rinadi. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi hisoblangan va byudjetga to'langan soliq va boshqa majburiy to'lovlardan kelib chiqib aniqlanadi. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi qancha yuqori bo'lsa soliqlar byudjetga o'z vaqtida tushishi shuncha yaxshi bo'ladi. Bundan tashqari soliq qarzi kamayadi. Respublikamizda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi yildan-yilga ortib bormoqda.

2013-2017-yillarda respublikamizda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi o'sish tendensiyasiga ega. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi 2013-yilda 93,5 % ni, 2012-yilda 95,8%ni, 2013-yilda 96,4%ni, 2014-yilda 96,8 %ni, 2015-yilda 97,3 %ni tashkil etgan. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi 2016-yilda 2013-yilga nisbatan 3,8 % ga ko'paygan. Bunga sabab, hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarning undirilish miqdorining ko'payishidir.

Bizga ma'lumki, Davlat soliq xizmati tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. CHunonchi, intyernetdagi www.soliq.uz saytida soliq to'lovchilarga 30dan ortiq turdagi intyerfaol xizmat turlari ko'rsatish joriy qilingan bo'lib, ularning identifikatsion raqamini kiritish orqali "Soliq qarzi mavjud emasligi to'g'risida elektron ariza orqali ma'lumotnomalar byerish" intyerfaol xizmati asosida soliq to'lovchilarning soliq organlariga tashrif buyurmagan holda soliq qarzlari yo'qligi to'g'risida elektron ma'lumotnomalarni avtomatik ravishda shakllantirish va chop etish imkoniyati yaratilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi yagona yyer solig'ini to'lovchisi hisoblanadigan xo'jalik yurituvchi shaxslar tomonidan byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritildi. Buning natijasida maqsadli jamg'armalar bo'yicha yangi paydo bo'ladigan qarzdorliklarning oldi olinishiga yerishiladi, hamda qishloq xo'jali mahsulotlarini yetishtiruvchilar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ular faoliyatining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarni har tomonlama qo'llab quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. 2015-yildan e'tiboran, yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish yuborib, tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, moliyaviy sankstiyalar summalarini

to'lashni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda amalga oshirishga haqli ekanligi belgilandi.

Bizga ma'lumki, soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma yuridik shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida soliq qarzi uzilmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari undiruvni soliq to'lovchining debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratadi. 2015-yildan boshlab, mazkur muddat ichida soliq qarzini uzmagani yuridik shaxslar soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomani olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga debitorlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalarini yoxud to'lov muddati o'tgan debitorlik qarzi mavjud emasligi to'g'risida yozma bildirish taqdim etishi shartligi belgilab qo'yildi. Amaldagi qonun hujjatlarida soliq qarzini undirishni ta'minlash uchun soliq qarzi bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan uning debitorlari bilan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini majburiy tarzda taqdim etish hamda taqdim etmaganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Yevropa mamlakatlarining (Shveystariya, Gyermaniya, Fransiya) ushbu yo'nalishdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchi – qarzdor soliq qarzini uzish bo'yicha talabnomani bajara olmagan taqdirda, soliq qarzi bo'yicha hisob-kitob qilish imkoniyatini aniqlash uchun kyerak bo'ladigan soliq to'lovchi to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi soliq to'lovchi tomonidan imzolanadigan hisob-kitob shaklida tushuntirishnoma taqdim etadi. 2015-yildan kiritilgan o'zgartirish soliq qarzini, shu jumladan soliq to'lovchi-qarzdorning debitorlari hisobdan majburiy undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi ijobiy jihatlar bilan birgalikda mamlakatimizda soliq qarzini qisqartirish va yangi qarzdorliklarni paydo bo'lishini oldini olish bo'yicha bir qancha dolzarb muammolar va kamchiliklar mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Ularni bartaraf qilish shu bilan birga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida undirish mexanizmini takomillashtirish milliy iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmitig sog'lom faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun shu mexanizmning birinchi tarkibiy qismi bo'lgan soliq to'lovchilar faoliyatida quyidagilarga qat'iy ravishda rioya qilmoq lozim:

1. Har bir soliq to'lovchining (uning jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligi bu o'rinda prinsipial ahamiyatga ega emas) soliqlardan va ularni to'lamaslikdan qochib qutilishning mutlaqo iloji yo'q ekanligini aniq tasavvur qilishi.

2. Soliqlarning o'z vaqtida va belgilangan summada to'lamayotgan, amaldagi soliq qonunchiligiga rioya qilmayotgan, soliqqa tortilishdan turli yo'llar bilan bo'yin tortishga harakat qilayotgan soliq to'lovchilarga nisbatan jazo choralarini yanada keskinlashtirish va bu jazolarning qo'llanilish muqarrarligiga yerishish.

Bu o'rinda qo'llanilishi lozim bo'lgan jazo choralarini yanada keskinlashtirish deganda ularni doimiy ravishda intizomli soliq to'lovchi bo'lib kelgan va ayrim hollarda o'ziga boliq bo'lmagan holda byudjet oldidagi o'z majburiyatini bajara olmay qolgan soliq to'lovchilarga nisbatan nazarda tutmayapmiz. Aksincha, jazo choralarining yanada keskinlashtirilishi va ayovsiz tus olinishi soliq to'lashdan sistematik ravishda qochib yurgan, doimiy ravishda turli yo'llar va vositalar orqali amaldagi soliq qonunchiligini aylanib o'tishga harakat qilayotgan va aylanib o'tgan sub'ektlarga nisbatan qo'llanilishi kyerak.

5.2. Soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari

Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmining takomillashtirish asosiy yo'nalishlarining ikkinchisi shu mexanizmning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lgan «Soliq undiruvchilar» bloki bilan bevosita bog'liqdir. Gap bu yyerda amaliyotda muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari, ya'ni sud ijrochilari xususida ketayapti. Amalga oshirilgan tahlil natijalari shundan dalolat byeradiki, hamma vaqt ham va hamma hollarda ham soliq undiruvchilar faoliyati muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirishni taminlash imkonini byermayapti. Albatta, ularning yuqoridagi muammoni hal etishdagi xizmatlarini rad etishning yoki uning ahamiyatini pasaytirib ko'rsatishning iloji yo'q. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirishni taominlash vazifasi yuklatilgan soliq undiruvchilarning hammasini ham shu vazifani bajarishga xolisona xizmat qilayapti deb aytib bo'lmaydi.

Amaliyotda sodir bo'layotgan ko'pgina holatlar va dalillar shundan dalolat byerayapti.

Bundan tashqari, korxonalarining qarzdorliklari Sud ijrochilari tomonidan dastlab depozit hisob raqamlariga undirib olinib keyin soliq qarzini qoplashga yo'naltiriladi. Natijada pul mablag'lari byudjetga yo'naltirilgunga qadar korxonaga nisbatan penya hisoblanishi davom etishi bilan birga, hisob raqamlarida mablag'lar aylanishi bo'yicha davlat soliq xizmati organlari ma'lumot olishi mumkinligi «Sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilmaganligi munosabati bilan byudjetga mablag'larni vaqtida va to'liq yo'naltirilayotganligini nazorat qilish imkoniyati chegaralanib qolmoqda.

Ularning bu tarzda «faoliyat»lari tegishli byudjetlarning faqat daromadlar qismining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki xo'jalik yurituvchi subyektlarning-soliq to'lovchilarning ham xo'jalik-moliyaviy faoliyatlarining natijalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Salbiy ta'sirini esa quyidagi misolda aniqlashtirish mumkin.

Natijada pul mablag'lari tegishli hisob-raqamlarga yo'naltirilgunga qadar korxonaga nisbatan penya hisoblanishi, bu bilan 3 ta salbiy oqibat o'z-o'zidan keltirib chiqarmoqda. Bular:

Sun'iy ravishda soliq qarzlarning paydo bo'lishi;

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushmasligi;

Sun'iy ravishdagi ustamalarning xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xo'jalik-faoliyatiga ortiqcha yuk bo'lishi.

Bundan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik-faoliyatlariga va tegishli byudjetlarning faqat daromadlar qismining bajarilishiga hamda sun'iy ravishda soliq qarzlarning oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatishni oldini olish maqsadida sud ijrochilari depozit hisob raqamiga pul tushgandan to korxonaning soliq qarzini to'lagungacha davrdagi tartibini takomillashtirish masalasini ko'rib chiqish kyerak.

Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarining uchinchi. Shu mexanizmning tarkibiy qismlaridan bo'lgan «huquqiy hujjatlar» bloki bilan bog'liqdir. Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan «huquqiy hujjatlar»

blokingning faoliyat ko'rsatishida ma'lum bir uzilishlar sodir bo'lib, uning bir maromda ishlamasligi butun mexanizmning ham sog'lom faoliyat ko'rsatmasligiga olib kelayapti.

Shu bilan birga, majburiy undiruvni amalga oshirish muddatlarining da'vo ariza bo'yicha uzoq vaqtni olayotganligi ishning samaradorligini oshirish va to'lov intizomini mustahkamlashda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qachonki qarzdorga qarzini to'lashi to'g'risida byerilgan ogohlantirish talabnomasini o'ttiz kunlik muddat tugagach Xo'jalik sudlariga kiritilgan da'vo arizasi Xo'jalik prostessual kodeksining 125-moddasiga asosan bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rilishi va 146-moddasiga asosan hal qiluv qarori bir oylik muddat o'tgach kuchga kirishi hisobiga (bundan tashqari pochta orqali boradigan vaqt ham bor) kamida ikki oydan ortiq vaqt ketmoqda.

Sud ijrochilari tomonidan ijroga qabul qilib olinib, qarzdorning mol-mulkini xatlash, savdoni tashkil etish va sotish davri, yuqorida qayd qilingan muddatlar hamda qarzdorlik summalari umidsiz bo'lsa uni bankrotlik orqali tugatish soddalashtirilgan tartibda bo'lgan holda ham majburiy undiruvni amalga oshirishda umumiy jarayon 1(bir) yilgacha cho'zilmoqda.

Sud ijrochilari departamenti tomonidan sud hujjatlarini ijrosiz qaytarish va ijro ishi yuritishni tugatishda asos bo'layotgan, qarzdorning xatlangan mol-mulkini qarzi evaziga qabul qilib olishni rad etish yoki mol-mulki, daromadlarini qidirish yuzasidan barcha choralarning ko'rilganligi kabi sabablar asos qilinayotgan «Sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'risida»gi Qonunining 37, 40-moddalari tegishli bandlari bugungi kunda Soliq kodeksi talablaridan kelib chiqib takomillashtirishni talab qilmoqda.

Shuning uchun ham muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biri – bu jarayonni tartibga solib turuvchi huquqiy hujjatlarni xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan huquqiy hujjatlar asosida o'rganib, o'zimizning sharoitimizdan kelib chiqib moslashtirish bugungi kun talabidir.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Soliqlarni undirish mexanizmi.
2. Soliq nazorati kim tomondan amalga oshiriladi?
3. Soliq majburiyati qanday holatda yuzaga keladi?
4. Davlat soliq xizmati organlarining vazifalari va majburiyatlari nimalardan iborat?

6-BOB. SOLIQ ORGANLARI NAZORAT FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING SHAKLLARI VA ZAMONAVIY USULLARI

6.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.

6.2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilish shakllari va tekshiruv turlari.

6.3. Nazorat qilishning asosiy prinsiplari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarga qo‘yiladigan talablar.

6.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini nazorat qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilishining huquqiy munosobatlari va tartib qoidalari quyidagi qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to‘g‘risida»gi Farmoni (1998-yil 19-noyabr, PF-2114-son);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni (2005-yil 14-iyun, PF-3619-son);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni (2005-yil 5-oktyabr, PF-3665-son)
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to‘g‘risida» 1998-yil 19-noyabrdagi PF-2114-son Farmoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Farmoni (2005-yil 28-noyabr, PF-3694-son);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat

qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”Farmoni. (PF-4296-son 4-aprel 2011-y.)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-4354-son, 24-avgust 2011 y.)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati yerkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. (PQ-1604-sonli. 25-avgust 2011-y.)

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori (1998-yil 27-noyabr 496-son);

- «Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan, tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to‘g‘risida» Nizom (Adliya vazirligida 2006-yil 5-mayda 1573-son bilan ro‘yxatga olingan);

- “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni tashkillashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom Adliya vazirligida 2007-yil 3-sentyabrda 1712-son bilan ro‘yxatga olingan);

- «Tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobining shakli va uni to‘ldirish tartibini tasdiqlash haqida»gi buyrug‘i (Adliya vazirligida 7-noyabr 2011-yil 2208-son bilan ro‘yxatga olingan).

«Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida»gi qonunning maqsadi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdir. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan muassasalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati tegishli Qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish

to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modyernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2010-yil 8-yanvardagi PQ-1257-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari etib quyidagilar belgilandi:

- pul mablag'larining noqonuniy muomalada bo'lishi manbalarini bartaraf etish, aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd tushumning o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- dehqon bozorlari va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyatini, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini qattiq nazorat qilish hamda jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirgan holda ularning hududlarida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha surishtiruvlar o'tkazish;

- respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha ishlari muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modyernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2010-yil 8-yanvardagi PQ-1257-son qaroriga asosan Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tashkil etildi va bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash avtomobil to'xtash joylari, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqi faqat davlat soliq xizmati organlariga byeriladi.

davlat soliq xizmati organlari, keyinchalik Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika kengashini yoki uning hududiy komissiyalarini xabardor qilgan holda, Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi boshlig'ining buyruqlari asosida bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash avtomobil to'xtash joylarida bir martalik yig'img'lar topshirilishini, ijara to'lovi tushumi va hisobi to'liq yuritilishini, nazorat-kassa mashinalaridan, hisob-kitob tyerminallaridan foydalanilishini, shuningdek savdo va xizmatlar ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini har kuni tekshirish huquqiga egaligi ko'rsatilgana;

bozorlar va savdo komplekslarida sanitariya norma va qoidalariga, shuningdek, standartlarga, yong'in xavfsizligi normalari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya-epidemiologiya xizmati organlariga va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xavfsizligi xizmatiga yuklangan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar o'z xodimlari va mutaxassislarining bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solish bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash uchun davlat soliq xizmati organlari tomonidan tashkil etiladigan guruhlar tarkibida qatnashishini ta'minlash belgilangan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 98-son Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Ushbu qarorda Davlat soliq qo'mitasining vazifalari, huquqlari va vakolatlari belgilangan.

«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunning maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdir. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari

jamg'armalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan muassasalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati tegishli Qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

6.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilish shakllari va tekshiruv turlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

tekshirish, shu jumladan, taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish;

statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;

idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish.

Soliq nazorati – soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya va Respublika yo'l jamg'armalariga majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunida «*Soliq nazorati* soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat»-deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

soliq to'lovchilarni hisobga olish;

soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni

hisobga olish;

byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;

kamyeral nazorat;

naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;

soliq tekshiruvlari;

fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash;

aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;

davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;

boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

Bojxona organlari tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha soliq nazoratini o'z vakolatlari doirasida Soliq Kodeksiga va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Soliq nazorati amalga oshirilayotganda Soliq Kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini buzgan holda soliq to'lovchi to'g'risida axborot to'plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatishga, shuningdek, soliq sirini oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi hujjatlar yoki boshqa axborot soliq to'lovchini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo'la olmaydi (SK. 12 bob. 67-modda).

Kamyeral nazorat

Kamyeral nazorat soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir.

Kamyeral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yyerda amalga oshiriladi.

Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kamyeral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji

Soliq to'lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruq soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan tushum miqdori kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini byeradigan tafovutlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda xronometraj o'tkaziladigan soliq to'lovchi, xronometrajni o'tkazish joyi va muddati, xronometraj o'tkaziladigan davr, xronometraj o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishiga sabab bo'lgan tafovut, shuningdek, davlat soliq xizmati organining xronometraj o'tkazadigan mansabdor shaxslari albatta ko'rsatiladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji kelib tushayotgan pul tushumini davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan kuzatish va qayd etish orqali o‘tkaziladi. Xronometrajni o‘tkazishga boshqa shaxslarni, shu jumladan, ekspyertlarni jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini amalga oshirish jarayonida tekshiruv o‘tkazishga, soliq to‘lovchidan biron bir axborot yoki tushuntirishlar talab qilishga, soliq to‘lovchiga nisbatan talablar taqdim etishga yoki uning faoliyatiga boshqacha tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan xronometraj o‘tkazilayotgan vaqtga doir ma’lumotlarni olish mustasno.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalari yuzasidan ma’lumotnoma tuzadi. Ma’lumotnomaning ko‘chirma nusxasi soliq to‘lovchiga topshiriladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalaridan faqat taqdim etilayotgan soliq hisoboti to‘g‘riligini tahlil etish uchun, shuningdek, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini yuritish uchun foydalaniladi. Xronometraj natijasi soliq to‘lovchini javobgarlikka tortish uchun asos bo‘la olmaydi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo‘llanilishi

O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga kiritilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari majburiy qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi, bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o‘ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo‘llamasdan amalga oshirishi mumkin bo‘lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno.

Faoliyatining o‘ziga xos xususiyati sababli naqd pul bilan hisob-kitob qilishni nazorat-kassa mashinalarini qo‘llamasdan amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilish shakllari ichida tekshirish samaradorlik jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

6.3. Nazorat qilishning asosiy prinsiplari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarga qo‘yiladigan talablar

Tekshiruvchi mansabdor shaxslarga qo‘yiladigan talablar. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 20-yanvarda 2070-son bilan ro‘yxatga olingan “Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o‘tkazish huquqini byerish bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” Nizom asosida nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tekshirishga ruxsat belgilangan namunadagi maxsus guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Ushbu nizomga muvofiq attestatsiyadan o‘tkazish tartibi quyidagicha:

Attestatsiyani o‘tkazish muddati attestatsiya komissiyasi raisi tomonidan xodimlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o‘tkazish huquqining tugash muddati, nazorat qiluvchi organning tuzilmasi, shtat birligining o‘zgarishi, xodimlar qo‘nimsizligi va boshqa holatlarni inobatga olib, nazorat qiluvchi organ rahbari bilan kelishgan holda belgilanadi.

Attestatsiyani o‘tkazish to‘g‘risida nazorat qiluvchi organ rahbarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o‘tkazish huquqini byerish bo‘yicha attestatsiyadan o‘tadigan xodimlar ro‘yxatini tasdiqlash

hamda attestatsiya o'tkazishni tashkillashtirish bo'yicha buyrug'i qabul qilinadi.

Xodimlar ro'yxatiga nazorat qiluvchi organning xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqiga ega bo'lgan (muddati tugagan yoki tugayotgan) va bunday huquqni olishga taklif etilayotgan xodimlari kiritiladi. Bunda xodimlar ro'yxatiga oldin xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqi byerilgan, ammo xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish bilan bog'liq bo'lmagan lavozimga o'tgan xodimlar kiritilmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqi byeriladigan har bir xodim bo'yicha nazorat qiluvchi organning tegishli tuzilmasi rahbari tomonidan ushbu xodimning ish faoliyatida yerishgan natijalari, ijobiy va salbiy xususiyatlari to'g'risida attestatsiya komissiyasiga xizmat tavsifnomasi taqdim etiladi.

Attestatsiyadan o'tkaziladigan xodim attestatsiyadan kamida ikki hafta oldin, attestatsiyani o'tkazish to'g'risidagi buyruq va o'zi haqidagi xizmat tavsifnomasi bilan imzo qo'ydirilgan holda tanishtirilishi kyerak.

Attestatsiya komissiyasi yig'ilishi attestatsiya komissiyasi tasdiqlangan tarkibining 3/4 qismi qatnashsa vakolatli hisoblanadi.

Attestatsiya attestatsiyadan o'tayotgan xodim bilan suhbat shaklida o'tkaziladi.

Attestatsiya komissiyasi tomonidan attestatsiyadan o'tuvchi xodim haqidagi tavsifnoma va savollarga byerilgan javoblarni inobatga olgan holda har bir attestatsiyadan o'tuvchi xodimga nisbatan ochiq ovoz byerish yo'li bilan alohida qaror qabul qilinadi. Qaror attestatsiyada ishtirok etgan attestatsiya komissiyasi a'zolarining ko'pchiligi ovoz byerganda, qabul qilingan deb hisoblanadi. Attestatsiya komissiyasi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda attestatsiya komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

Attestatsiya natijasi bo'yicha attestatsiya komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

xodim attestatsiyadan o'tdi;

xodim attestatsiyadan o'tmadi.

Har bir attestatsiyadan o'tayotgan xodimga ikki nusxada mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tekshirish o'tkazish huquqini byerish bo'yicha attestatsiya varaqasi tuziladi.

Attestatsiya yakuni bo'yicha attestatsiya komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror attestatsiya komissiyasi raisi, kotibi hamda a'zolari tomonidan imzolanadigan attestatsiya varaqasiga kiritiladi. Attestatsiya varaqasining ikkinchi nusxasi attestatsiya o'tkazilgandan keyin uch kun muddatda attestatsiyadan o'tgan xodimga imzo qo'ydirilgan holda taqdim etiladi.

Attestatsiya yakunlari bo'yicha uch kunlik muddatda bayonnoma tuziladi. Bayonnomada attestatsiya o'tkazilgan sana va joyi ko'rsatiladi hamda attestatsiya varaqalari ilova qilinadi. Bayonnoma attestatsiya komissiyasi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi va unda har bir attestatsiyadan o'tuvchi xodimga byerilgan savollar mazmuni, javoblar to'g'riligi, shuningdek, xodimga xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqini byerish haqida qabul qilingan qarori ko'rsatilishi kyerak.

Attestatsiya komissiyasi tomonidan "xodim attestatsiyadan o'tdi" deb qaror qabul qilingan xodimga attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilanadigan, ammo nazorat qiluvchi organ tomonidan o'rnatilgan attestatsiyani o'tkazish davriyligidan oshmagan muddatga xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqi byeriladi.

Attestatsiya komissiyasi tomonidan attestatsiyadan o'tgan xodimga quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqini byeruvchi maxsus guvohnoma byeriladi:

Tekshiruvga auditorlik tashkilotlari va (yoki) ekspertylar jalb etilgani taqdirda, nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan nazorat qiluvchi organ va auditorlik tashkiloti va (yoki) ekspert o'rtasidagi shartnomaning ko'chirma nusxasi albatta taqdim etiladi. Shartnomada auditor va (yoki) ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi va lavozimi ko'rsatilgan bo'lishi kyerak. Auditor va (yoki) ekspert xulosasining to'fg'riligi va uning qonun hujjatlariga muvofiqligi uchun auditorlik tashkiloti va (yoki) ekspertning javobgarligi

tuziladigan shartnomaning zaruriy sharti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari va ekspertyzallarni o'tkazish harajatlari nazorat qiluvchi organlar hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organining xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazuvchi mansabdor shaxslariga qo'yiladigan talablar

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari davlat soliq xizmati organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish huquqiga ega bo'lgan hamda bu haqda maxsus guvohnoma bilan ta'minlangan mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish huquqini byeruvchi maxsus guvohnomaga ega bo'lmagan mansabdor shaxslarini soliq tekshiruvlariga jalb etish qat'iyan man etiladi, xo'jalik yurituvchi subyekt maqomiga ega bo'lmagan shaxslarda o'tkaziladigan tekshirishlar (nazorat tadbirlari) bundan mustasno.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, soliq nazorati, shakl, tamoyil, soliq nazorati turlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Soliq siyosatida soliq ma'murchiligining tutgan o'rni va uning asosiy yo'nalishlari.
2. Soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirilishi va uni ko'rib chiqish tartibi.
3. Soliq tekshiruvi turlari va ularni tashkil qilish.
4. Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va uni o'tkazish tartibi.
5. Soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi.

III QISM. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING SIFATINI OSHIRISH UCHUN SOLIQ NAZORATI TIZIMI 7-BOB. SOLIQ TEKSHIRUVI TURLARI VA ULARNI TASHKIL QILISH

- 7.1. Soliq tekshiruvi turlari
- 7.2. Soliq tekshiruvini tashkil etish
- 7.3. Tekshirishlarning reja-jadvallarini ishlab chiqish tartibi

7.1. Soliq tekshiruvi turlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

tekshirish, shu jumladan taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish;

statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;

idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish.

Soliq nazorati–soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya va Respublika yo'l jamg'armalariga majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunida «*Soliq nazorati* soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat»-deb belgilab qo'yilgan.

7.2. Soliq tekshiruvini tashkil etish

Tekshirish bu – xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishidir.

Soliq tekshiruvining maqsadi bo‘lib, soliq to‘lovchilarning soliq va valyutaga oid qonun hujjatlariga rioya etishi, shuningdek, ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari talablarini bajarishi ustidan nazorat qilish bo‘lib hisoblanadi.

Soliq tekshiruvining vazifasi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining soliq majburiyatini bajarishi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlash hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlik dalillarining hujjatlar bilan tasdiqlanishi va ularning soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettirilishidan iborat.

Soliq tekshiruvlari faqat davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkaziladi, ular tekshiruvlar davomida soliq va valyutaga oid jinoyatlar alomatlarini aniqlagan hollarda – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tomonidan o‘tkaziladi.

Tekshirilayotgan soliq to‘lovchi mansabdor shaxslarining yaqin qarindoshlari (ota-onasi, yeri yoki xotini, aka-ukasi, opa-singlisi, farzandlari) yoki qudalari (yer yoki xotinning aka-ukasi, opa-singlisi, ota-onasi va farzandlari) bo‘lgan davlat soliq xizmati organlari xodimlarining soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvlarini o‘tkazishi taqiqlanadi. SHuningdek soliq tekshiruvi natijalaridan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan davlat soliq xizmati organlari xodimlari soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvlari o‘tkazishga qo‘yilmaydi. Bunday holatlar yuzaga kelganda davlat soliq xizmati organlari xodimi tekshiruv boshlanishidan oldin o‘zining bevosita rahbariga bu haqda ma'lum qilishi shart. Mazkur qoidaga rioya etmaganlik uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq soliq xizmati organi xodimi zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari soliq tekshiruvi paytida olingan soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni sir saqlashga majburlar, faqat quyidagi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mazkur axborotni taqdim etishga haqlidirlar:

- davlat soliq xizmati organlarining boshqa xodimlariga, ular xizmat majburiyatlarini bajarishlari paytida va maqsadida;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, soliqqa oid huquqbuzarliklar va jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslarning qonunga ko‘ra aybini fosh etish maqsadida;
- sudlarga, soliq to‘lovchining soliqqa oid majburiyatlarini yoki soliqqa oid huquqbuzarliklar va jinoyatlar uchun javobgarligini belgilash haqidagi ishni ko‘rib chiqish davomida;
- davlat byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarini shakllantiruvchi vakolatli davlat organiga;
- xalqaro shartnomalarga muvofiq boshqa mamlakatlarning soliq yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlariga.

Soliq tekshiruvlarining o‘tkazilishi soliq to‘lovchining faoliyatini to‘xtatib qo‘ymasligi kyerak, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Davlat soliq xizmati organlari tekshirilayotgan yuridik shaxsning tarkibiy bo‘linmalarini tekshirishga haqli.

Soliqlar va majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi soliq tekshiruvi predmeti hisoblanadi.

Tekshiruv davomida quyidagi masalalarga e‘tibor byerish zarur:

- buxgaltyeriya hisobi yuritilishi sifati;
- soliq solinadigan baza to‘g‘ri belgilanishi va soliq stavkasi to‘g‘ri qo‘llanishi;
- soliqlar va majburiy to‘lovlar summalari o‘z vaqtida o‘tkazilishi;
- soliq hisob-kitoblari soliq organlariga o‘z vaqtida taqdim etilishi;
- soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar qo‘llanishi tartibi va soliq to‘lashdan bo‘shagan mablag‘larning maqsadli ishlatilishini tekshirish;
- soliq solishga oid boshqa masalalar.

Rejali tekshiruvdan avval, soliq inspektorlari har bir soliq turi bo‘yicha hisobot va hisob-kitoblarni kamyeral nazoratdan (joyiga chiqmasdan) o‘tkazadilar

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatini tekshirish quyidagi turlarga bo‘linadi:

- taftish;
- muqobil tekshirish;
- nazorat tartibida tekshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvi soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to‘lovchining buxgaltyeriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslashdir.

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir. (SK. 14 bob. 85-modda)

Soliq to‘lovchi moliya-xo‘jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) – tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o‘tkaziladigan tekshiruvdir.

Soliq to‘lovchi moliya-xo‘jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) quyidagi hollarda o‘tkaziladigan tekshiruvdir:

yuridik shaxs tugatilayotganda;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o‘tkazish zarur bo‘lganda;

davlat soliq xizmati organiga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari soliq to‘lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar tushganda.

Muqobil tekshiruv – operatsiyalar birligi tufayli o‘zaro bog‘langan va turli soliq to‘lovchilarda bo‘lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruvdir.

Muqobil tekshiruv uchinchi shaxslarga nisbatan, agar soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotganda davlat soliq xizmati organida mazkur shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan, soliq to‘lovchi o‘tkazgan operatsiyalar soliq bo‘yicha hisobga olishda to‘g‘ri aks ettirilganligi haqida qo‘shimcha ma’lumot olish zaruriyati kelib chiqsa, o‘tkaziladi.

Qisqa muddatli tekshiruvlar rejadan tashqari soliq tekshiruvi tarzida o‘tkaziladi.

7.3. Tekshirishlarning reja-jadvalarini ishlab chiqish tartibi

Yillik tekshirishlar reja-jadvalini ishlab chiqishda nazorat qiluvchi organlar tomonidan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlarning yillik va yil choraklariga mo‘ljallangan muvofiqlashtirish reja jadvalarini shakllantirish prinsiplari to‘g‘risidagi tasdiqlangan qoidalarni hisobga olgan holda, tekshirishlarning reja-jadvaliga kiritish uchun tegishli takliflar quyidagicha taqdim etiladi:

- Kengash ishchi organiga – nazorat qiluvchi organlarning markaziy apparatlari tomonidan tekshiriladigan tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha;

- viloyat komissiyalarining ishchi organlariga – nazorat qiluvchi organlarning viloyat bo‘linmalari tomonidan tekshiriladigan tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha.

- tuman komissiyalarining ishchi organlariga – nazorat qiluvchi organlarning tuman (shahar) bo‘linmalari tomonidan tekshiriladigan tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha;

Ayrim nazorat qiluvchi organlar uchun ularning murojaatlari bo‘yicha Kengashning maxsus qarorlari bilan takliflar taqdim etishning boshqa tartibi nazarda tutilishi mumkin.

Nazorat qiluvchi organlar yoki ularning bo‘linmalari tomonidan Kengashning, viloyat yoki tuman komissiyalarining ishchi organlariga taqdim etilgan takliflar, yuqorida nazarda tutilgan muddatlar tugaganidan keyin, ko‘rib chiqilmaydi.

Nazorat qiluvchi organlarning takliflari asosida Kengash tomonidan yillik tekshirishlar reja-jadvali ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Bunda tadbirkorlik subyektlari quyidagi hollarda tekshirishlar reja-jadvaliga kiritilmaydi:

tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish tegishli nazorat qiluvchi organning vakolatiga kirmaydigan bo'lsa;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlarning yillik va yil choraklariga mo'ljallangan muvofiqlashtirish reja-jadvallarini shakllantirishning printsiplari to'g'risidagi tasdiqlangan qoidalar shartlariga rioya etilmagan bo'lsa;

tadbirkorlik subyektlari tugatilgan yoki tugatish jarayonida bo'lsa, shuningdek ular bankrot deb ehlon qilingan bo'lsa;

ularning reja-jadvalga kiritilishi qonun hujjatlariga, Kengash qabul qilgan qarorlarga zid bo'lsa.

Rejadan tashqari tekshirishlar (shu jumladan qisqa muddatli tekshirishlar) nazorat qiluvchi organlar tomonidan "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga binoan ularning o'tkazilishini asoslab byeradigan sabablar mavjud bo'lgan quyidagi alohida hollarda amalga oshirilishi mumkin:

tekshirishlarni o'tkazish zarurati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlaridan kelib chiqqanda (agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlarida tekshiriladigan subyekt nomi aniq belgilangan bo'lsa, bunda Kengash yoki uning viloyat komissiyasi roziligini olish talab qilinmaydi);

nazorat qiluvchi organga tadbirkorlik subyekti tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi hollari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushganda (korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolardan kelib tushgan, aniq dalillangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan huquqbuzarlik holatlari ko'rsatilgan axborot qo'shimcha ma'lumot bo'lib xizmat qilishi mumkin);

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish zarur bo'lganda;

sanitariya - epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli vujudga kelganda.

Shuningdek nazorat qiluvchi organlarga tadbirkorlik subyekti o'z faoliyatini tekshirishni so'rab, asoslantirilgan iltimos bilan murojaat etgan taqdirda ham rejadan tashqari tekshirish o'tkazilishi mumkin.

Tekshirishlar reja-jadvaliga rioya etilishi monitoringini Kengashning va uning viloyat, tuman komissiyalarining ishchi organlari olib boradilar, ular Kengash barcha darajadagi hududiy komissiyalarining joylardagi nazorat qiluvchi organlar bilan o'zaro doimiy aloqasini tahminlaydilar hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilgan tekshirishlarni maxsus kompg'yutyer dasturidan foydalangan holda oyma-oy tahlil qilib boradilar.

Nazorat qiluvchi organlarning hududiy bo'linmalari yilning har choragida o'tkazilgan tekshirishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shaklda va muddatlarda tegishli viloyat, tuman komissiyalariga hamda o'zlarining yuqori tashkilotlariga taqdim etadilar, ular esa bu ma'lumotlarni umumlashtiradilar va hisobot davri yakunlari bo'yicha yig'ma mahlumotlarni Kengashning ishchi organiga taqdim etadilar.

Nazorat qiluvchi organlar va ularning hududiy bo'linmalari har oyning 3-kunigacha, ular tomonidan o'tgan oyda o'tkazilgan tekshirishlarning boshlangan va tugallangan sanasi to'g'risidagi mahlumotlarni kengashning, viloyat va tuman komissiyalarining ishchi organlariga kompg'yutyer ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun, taqdim etadilar.

Rejadan tashqari tekshirishlarning boshlanganligi, tugallanganligi va ularning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni nazorat qiluvchi organlar va ularning hududiy bo'linmalari tegishincha kengashning, viloyat va tuman komissiyalarining ishchi organlariga tekshirish tamom bo'lganidan keyin 10 kunlik muddat ichida taqdim etadilar.

Kengash, viloyat va tuman komissiyalari, tadbirkorlik subyektlari faoliyati tekshirilayotganda nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan qonunga xilof harakatlarni sodir etish holatlari aniqlangan

taqdirda tegishli chora ko‘rish uchun bu haqda prokuratura organlariga zudlik bilan xabar qiladi.

Nazorat qiluvchi organlar yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini Kengash, uning viloyat va tuman komissiyalari ruxsatlari asosida tekshiradilar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirish ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarilayotgan, tovarlar savdo qilinayotgan, turli xizmatlar bajarilayotgan va yoki xizmatlar ko‘rsatilayotgan turg‘un obyektlar (bino, inshootlar)da amalga oshiriladi. Muqobil tekshirishlar va turg‘un obyektlar (bino, inshootlar)dan tashqarida o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarda tekshirishlar o‘tkazish bundan mustasno.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishda quyidagi masalalar ko‘riladi:

a) soliq va tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi;

b) savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishi, shu jumladan nazorat-kassa mashinasi, hisob tyerminallari qo‘llanilishi, sotilayotgan majburiy syertifikatlanadigan tovarlarga muvofiqlik syertifikatlari, o‘lchov asboblarida belgilangan tamg‘alari mavjudligi;

d) pul mablag‘lari hisobini yuritish va muomalalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi;

e) buyumlarda Davlat asillik tamg‘asi o‘rni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi asillik tamg‘a belgisining mavjudligi;

f) standartlashtirish, metrologiya va syertifikatlashtirishga doir mehyoriy hujjatlar talablariga rioya etilishi;

g) sanitariya nazorati, vetyerinariya nazorati, yong‘in xavfsizligi choralari, enyergetika hamda ekologiya nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi.

Litsenziyalanadigan faoliyat bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarda lsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ham tekshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirish faqatgina quyidagi nazorat qiluvchi organlar tomonidan:

Davlat soliq xizmati organlari;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi Davlat asllik darajasini belgilash palatasi

Standartlashtirish, metrologiya va syertifikatlashtirish bo‘yicha davlat nazorati organlari;

Davlat sanitariya, vetyerinariya, yong‘in xavfsizligi, enyergetika nazorati organlari va O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;

Tegishli Isenziyalovchi organlar.

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari hududida faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarni tekshirishlar qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida faqat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida bir kun davomida rejadan tashqari qisqa muddatli, muqobil yoki nazorat tartibida tekshirishlar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Istisno tariqasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarning moliyaviy va tovar hujjatlarini tekshirish zarurati bo‘lgan hollarda, kamyeral nazorat natijasida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilishi holatlari asosida, Kengash qarori bilan yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini bundan ko‘proq, lekin 5 ish kunidan oshmagan muddatda tekshirish o‘tkazish ko‘zda tutilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning o‘tkazilishini asoslab byeradigan sabablar mavjud bo‘lgan quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

tekshirishlarni o‘tkazish zarurati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki hukumatining qarorlaridan kelib chiqqanda;

nazorat qiluvchi organga yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida qo‘shimcha ma'lumotlar kelib tushganda;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish zarur bo'lganda;

sanitariya-epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli vujudga kelganda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini rejadan tashqari yoki muqobil tekshirish o'tkazish uchun nazorat qiluvchi organning markaziy apparati Kengashga, nazorat qiluvchi organlarning hududiy bo'linmalari esa tegishli viloyat va tuman komissiyalariga rejadan tashqari tekshirishni o'tkazish uchun uni o'tkazishning zarurligini asoslagan holda belgilangan shaklda buyurtma hamda nazorat organi rahbari tomonidan imzolangan tekshirishni o'tkazish rejasini yuboradi.

Tayanch iboralar:

soliq nazorati, soliq tekshiruvi, nazorat turlari, rejali, boshqarish, soliq tekshiruvchi organlar, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Soliq tekshiruvi turlari.
2. Soliq tekshiruvini tashkil etish.
3. Tekshirishlarning reja-jadvallarini ishlab chiqish tartibi.
4. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilishini nazorat qilish tartibi.

8-BOB. SOLIQ TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISH TARTIBI

- 8.1. Kamyeral soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi
- 8.2. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi
- 8.3. Soliq auditini o‘tkazish tartibi

8.1. Kamyeral soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi

Kamyeral soliq tekshiruvini o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining “Kamyeral soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom asosida o‘tkazilib, mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq kamyeral soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Kamyeral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) (bundan buyon matnda soliq to‘lovchi deb yuritiladi) tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

Mazkur Nizom talablari qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini qoplash va chet davlat fuqarolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida olingan tovarlarni respublika hududidan tashqariga olib chiqilayotganda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish bilan bog‘liq kamyeral soliq tekshiruvlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

kamyeral soliq tekshiruvi — soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud boshqa ma‘lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish yo‘li bilan soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv;

talabnoma — kamyeral soliq tekshiruvida aniqlangan soliq hisobotidagi tafovutlar va (yoki) xatolarni soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish orqali bartaraf etilishi yoki tushuntirib byerilishi shart ekanligini bayon etuvchi soliq organi tomonidan soliq to‘lovchiga yuboriladigan hujjat;

aniqlashtirilgan talabnoma — talabnomaga javoban soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan tafovutlar asosnomasining tahlili asosida soliq hisobotlarida aks ettirilgan ko‘rsatkichlar va (yoki) ma‘lumotlar orasida

yuzaga kelgan soliq hisobotidagi tafovutlarni va (yoki) soliq hisobotidagi xatolarni aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish orqali to'liq bartaraf etilishi to'g'risidagi soliq organining murojaati;

soliq hisobotidagi xato — soliq to'lovchi tomonidan soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda soliq hisobotida noto'g'ri ma'lumotlarni yoki ko'rsatkichlarni aks ettirilishi;

soliq hisobotidagi tafovut — soliq to'g'risida qonun hujjatlariga muvofiq aks ettirilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar va (yoki) ma'lumotlar, shuningdek soliq organlarida mavjud ma'lumotlar bilan soliq to'lovchining soliq organiga taqdim etgan soliq hisobotlarida aks ettirilgan ko'rsatkichlar va (yoki) ma'lumotlar orasida yuzaga kelgan farq yoki nomuvofiqligi;

tafovutlarning asosnomasi — talabnomaga javoban soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladigan tushuntirishlar byerishni nazarda tutuvchi va soliq to'lovchining vajlarini isbotlovchi hujjatlar to'plami;

tekshiruvni o'tkazuvchi (amalga oshiruvchi) mansabdor shaxs — soliq organi buyrug'iga asosan kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazish vazifasi yuklatilgan soliq organi xodimi.

Kamyeral soliq tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (bundan buyon matnda Soliq kodeksi deb yuritiladi) 88-moddasida belgilangan da'vo muddati o'tmagan soliq davrlariga nisbatan o'tkazilishi mumkin.

Kamyeral soliq tekshiruvi soliq organi joylashgan joyda amalga oshiriladi, bundan soliq to'lovchining hudud va binolarini ko'zdan kechirish bilan bog'liq holatlar mustasno.

Kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazish davomida soliq organlari Soliq kodeksining 145-moddasiga muvofiq soliq to'lovchining hudud va binolarini ko'zdan kechirishi mumkin.

Hudud va binolarni ko'zdan kechirish tadbirlari soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar va (yoki) ma'lumotlar hamda soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud boshqa ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun o'tkaziladi.

Bunda, hudud va binolarni koʻzdan kechirish tadbirlari soliq toʻlovchilarda belgilangan ish rejimiga asosan bir ish kunidan oshmagan vaqt davomida oʻtkaziladi hamda ushbu tadbir davomida hujjatlar va buyumlarni olib qoʻyishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Hudud va binolarni koʻzdan kechirish tadbirlari Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida oʻtkaziladigan tekshiruvlarni kelishish va oʻtkazish tartibi haqidagi vaqtinchalik nizomda (roʻyxat raqami 3067, 2018-yil 7-sentyabr) belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha vakil bilan kelishilgan holda «Tekshiruvlarni roʻyxatga olish kitobi» toʻldirilganidan soʻng amalga oshiriladi.

Hudud va binolarni koʻzdan kechirish toʻgʻrisidagi dalolatnomaga «Tekshiruvlarni roʻyxatga olish kitobi»ning toʻldirilgan shakli (qogʻoz shakli toʻldirilganda — elektron shakli toʻldirilmaganligi sababi) yoki kitob taqdim etilmaganda — uning taqdim etilmaganligi toʻgʻrisida tekshiruvchi tomonidan tegishli yozuv kiritiladi.

Hudud va binolarni koʻzdan kechirish (amalga oshiruvchi) mansabdor shaxs «Tekshiruvlarni roʻyxatga olish kitobi»ni toʻldirishdan bosh tortgan taqdirda, soliq toʻlovchi uzining hududi va binolarini koʻzdan kechirish tadbirlarining oʻtkazilishiga yoʻl qoʻymaslikka haqli.

Kamyeral soliq tekshiruvi quyidagi hollarda oʻtkaziladi:

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, «Tahlila-tahlil» dasturiy mahsuloti natijasiga koʻra soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori yoki oʻrtacha boʻlganda;

soliq organiga jismoniy va yuridik shaxslarning soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari buzilishi haqidagi murojaatlari kelib tushganda;

soliq hisobotidagi xato va (yoki) soliq hisobotidagi tafovutlar aniqlanganda.

Soliq toʻlovchi tomonidan ilgari taqdim etilgan soliq hisobotiga nisbatan toʻlanishi lozim boʻlgan soliq summasi kamaytirilgan yoki koʻrilgan zarar summasi koʻpaytirilganligi sababli, aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etish holatlari boʻyicha ushbu soliq toʻlovchida kamyeral soliq tekshiruvi oʻtkaziladi. Bunda, kamyeral soliq tekshiruvini oʻtkazish,

aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e'tiboran uch kun ichida boshlanadi.

Agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o'tkazilayotgan bo'lsa, bunday davr uchun kamyeral soliq tekshiruvi o'tkazilmaydi. Mazkur qoida soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda qo'llanilmaydi.

Kamyeral soliq tekshiruvi tugagunga qadar soliq to'lovchi tomonidan avval hisoblangan soliq summasi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'zgartirilib, aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan taqdirda, kamyeral soliq tekshiruvi taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

Kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazish Kamyeral soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbar o'rinbosarining) Nizomning 1-ilovasiga muvofiq rasmiylashtirilgan buyrug'i asosida o'tkaziladi.

Kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi bitta buyruq asosida bitta soliq to'lovchi tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin.

Kamyeral soliq tekshiruvini tayinlash to'g'risidagi buyruqda soliq to'lovchining nomi va identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, tekshiruvni o'tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr, tekshirilayotgan soliqlarning va yig'implarning turlari ko'rsatiladi.

Kamyeral soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to'lovchidan (uchinchi shaxsdan) Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda rasmiylashtirilgan so'rovnoma orqali:

birlamchi hujjatlarni, buxgalyeriya hisobi registrlarini hamda soliqlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan boshqa hisob hujjatlarini;

taqdim etilgan soliq hisoboti va hisob hujjatlariga doir tushuntirishlarni;

soliqlarni va (yoki) yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash bilan bog'liq boshqa axborotlarni talab qilib olishga haqli.

So'rovnoma soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda yuboriladi va jo'natilgan sanadan e'tiboran uch kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to'lovchida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo'lmasa, so'rovnoma pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va u jo'natilganidan so'ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

So'rovnoma tekshirilayotgan shaxsga (uning vakiliga) shaxsan imzo qo'ydirgan holda topshirilishi mumkin.

So'rovnomada nazarda tutilgan hujjatlar va tushuntirishlar soliq organiga so'rovnoma olingan kundan e'tiboran besh kun ichida taqdim etilishi kerak. Hujjatlarni taqdim etish muddati soliq to'lovchining hujjatlar taqdim etish uchun sabablari va zarur bo'lgan muddatlari ko'rsatilgan arizasiga ko'ra soliq organi tomonidan uzaytirilishi mumkin, bunda ariza soliq to'lovchi tomonidan soliq organiga so'rovnoma olingan kundan e'tiboran keyingi kun davomida taqdim etiladi.

Hujjatlarni (axborotni) uchinchi shaxslardan talab qilib olish zarur bo'lgan hollarda soliq organi tekshirilayotgan soliq to'lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo'lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishga haqli.

Kamyeral soliq tekshiruv jarayonida tekshirilayotgan soliq to'lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, soliq organi Soliq kodeksining 111-moddasiga asosan soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli, bunda mazkur talab tekshirilayotgan soliq to'lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo'lgan uchinchi shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Agar tekshirilayotgan soliq to'lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlar (axborot) boshqa hududda hisobda turgan soliq to'lovchidan (uchinchi shaxsdan) olish talab etilsa, kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazuvchi soliq organi tegishli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to'g'risida soliq to'lovchi (uchinchi shaxs) hisobda turgan joyidagi soliq organiga topshiriqnomaga yuboradi.

Topshiriqnomada kamyeral soliq tekshiruv jarayonida talab qilib olinadigan hujjatlar (axborot) ko'rsatiladi hamda kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruq nusxasi ilova qilinadi.

Topshiriqnoma olingan kundan e'tiboran uch kun ichida hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilinayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organi tomonidan uchinchi shaxsga hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to'g'risida talabnoma yuboriladi.

Hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to'g'risida talabnomaga hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to'g'risidagi topshiriqnomaning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

Soliq kodeksining 147-moddasiga muvofiq hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to'g'risida talabnomani olgan shaxs ushbu talabnoma olingan kundan e'tiboran besh kun ichida uni bajaradi yoki talab qilib olinayotgan hujjatlarga (axborotga) ega emasligi haqida xabar qiladi.

Agar talab etiladigan hujjatlarni (axborotni) mazkur muddatda taqdim etish imkoni bo'lmasa, hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to'g'risida talabnomani yuborgan soliq organi hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilib olingan bo'lsa o'sha shaxsning iltimosnomasiga ko'ra ushbu hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddatini uzaytirishga haqli. Bunday hollarda hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddati uzaytirilganligi haqida topshiriqnoma yuborgan soliq organiga xabar yetkaziladi.

Hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxa shaklida taqdim etiladi.

Talab etilgan hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilishi yoki telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Tekshiruvni o'tkazuvchi (amalga oshiruvchi) mansabdor shaxsining talabiga ko'ra, soliq to'lovchi elektron shaklda tuzilgan hujjatlarning qog'ozdagi ko'chirma nusxalarini taqdim etishi shart, bundan elektron hisobvaraqa-fakturalarning axborot tizimida ro'yxatga olingan elektron hisobvaraqa-fakturalar mustasno.

Soliq to'lovchidan avvalgi kamyeral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilganda soliq organlariga ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek, soliq monitoringini o'tkazish jarayonida tasdiqlangan

ko'chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni qayta taqdim etish talab etilmaydi.

Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan soliq to'lovchiga qaytarilgan bo'lsa, shuningdek, soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo'qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan soliq to'lovchisidan qayta talab qilib olinishi mumkin.

Soliq organlaridan tegishli hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to'g'risida talabnomani olgan soliq to'lovchi Nizomning 16-bandida ko'rsatilgan talabga rioya etilmasdan yuborilgan talabnoma bo'yicha hujjatlarni (axborotni) taqdim qilishni rad etishga haqli.

Hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to'g'risidagi topshiriqnomani olgan soliq organi tomonidan to'plangan hujjatlar (axborotlar) ikki kun ichida ushbu hujjatlarni (axborotni) topshiriq byergan soliq organiga yetkaziladi.

Tekshiruvni o'tkazuvchi (amalga oshiruvchi) mansabdor shaxs tekshiruvni amalga oshirish chog'ida soliq to'lovchilarni tekshiruv yuzasidan tushuntirishlar byerish uchun, shu jumladan, ular tomonidan soliqlarning to'lanishi (ushlab qolinishi va o'tkazilishi) munosabati bilan soliq organiga yozma xabarnoma asosida chaqirishga haqli.

Soliq organi kamyeral soliq tekshiruvini amalga oshirishga doir tadbirlarda ishtirok etish uchun:

ahamiyatga ega biror-bir holatlar o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday voyaga etgan jismoniy shaxsni ko'rsatmalar byerish uchun guvoh sifatida chaqirishi;

shartnoma asosida ekspert, mutaxassis va tarjimonni jalb etishi mumkin.

Kamyeral soliq tekshiruvini o'tkazish jarayonida soliq organlari Soliq kodeksining 14-moddasiga asosan soliq to'lovchi tomonidan tuzilgan bitimlar, ularning yuridik rasmiylashtirilishidan qat'i nazar haqiqiy iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib tekshiruvni amalga oshiradi.

Bunda, bitim yoki iqtisodiy munosabatlarning yuridik rasmiylashtirilishi uning haqiqiy mazmuniga muvofiq bo'lmasa, soliq organlari soliq solish maqsadida bitimning yuridik tavsiflanishini, soliq

to'lovchining maqomi va (yoki) uning iqtisodiy faoliyati xususiyatini o'zgartirishga, huquqni suiiste'mol qilish alomatlariga ega bo'lgan ayrim operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini e'tiborga olmaslikka va soliqlar summalarini bunday suiiste'mollikning ta'sirini istisno etadigan tarzda o'zgartirishga haqli.

Huquqni suiiste'mol qilish, bitim qalbakiligi (ko'zbo'yamachilik uchun tuzilganligining) holatlarini aniqlash, shuningdek, ularning oqibatlarini qo'llash soliq organlari tomonidan, soliq to'lovchi norozi bo'lgan taqdirda esa — soliq organlarining da'vosi bo'yicha sud tomonidan amalga oshiriladi.

Tekshirishda o'rganilgan hujjat va ma'lumotlar yuzasidan tekshiruvni o'tkazuvchi (amalga oshiruvchi) mansabdor shaxs Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda xulosa tuzadi.

Xulosada, tekshiruvgacha soliq to'lovchining soliq hisobotlari yoki soliq organlarida mavjud boshqa ma'lumotlar asosida aniqlangan soliq hisobotidagi tafovut va soliq hisobotidagi xatolar, tekshiruv davomida soliq to'lovchining hudud va binolarini ko'zdan kechirish to'g'risida bayonnomalar, soliq to'lovchi va uchinchi shaxslardan talab qilib olingan hujjatlarni (axborotni) o'rganish va tahlil natijalari, aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar, xulosa tuzilgan sana va joy ko'rsatilgan holda batafsil bayon etiladi.

Kamyeral soliq tekshiruvi yuzasidan tuzilgan xulosa soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan uch kun ichida ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlanadi. Xulosaga ko'ra soliq hisobotidagi tafovutlar va (yoki) soliq hisobotidagi xatolar aniqlangan hollarda, ushbu xulosa tasdiqlanganidan so'ng ikki kunlik muddatda soliq organi tomonidan soliq to'lovchiga Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda talabnoma yuboriladi.

Talabnoma yuborilgan sana kamyeral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Agar o'rganish va tahlil qilish yakunlariga ko'ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo'lsa ham kamyeral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi.

Kamyeral soliq tekshiruvi matyeriallari Soliq kodeksining 135-moddasiga asosan soliq to'lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida

tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro'yxatdan o'tkazilishi kyerak.

Agar kamyeral soliq tekshiruvi davomida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari aniqlangan taqdirda, aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kamyeral soliq tekshiruvi davomida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari aniqlanganda, Nizomning 4- ilovasiga muvofiq shaklda soliqqa oid huquqbuzarlik dalolatnomasi tuziladi. Mazkur dalolatnoma ikki nusxada tuziladi va bir nusxasi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga topshiriladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik dalolatnomasi kamyeral soliq tekshiruvi tugagunga qadar tuzilishi shart. Bunda dalolatnomani ko'rib chiqishda talabnomaga nisbatan soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan tafovutlarning asosnomasi ham birga ko'rib chiqiladi.

Kamyeral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha talabnomani yuborishda talabnoma kamyeral soliq tekshiruvida soliq hisobotidagi tafovutlar va (yoki) soliq hisobotidagi xatolar aniqlangan taqdirda Nizomning 5- ilovasiga muvofiq shaklda yuboriladi. Talabnomada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

aniqlangan soliq hisobotidagi tafovut va (yoki) soliq hisobotidagi xatolar;

qo'shimcha hisoblangan soliq va yig'imlar hamda ularga penya, shuningdek, ularning asoslari;

talabnomaga javob byerish muddati hamda javob byermaslik oqibatida Soliq kodeksining 111- moddasiga asosan qo'llaniladigan chora.

Talabnoma elektron hujjat tarzda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi va yuborilgan sanadan e'tiboran uch kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to'lovchida yoki uning vakilida shaxsiy kabineti mavjud bo'lmasa, talabnoma soliq to'lovchi yoki uning vakiliga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va yuborilgan sanadan besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Talabnoma soliq to'lovchiga yoki uning vakiliga shaxsan talabnoma olingan sana ko'rsatilgan holda imzo qo'ydirib topshirilishi mumkin.

Soliq to'lovchi tekshiruvda aniqlangan soliq hisobotidagi tafovut va (yoki) soliq hisobotidagi xatolar bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki tafovutlarni asoslantiruvchi hujjatlarni soliq organiga talabnoma olingan kundan boshlab o'n kun ichida taqdim etishi lozim.

Aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish soliq organiga muayyan soliq davri uchun avval taqdim etilgan soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish va uni soliq organiga taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi talabnoma yuzasidan tushuntirish va tafovutlarning asosnomasi bilan birga soliq hisobotiga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchi talabnomada ko'rsatilgan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli.

Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq to'lovchining nomidan mustaqil ravishda soliq to'lovchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan asosnomani taqdim etishi mumkin.

Talabnomaga javoban soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan tushuntirishlar, asosnomalar va boshqa hujjatlar soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan o'n besh kun ichida ko'rib chiqiladi. Hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonida soliq to'lovchi yoki soliq maslahatchisi bevosita ishtirok etishga haqli.

Aniqlangan tafovutlarning asosnomalarini ko'rib chiqish natijasida soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan tafovutning asosnomasiga to'liq yoki qisman rozilik byerish yoxud tafovutning asosnomasi etarli emas deb hisoblanishini nazarda tutuvchi xulosa qabul qiladi.

Soliq organi tomonidan taqdim etilgan tafovut asosnomalariga to'liq yoki qisman rozilik byerilgan taqdirda:

to'liq summa bo'yicha soliq to'lovchiga ilgari yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to'g'risidagi bildirish xati;

qisman summa bo'yicha soliq to'lovchiga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalari to'g'risida aniqlashtirilgan talabnoma yuboriladi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan talabnomaga javoban aniqlashtirilgan soliq hisobotini soliq organiga ushbu talabnomani olingan kundan boshlab besh kun ichida taqdim etishi shart.

Tafovutning asosnomasi yetarli yoki etarli emas deb hisoblash haqida xulosaning to'g'riligi va adolatligi bo'yicha javobgarlik aniqlangan tafovutlarning asosnomalarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha xulosa qabul qilgan soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) zimmasiga yuklatiladi.

Agar soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa(shu jumladan, aniqlashtirilgan talabnomadan keyin) yoki aniqlangan tafovutlar bo'yicha asosnomalarni taqdim etmasa yoxud taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa soliq organi soliq to'lovchiga soliq auditini tayinlashga haqli. Bunda soliq auditini Soliq kodeksining 140 — 143-moddalarida belgilangan tartibda va soliq to'lovchilarning yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to'lovchisiga nisbatan o'tkaziladi.

8.2. Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish tartibi

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining "Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom asosida o'tkazilib, mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga (bundan buyon matnda Soliq kodeksi deb yuritiladi) muvofiq sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish tartibini belgilaydi.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

sayyor soliq tekshiruvi — soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish;

xronometraj kuzatuvini — xronometraj o'tkaziladigan davrda tushumlarning haqiqiy hajmlarini, pul tushumi summalarini, ishlab chiqarish va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish hajmlarini

aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan, tovarlarni (xizmatlarni) haqiqiy realizatsiya hajmlarini aniqlashga doir tadbir.

Soliq organlari sayyor soliq tekshiruvi doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

soliq solish obyektlarini aniqlash;

xronometraj kuzatuvlarini o'tkazish;

nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminallari qo'llanilishini tekshirish;

soliq to'lovchi xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida soliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish;

savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish;

soliq to'lovchidan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni soliq to'lovchi (soliq agentlari) tomonidan xatlovdan o'tkazishni talab qilish.

Sayyor soliq tekshiruvida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari harakatining, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotning tahlili o'tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishda soliq to'lovchilardan sayyor soliq tekshiruvi predmetiga aloqasi bo'lmagan hujjatlarni (axborotni) talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Sayyor soliq tekshiruvi o'n ish kunigacha bo'lgan muddatda o'tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha soliq organlari tomonidan soliqlar va yig'imlarni hisoblash amalga oshirilmaydi.

Bunda, sayyor soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha olingan hujjatlar va axborotlar kameral soliq tekshiruvini o'tkazishda foydalanilishi mumkin.

Sayyor soliq tekshiruvi quyidagi asoslar bo'lganda o'tkaziladi:

«Tahlila-tahlil» dasturiy mahsuloti natijasiga ko'ra aniqlangan, yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub bo'lmagan soliq

to'lovchilar (solliq agentlari) faoliyatidagi solliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan solliq to'lovchilar faoliyatida solliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risida murojaatlar kelib tushganda, bundan anonim murojaatlar mustasno;

ommaviy axborot vositalarida solliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganda;

kamyeral solliq tekshiruvi jarayonida aniqlangan tafovut va xatolarni solliq organi joylashgan joydan tashqarida o'rganish zarurati yuzaga kelganda.

Sayyor solliq tekshiruvi solliq organi rahbarining (o'rinbosarining) buyrug'i asosida o'tkaziladi. Buyruqda solliq to'lovchining nomi, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi, tekshiruvni o'tkazish muddati va maqsadi ko'rsatiladi.

Sayyor solliq tekshiruvi o'tkazish uchun solliq organining ikki yoki undan ortiq mansabdor shaxslari jalb etilgan taqdirda, buyruqda bir nafar xodim tekshirishda vazifalarni taqsimlash bo'yicha guruh rahbari etib belgilanadi.

O'tkaziladigan sayyor solliq tekshiruvlari Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishilgan holda «Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi» to'ldirilganidan so'ng o'tkaziladi.

Sayyor solliq tekshiruvi dalolatnomasiga «Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi»ning to'ldirilgan shakli (qog'oz shakli to'ldirilganda — elektron shakli to'ldirilmaganligi sababi) yoki kitob taqdim etilmaganda — uning taqdim etilmaganligi to'g'risida tekshiruvchi tomonidan tegishli yozuv kiritiladi.

Sayyor solliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs «Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi»ni to'ldirishdan bosh tortgan taqdirda, solliq to'lovchi o'zining sayyor solliq tekshiruidan o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslikka haqli.

O'tkazilgan tekshiruvlarning natijalari soliq organlari tomonidan tekshiruv tamomlangandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda ko'rsatilgan sana ushbu tekshiruvni o'tkazish muddatining boshlanishi deb hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi Soliq kodeksining 145 va 148-moddalarida belgilangan tartibda soliq to'lovchining binolari va hududlarni ko'zdan kechirishga hamda hujjatlar va buyumlarni olib qo'yishga haqli. Bunda, ushbu tadbirlar xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Soliq organlarining xodimlari xolislar sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishda soliq organi mansabdor shaxsining hamda soliq to'lovchining huquq va majburiyatlaritog'risida so'z yuritilganda, soliq organlarining mansabdor shaxslari quyidagi huquqlarga ega:

soliq to'lovchining sayyor soliq tekshiruviga taalluqli ma'lumotlari va hujjatlarini o'rganish hamda ushbu hujjatlardan soliq organi hisobidan nusxa olish;

soliq to'lovchi tomonidan buxgalyeriya, tovarlar (xizmatlar) harakati hisobini yuritishda foydalanilayotgan dasturiy ta'minotlardagi ma'lumotlar bilan tanishish va soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan hollarda ulardan soliq organi hisobidan nusxa olish;

soliq to'lovchining hududini, ishlab chiqarish, omborxonona, savdo binolarini va boshqa binolarini, shu jumladan, soliq to'lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish ob'ektlarini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechirish hamda foto va videotasvirga tushirish;

mol-mulklarni xatlovdan o'tkazish;

tekshiruvga mutaxassislar, ekspertyalar, tarjimon, xolislarni jalb etish hamda ulardan tegishli xulosalar, tarjimalar va ko'rsatmalar olish;

ishlab chiqarilayotgan hamda realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (xizmatlarning) haqiqiy hajmlarini aniqlash;

hisob-kitoblarni amalga oshirishda savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini, shuningdek, nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminallarining qo'llanilishini tekshirish;

soliq to'lovchi tomonidan soliq organlarining mansabdor shaxslarini sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilayotgan hudud va (yoki) binoga (bundan turar joylar mustasno) kirishiga to'sqinlik qilinganda, soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish choralarini ko'rish;

soliq to'lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo'lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish.

Soliq organlarining mansabdor shaxslari quyidagi majburiyatlarga ega:

soliq tekshiruvi boshlanguniga qadar (nazorat kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminallari qo'llanilishini tekshirishda — tekshiruv jarayonida) soliq to'lovchini yoki uning vakilini sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruq bilan tanishtirish va buyruq nusxasini uni olganligini tasdiqlovchi imzo qo'ydirgan holda taqdim etish;

soliq to'lovchini yoki uning vakilini tekshiruv maqsadi bilan tanishtirish, unga o'z xizmat guvohnomasi va tekshiruv o'tkazish huquqini byeruvchi maxsus guvohnomasini ko'rsatish;

tadbirkorlik sub'ektida «Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi» mavjud bo'lgan hollarda, uning elektron yoki qog'oz shaklini to'ldirish;

sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish vaqtida soliq to'lovchilarga ularning huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, tekshiruv ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi yoki tadbirkorlik sub'ektlarining boshqa tegishli birlashmalarini jalb qilishga haqli ekanligini tushuntirish;

o'tkazilgan tekshiruv natijalari bilan soliq to'lovchini tanishtirish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlarning natijalari tekshiruv tamomlangandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga kiritilishini ta'minlash;

o'z vakolatlari va tekshiruv buyrug'ida belgilangan tekshiruv maqsadlari doirasidan chiqmaslik.

Soliq organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruq nusxasini olish, xodimlarning xizmat guvohnomasi va tekshiruv o'tkazish huquqini byeruvchi maxsus guvohnomasi bilan tanishish;

sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish jarayonida vakil orqali yoki shaxsan ishtirok etish;

sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxsdan «Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi»ning elektron yoki qog'oz shaklini to'ldirishni talab qilish, to'ldirishdan bosh tortgan taqdirda esa – o'zining hududi va binolariga kirishga yo'l qo'ymaslik;

sayyor soliq tekshiruvini jarayonini foto va videotasvirga olish;

sayyor soliq tekshiruvini materyallari bilan tanishish va nusxa olish;

sayyor soliq tekshiruvini amalga oshirayotgan soliq organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan shikoyat qilish;

sayyor soliq tekshiruvini materyallarini ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

o'z manfaatlarini shaxsan, soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa vakillari orqali himoya qilish.

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksi va soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga ega:

sayyor soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga tekshiruv bilan bog'liq hujjatlar, shuningdek, elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlash;

soliq organlarining tekshirish bilan bog'liq qonuniy talablarini bajarish, ular mansabdor shaxslarning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik.

Soliq to'lovchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Soliq solish obyektlarini aniqlashda soliq solish ob'ektlarini aniqlash soliq organlarida mavjud bo'lgan soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi axborotni aniqlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Soliq solish obyektlarini aniqlash bo'yicha quyidagilar tekshiriladi:

davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar, faoliyat turi va joyining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi;

ko'chmas mulkka va yyer uchastkalariga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan, kadastr hujjatlari, ijara shartnomalari mavjudligi.

Soliq solish obyektlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tekshiruv natijasida olingan ma'lumotlar sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

Xronometraj kuzatuvlarini o'tkazish

Xronometraj kuzatuvlari soliq to'lovchilarning ayrim toifalari yoki faoliyat turlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq haqiqatdagi daromadlari hamda ularning shakllanish manbalari va (yoki) harajatlari, shuningdek, soliq rejimini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Xronometraj kuzatuv soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatmasdan kunlik ish rejimini to'liq qamrab olgan holda, joylashgan joyidan qat'i nazar barcha obyektlarida bir vaqtning o'zida o'tkaziladi.

Xronometraj kuzatuv solik to'lovchi (vakili) ishtirokida o'tkaziladi.

Xronometraj kuzatuv soliq to'lovchilarning tekshiruvgacha tasdiqlangan ish rejimidan kelib chiqib, yetti ish kunidan kam bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

Soliq organi soliq to'lovchining boshqa hududlardagi obyektlarida xronometraj kuzatuv o'tkazish yuzasidan obyekt joylashgan hududiy soliq organiga xronometraj kuzatuv boshlanishidan kamida bir kun oldin o'tkaziladigan xronometraj kuzatuvining aniq sanasini ko'rsatgan holda yozma xabarnoma yuboradi.

Bunda, xronometraj kuzatuv natijasi bo'yicha rasmiylashtirilgan ma'lumotlar kuzatuv yakunlanganidan so'ng soliq to'lovchi joylashgan hududiy soliq organiga bir ish kuni ichida yuborilishi shart.

Xronometraj kuzatuv jarayonida soliq to'lovchining amaldagi daromadlari va harajatlarini hamda soliq rejimini aniqlash maqsadida mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Xronometraj kuzatuv quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) chakana savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohasida:

xronometraj kuzatuv boshlanishida soliq to'lovchining pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishdan tushgan pullarni saqlash uchun mo'ljallangan kassalaridagi (bundan buyon matnda soliq to'lovchining kassalari deb yuritiladi) mavjud naqd pul qoldig'ini nazorat-kassa texnikasining kunlik hisoboti bilan solishtirish va ijobiy farq summasini soliq to'lovchi (uning vakili) tomonidan nazorat-kassa texnikasining xotirasiga kiritilishini talab qilish;

savdo va (yoki) xizmat ko'rsatishdan tushgan pul mablag'larining to'liq nazorat-kassa texnikasi xotirasiga kiritilishi yoki to'lov tyerminallaridan to'liq foydalanilishi, haridorlarga (mijozlarga) harid cheki byerilishini nazorat qilib borish;

realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlarning haqiqiy hajmini aniqlash hamda kunlik pul mablag'lari tushumini kuzatish va qayd etish;

xronometraj kuzatuv yakunida nazorat-kassa texnikasidan «Z» hisobot chiqarish va ma'lumotnomaga ilova qilish;

xronometraj kuzatuv yakunida soliq to'lovchining kassalaridagi mavjud kunlik pul tushumi bilan qayd etish varaqasidagi tushumlar miqdori o'rtasidagi ijobiy farq summasini nazorat-kassa texnikasining xotirasiga kiritilishini talab qilish;

mahsulotlarning hisob hujjatlaridagi (hisobvaraqa-fakturalar, yuk xatlari, nazorat-kassa texnikasi cheki yoki unga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar) narxlari hamda sotish narxlarini taqqoslash;

soliq to'lovchining daromadlari va harajatlarini tahlil qilish;

b) ishlab chiqarish sohasida:

ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan tovar xom ashyolar (yarim tayyor mahsulotlar) hajmini, ishlab chiqarish uskunalarning sonini va ularning quvvatlarini qayd etish;

ishlab chiqarish quvvatlari uchun sarflanayotgan tabiiy resurslar (gaz, elektr enyergiyasi, suv, yoqilg'i-moylash matyeriallari) hajmining ishlab chiqarish hajmiga muvofiqligini aniqlash;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va miqdorini aniqlash;

ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish usullarini aniqlash va jarayonini qayd etish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi, sotish narxi, sotilgan hajmi hamda omborxonalaridagi tayyor mahsulotlar miqdorini aniqlash;

xronometraj ko'zatuvi natijasida aniqlangan soliq to'lovchining haqiqatdagi daromadlari, ularning shakllanish manbalari va harajatlarini qayd etish.

Xronometraj kuzatuvi natijasi bo'yicha Nizomning 1-ilovasi-ga muvofiq ikki nusxada bayonnoma rasmiylashtiriladi. Bayonnomaning bir nusxasi soliq to'lovchiga bayonnoma nusxasini olganligini tasdiqlovchi imzo qo'ydirgan holda byeriladi. Bunda bayonnomaga imzolashdan va (yoki) uning bir nusxasini olishdan soliq to'lovchi bosh tortgan hollarda, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan bayonnomaga bu haqda tegishli yozuv kiritiladi.

Nazorat kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminallari qo'llanilishini tekshirish

Nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminallari qo'llanilishini tekshirish nazorat haridini amalga oshirish yo'li bilan va (yoki) savdo, umumiy ovqatlanish yoki xizmat ko'rsatish shoxobchasida bevosita tekshiruv o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Nazorat haridi nazorat-kassa texnikalari va (yoki) hisob-kitob tyerminallaridan haridorlarga kassa cheki byerilishi, bank kartalari orqali to'lovlar qabul qilinishi hamda naqd pul mablag'lari va bank kartalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar shakliga qarab narxlar sun'iy

ravishda oshirilishi yoki pasaytirilishi holatlari mavjudligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Nazorat haridini amalga oshirishda quyidagilar jalb qilinishi mumkin:

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risida murojaat etgan jismoniy shaxs (yuridik shaxsning ishonchli vakili);

«Xolis haridor» xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxs vakillari;

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari fedyeratsiyasi vakillari.

Nazorat haridini amalga oshirgan shaxslar tomonidan nazorat haridida kuzatilgan holatlar bo'yicha ma'lumotlar (hujjatlar, predmetlar) harid yakunlanishi bilan sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxsga taqdim etiladi.

O'tkazilgan nazorat haridi natijasi bo'yicha Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda bayonnoma rasmiylashtiriladi va sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs, nazorat haridini amalga oshirgan shaxs va soliq to'lovchi tomonidan imzolaniadi.

Nazorat haridini o'tkazish bayonnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga bayonnoma nusxasini olganligini tasdiqlovchi imzo qo'ydirgan holda byeriladi. Bunda nazorat haridini o'tkazish bayonnomasini imzolashdan va (yoki) uning bir nusxasini olishdan bosh tortgan hollarda, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan bayonnomaga bu haqda tegishli yozuv kiritiladi.

Nazorat haridini o'tkazishda foydalanish uchun naqd pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan harajatlar maxsus jamg'armasi mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ajratiladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs nazorat haridini o'tkazish uchun naqd pul mablag'larini tegishli soliq organi kassasidan oladi.

Naqd pul mablag'larini sayyor tekshiruvini o'tkazish uchun mansabdor shaxsga byerishda ularning qiymati, banknota syeriyasi va raqamlari alohida varaqda qayd etilib, chiqim kassa ordyeriga ilova

qilinadi. Bunda pul mablag‘larining qiymati, banknota syeriyasi va raqamlari yozilgan varaqcha nusxasi sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxsga byeriladi.

Sayyor soliq tekshiruvi yakunlangandan so‘ng, nazorat haridini o‘tkazishda foydalanish uchun olingan naqd pul mablag‘lari bir ish kuni ichida tegishli soliq organi kassasiga to‘liq topshiriladi. Pul mablag‘larining qiymati, banknota syeriyasi va raqamlari yozilgan varaqcha nusxasi kirim kassa ordyeriga ilova qilinadi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida soliq to‘lovchiga tegishli shoxobcha kassalarida mavjud naqd pul qoldig‘i sanoqdan o‘tkazilib, nazorat-kassa texnikasi xotirasiga kiritilgan naqd pul summasi bilan solishtiriladi va natijasi bo‘yicha Nizomning 3-ilovasiga muvofiq naqd pul qoldig‘ini sanoqdan o‘tkazish dalolatnomasi tuziladi.

Nazorat haridi o‘tkazilib, o‘zaro hisob-kitoblar yakunlangach, nazorat haridini o‘tkazishda foydalanilgan pul mablag‘lari tekshirilgan soliq to‘lovchi (uning vakili) tomonidan sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxsga, harid qilingan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning natijalari (nazorat haridi predmetlari) esa, sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan soliq to‘lovchiga (uning vakili) qaytarib byerilishi shart, bundan qaytarish imkoni bo‘lmagan hamda qonun hujjatlariga muvofiq olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan nazorat haridi predmetlari mustasno.

Soliq organlari nazorat-kassa texnikalari va hisob-kitob tyerminallari qo‘llanilishini savdo, umumiy ovqatlanish yoki xizmat ko‘rsatish shoxobchasida bevosita tekshirishi mumkin. Bunda tekshirish quyidagilarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi:

qonun hujjatlariga muvofiq nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminali bilan jihozlanganligi, shu jumladan, ularning soliq to‘lovchi nomiga va obyekt manzili bo‘yicha rasmiylashtirilganligi;

nazorat-kassa texnikalari tegishliligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanishi ruxsat etilgan fiskal xotiraga ega bo‘lgan nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilishi ruxsat etilgan onlayn

nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarning davlat reestriga kiritilganligi;

nazorat-kassa texnikasining texnik talablarga muvofiqligi;

nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob tyerminallarini qo'llash qoidalariga rioya etilishi.

Nazorat-kassa texnikalari va hisob-kitob tyerminallari qo'llanilishini savdo, umumiy ovqatlanish yoki xizmat ko'rsatish shoxobchasida bevosita o'tkazilgan tekshirish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

Soliq to'lovchi tomonidan boshqa soliq to'lovchiga tegishli nazorat-kassa texnikalari va (yoki) hisob-kitob tyerminallaridan foydalanish holati aniqlangan taqdirda, sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga ulardan olingan harid cheki nusxasi, hisob-kitob tyerminallarining rusumi va zavod raqami to'g'risidagi ma'lumot ham kiritiladi.

Texnik talablarga javob byermaydigan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanishi ruxsat etilgan fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga yoki O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanilishi ruxsat etilgan onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarning davlat reestriga kiritilmagan yoxud boshqa soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan, shuningdek, fiskal xotiraga xizmat ko'rsatuvchi dasturiy mahsuloti (vyersiya) buzilgan nazorat-kassa texnikasi mavjudligi aniqlangan taqdirda, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan bayonnoma tuziladi hamda ushbu nazorat-kassa texnikasi vaqtincha olib qo'yiladi.

Soliq to'lovchi xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirishda soliq to'lovchi xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish quyidagilardan iborat:

barcha obyekt va hududlarda haqiqatda faoliyat yuritayotgan xodimlarni aniqlash;

Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda aniqlangan xodimlarning ro'yxatini (bundan buyon matnda ro'yxat deb yuritiladi) tuzish.

Soliq to'lovchi xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoring soliq to'lovchining (vakilining) ishtirokida amalga oshiriladi.

Ro'yxatda ko'rsatilgan xodimlar soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

Bunda, ro'yxatning tegishli ustuniga xodimlarning soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida «mavjud» yoki «mavjud emas» belgisi kiritib boriladi.

Solishtirish natijasida sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs ro'yxatga kiritilgan va soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida mavjud bo'lmagan xodimlar, ularning ishlash davri hamda olayotgan ish haqi to'g'risida soliq to'lovchidan tushuntirishlar oladi.

Ro'yxat sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs va soliq to'lovchi tomonidan imzolanadi. Soliq to'lovchi ro'yxatni imzolashdan bosh tortgan hollarda, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan ro'yxatning pastki qismiga bu haqida yozuv kiritiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarning soliq organlarida ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnoma mavjudligini tekshirish natijasida aniqlangan holatlar sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida soliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish quyidagilardan iborat:

bir martalik yig'imlar undirilishi, undirilgan yig'imlarning nazorat-kassa texnikasi xotirasiga kiritilishi va bankka topshirilishini nazorat qilish;

bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida sotuvchi va haridorlarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarning hamda bino va inshootlarni, shuningdek, buyumlarni ijaraga byerish bo'yicha ijara to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini tekshirish;

savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarining bajarilishini tekshirish.

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish natijasi bo'yicha aniqlangan holatlar, shu jumladan, soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari sayyor soliq tekshiruvini dalolatnomasida qayd etiladi.

Savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish

Soliq to'lovchida savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish quyidagilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi:

alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilganligi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish joylarida ularni 20 yoshga to'lmagan shaxslarga sotishga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarining inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi ogohlantiruvchi yozuv joylashtirilganligi;

savdo shoxobchasida sotuvchi — yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, ya'ni korxonaning nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili va ish rejimi), agar sotuvchi yakka tartibdagi tadbirkor bo'lsa, uning davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik va ro'yxatdan o'tkazgan organning nomi to'g'risidagi ma'lumotlar haridorlar tanishishi uchun qulay tarzda joylashtirilganligi;

agar sotuvchi amalga oshiradigan faoliyat litsenziyalanishi kyerak bo'lsa, u litsenziyaning tartib raqami va amal qilish muddati to'g'risidagi, shuningdek, uni byergan organ haqidagi ma'lumotlar haridorlar tanishishi uchun qulay tarzda joylashtirilganligi;

sotuvchi tovarning nomi, uning sorti, markasi, modeli, tipi, tovarning og'irligi, o'lchami yoki birligiga narxi ko'rsatilgan holda sotiladigan tovarlarning yagona namunadagi va aniq rasmiylashtirilgan narxnomalari bo'lishini ta'minlaganligi;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlar bilan savdo amalga oshiradigan sotuvchi tomonidan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarni sotish qoidalariga rioya etilishi, zargarlik buyumlarining asillik darajasi belgilanganligi va tamg'alanganligi, shuningdek, kirim qilinmagan kontrafakt mahsulotlarning sotilishi holatlari mavjud emasligi;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari parchalarini, ulardan tayyorlangan buyumlarni, shuningdek, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni sotib olish punktlarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarning chakana savdosi bilan shug'ullanish huquqi uchun byerilgan ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasi mavjudligi, tovarlarni hisobga olish va pul operatsiyalarini yuritish bo'yicha qonun hujjatlariga rioya qilinishi;

maishiy elektr priborlarining texnik hujjatlarida, markirovkasida va etiketkalarida enyergiya samaradorligining tegishli klassi to'g'risidagi axborotlarning mavjudligi;

sotiladigan tovarlarning narxi ko'rsatilgan narxnomalarga egaligi;

umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish qoidalariga rioya etilishi;

chakana savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish shoxobchasida alkogol mahsulotlari savdosi uchun ruxsat guvohnomalari mavjudligi va shoxobchani ruxsat byerish shartlariga muvofiqligi.

Savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

Soliq to'lovchidan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni soliq to'lovchi (soliq agentlari) tomonidan xatlovdan o'tkazishni talab qilish

Asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni soliq to'lovchi (soliq agentlari) tomonidan xatlovdan o'tkazish «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» O'zbekiston Respublikasi Buxgaltyeriya hisobining milliy standarti 19-sonli BHMSga (ro'yxat raqami 833, 1999-yil 2-noyabr) muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, soliq to'lovchining saqlanayotgan va savdo obyektlarida savdoga chiqarilgan tovarlarning kirim hujjatlari (hisobvaraqa-fakturalar, yuk xatlari, nazorat-kassa texnikasi cheki yoki unga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar) mavjudligi tekshiriladi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida, shuningdek, soliq organida mavjud ma'lumotlarga asosan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblar mavjud emasligi aniqlanib, bu soliq to'lovchining tilxati bilan tasdiqlanganda xatlovdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish

Hujjatlar va (yoki) buyumlarni olib qo'yish sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxsning Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shaklda qabul qilingan qaror asosida amalga oshiriladi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida hujjatlar va (yoki) buyumlarni olib qo'yish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

a) buyumlarni olib qo'yish — tegishli ruxsatnomalarsiz, qalbaki aksiz markasi bilan yoki aksiz markasiz ishlab chiqarilgan yoki sotilayotgan alkogol va tamaki mahsulotlari aniqlangan taqdirda;

b) hujjatlarni olib qo'yish:

sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishda talab qilingan hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilishi rad etilganda yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

hujjatlarning ko'chirma nusxalari etarli bo'lmasa hamda soliq organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo'q qilinishi, yashirilishi, o'zgartirilishi yoki almashtirib qo'yilishi mumkinligi to'g'risida taxmin qilish uchun etarlicha asoslar mavjud bo'lsa.

Hujjat va buyumlarni olib qo'yish jarayoni videotasvirga tushiriladi.

Mazkur bandeda nazarda tutilmagan hollarda buyumlarni olib qo'yish taqiqlanadi.

Soliq to'lovchi faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladigan hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish faqat sudning qarori asosida amalga oshiriladi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida olib qo'yilgan buyumlarning o'zgartirilishiga (tovar turi, hajmi, miqdori, qiymati va boshqa o'ziga xos belgilari) yo'l qo'yilmaydi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida hujjatlar va (yoki) buyumlarni tungi paytda (soat 23-00 dan 06-00 ga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida) olib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish xolislar hamda hujjatlari va buyumlarini olib qo'yish amalga oshirilayotgan shaxslar ishtirokida o'tkaziladi.

Zarur bo'lgan hollarda, olib qo'yishni amalga oshirishda ishtirok etish uchun mutaxassis taklif etilishi mumkin.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish boshlanguniga qadar sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs soliq to'lovchiga hujjatlar va buyumlarni olib qo'yishni amalga oshirish to'g'risidagi qarorni taqdim etadi hamda uning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs hujjatlar va (yoki) buyumlarini olib qo'yish amalga oshirilayotgan shaxsga ularni o'z ixtiyori bilan topshirishni taklif etadi, taklif rad etilgan taqdirda esa, olib qo'yishni majburiy tarzda amalga oshiradi.

O'ziga nisbatan olib qo'yish amalga oshirilayotgan shaxs olib qo'yilishi lozim bo'lgan hujjatlar va buyumlar saqlanishi mumkin bo'lgan binolarni yoki boshqa joylarni ochishdan bosh tortganda, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tambalarga, eshiklarga va boshqa buyumlarga zarurat sababli yuzaga kelmagan shikast etkazishdan qochib olib qo'yishni mustaqil tarzda bajarishga haqli.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida hujjatlar va buyumlarni olishda Nizomning 6-ilovasiga muvofiq shaklda ikki nusxada hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish to'g'risida bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish to'g'risidagi bayonnomaning bir nusxasi soliq to'lovchiga imzo qo'ydirib topshiriladi.

Soliq to'lovchi hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish to'g'risidagi bayonnomani imzolash va (yoki) olishdan bosh tortgan hollarda ushbu haqida bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi va soliq to'lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq to'lovchi talab qilingan hujjatlar va buyumlarni taqdim etishdan, binolarni yoki boshqa joylarni ochishdan bosh tortgan taqdirda, bu haqda sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish to'g'risida bayonnomada yozuv kiritiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish

Sayyor soliq tekshiruvida soliq to'lovchi tomonidan sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxsning o'z hududi va binolariga kirishiga to'sqinlik qilingan taqdirda, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan Nizomning 7-ilovasiga muvofiq dalolatnoma tuziladi.

Bunday dalolatnoma asosida soliq organi soliq to'lovchi to'g'risida o'zida mavjud bo'lgan ma'lumotlar yoki xuddi shunday soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli.

Dalolatnoma sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs va soliq to'lovchi tomonidan imzolanadi. Soliq to'lovchi ko'rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, mazkur dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan Nizomning 8-ilovasiga muvofiq shaklda qat'iy hisobda turadigan sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuziladi.

Sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi va soliq organi mansabdor shaxslari hamda soliq to'lovchi tomonidan imzolanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga dalolatnoma bilan tanishib chiqib, uni olganligi va sanasi ko'rsatilgan imzosi orqali topshiriladi.

Soliq to'lovchi sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini olishdan bosh tortganda, ushbu dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi va uning nusxasi elektron hujjat tarzida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi yuboriladi. YUborilgan hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan o'qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo'natilgan sanadan e'tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to'lovchida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo'lmasa, dalolatnoma pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va u jo'natilganidan so'ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasi soliq to'lovchiga topshirilgan kun yoki unga yuborilgan kun soliq tekshiruvi yakunlangan kun deb hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarning nusxalari, tekshiruv davomida rasmiylashtirilgan hujjatlar, ekspert va mutaxassislar xulosalari, sayyor soliq tekshiruvi davomida olingan matyeriallar, shuningdek, sayyor soliq tekshiruvi doirasidagi harakatlarning bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga ilova qilinadi.

Sayyor soliq tekshiruvi davomida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari aniqlangan taqdirda, aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8.3. Soliq auditini o'tkazish tartibi

Soliq auditini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining "Soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi Nizom asosida o'tkazilib, mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga (bundan buyon matnda Soliq kodeksi deb yuritiladi) muvofiq soliq auditini o'tkazish tartibini belgilaydi.

Soliq auditi soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining muayyan davr uchun soliqlar va yig'implarning hisoblanishi hamda to'lanishining to'g'riligini tekshirish maqsadida, uning buxgaltyeriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslash yo'li bilan o'tkaziladi.

Jinoyat ishi doirasida soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etish O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va Soliq kodeksi talablari asosida o'tkaziladi.

Soliq auditi quyidagi soliq to'lovchilarda o'tkaziladi:

solliq organida xavfni tahlil etish avtomatlashtirilgan axborot tizimi («Tahlilka-tahlil» dasturiy mahsuloti) orqali aniqlangan, yuqori darajadagi tavakkalchilik (solliq xavfi) toifasiga mansub bo‘lgan solliq to‘lovchilarda; kamyeral solliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha solliq organining talabnomasiga javoban aniqlashtirilgan solliq hisobotini taqdim etmagan (shu jumladan, aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asos keltirmagan yoki taqdim qilingan asosnomalar yetarli emas deb topilgan yuqori darajadagi tavakkalchilik (solliq xavfi) toifasiga mansub bo‘lgan solliq to‘lovchilarda;

ixtiyoriy tugatilayotgan solliq to‘lovchilarda;

jinoiy ish qo‘zg‘atilgan solliq to‘lovchilarda;

avval o‘tkazilgan solliq auditi chog‘ida solliq organiga ma‘lum bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan solliq to‘lovchilarda.

Solliq auditi doirasida solliq organlari tomonidan solliq to‘lovchiga hujjatlar elektron hujjat tarzida solliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Yuborilgan hujjatlar solliq to‘lovchi tomonidan o‘qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo‘natilgan sanadan e‘tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi.

Agar solliq to‘lovchida solliq to‘lovchining shaxsiy kabinetini mavjud bo‘lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo‘natilganidan so‘ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Hujjatlar solliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga shaxsan mazkur hujjatlar olingan sana ko‘rsatilgan holda imzo qo‘ydirib topshirilishi mumkin.

Solliq auditi solliq to‘lovchilarni oldindan xabarnoma yuborish orqali amalga oshiriladi, bundan mazkur bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan holat mustasno.

Agar solliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, Yirik solliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat solliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat solliq boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda solliq to‘lovchini oldindan xabardor qilmasdan solliq auditini boshlaydi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash belgilari Soliq kodeksining 223-moddasiga asosan aniqlanadi.

Soliq auditini o'tkazish uchun soliq organi rahbarining (rahbar o'rinbosarining) buyrug'i soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud boshqa ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida soliq audit dasturi tayyorlangandan keyin chiqariladi.

Soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi buyruq bilan uni o'tkazish dasturi ham tasdiqlanadi.

Jinoyat ishi yuzasidan o'tkaziladigan soliq audit uchun buyruq taftish o'tkazish to'g'risida qabul qilingan qaror yoki ajrim soliq organiga kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida chiqariladi.

Tugatilayotgan soliq to'lovchilarda ro'yxatdan o'tkazilgan tegishli organdan soliq organi xabardor qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida soliq auditini amalga oshirishga kirishadi.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti tugatilayotganda, soliq audit uning soliq organida hisobga qo'yilishiga asos bo'lgan hujjatlarda ko'rsatilgan muddat tugagan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida boshlanishi lozim.

Tugatilayotgan soliq to'lovchida soliq auditini o'tkazish to'g'risida buyruq soliq auditini o'tkazish dasturi tayyorlangan kundan so'ng uch ish kundan kechiktirmasdan chiqariladi.

Soliq audit:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan o'z hududida soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilarda;

yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan yirik soliq to'lovchilarda;

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yuqori darajadagi tavakkalchilik (soliq xavfi) toifasiga mansub bo'lgan soliq to'lovchilarda.

Soliq auditida ishtirok etish uchun boshqa soliq organlarining mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin.

Soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- solix auditi o'tkazish uchun asoslar;
- solix to'lovchining nomi va identifikatsiya raqami;
- solix auditini o'tkazuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi;
- solix auditini o'tkazish muddati;
- solix auditining maqsadi (tekshiriladigan solix davrida barcha solixlar va yig'implar yoki ayrim solix turi).

Soliq auditi o'tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning solix hisobotiga solix to'lovchi tomonidan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bunda solix to'lovchi tomonidan tekshirilayotgan davrning aynan tekshirilayotgan solix hisobotlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi yuzasidan jo'natilgan qayta hisobotlari qabul qilinmaydi (qaytariladi) va solix auditi jarayonida solixlar hisoblanishida hisobga olinmaydi.

Soliq auditini o'tkazish muddati o'tkazilgan solix auditi to'g'risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

Soliq auditida ikki va undan ortiq solix auditini o'tkazuvchi shaxslar qatnashganda, tekshirish jarayonini boshqarish va natijalarini umumlashtirish maqsadida buyruqda birinchi ko'rsatilgan tekshiruvchi guruh rahbari hisoblanadi.

Soliq organi solix auditi boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin solix to'lovchiga solix auditi o'tkazilishi to'g'risida Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda xabarnoma yuboradi, bundan solixlarni to'lashdan bo'yin tovlash belgilari mavjud bo'lgan, ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan hamda jinoyat ishi doirasida taftish o'tkaziladigan solix to'lovchilar mustasno.

Xabarnomada solix auditining boshlanish sanasi, tekshirilishi lozim bo'lgan masalalarning ro'yxati, zarur hujjatlarning dastlabki ro'yxati, shuningdek solix auditini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Soliq to'lovchi solix auditi boshlangunga qadar xabarnomada ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarni tayyorlab qo'yishi lozim.

Soliq to'lovchiga soliq auditi o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnoma soliq to'lovchining shaxsiy kabineti yoki buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliq auditi faqat Soliq kodeksining 88-moddasida belgilangan da'vo qilish muddati o'tmagan oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin.

Soliq organlari soliq to'lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo'yicha bir martadan ortiq soliq auditini o'tkazishga haqli emas, bundan soliq auditini o'tkazish chog'ida soliq organiga ma'lum bo'lmagan yangi holatlar aniqlangan hollar mustasno. Yangi holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlashga haqli.

Soliq auditini o'tkazish chog'ida soliq organiga ma'lum bo'lmagan yangi holatlarga soliq to'lashdan bo'yin tovlash hamda soliq to'lovchi tomonidan soliq auditi o'tkazilgan davrlar uchun soliqlar va yig'imlar summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini taqdim qilinishi kiradi.

Soliq auditini o'tkazish muddati o'ttiz ish kunini tashkil qiladi, bundan Nizomning 16-bandida nazarda tutilgan holatlar mustasno.

Agar mazkur bandeda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq auditini o'tkazish muddati ikki oygacha, alohida hollarda esa — uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

Soliq auditini o'tkazish muddati o'tkazilishi quyidagilar uchun ham uzaytirilishi mumkin:

talab qilingan hujjatlar (axborotlar) besh ish kuni ichida taqdim qilinmaganda (uzaytirish hujjatlar talab qilinayotgan har bir shaxs bo'yicha ko'pi bilan bir marta yo'l qo'yiladi);

chet el davlat organlaridan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida axborot olishda;

ekspyertizalar o'tkazishda;

chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilishda (hujjatlar davlat tiliga tarjima qilingan asl nusxalari shaklida yoki notarial tarzda tasdiqlangan shaklda bo'lishi mumkin);

solliq auditi jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan hujjatlar hajmining ko'pligi sababli solliq auditini o'tkazish uchun buyruqda ko'rsatilgan muddatning etarli emasligida;

yaroqsiz holga kelgan hujjatlarning hamda solliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish bilan bog'liq elektron axborot jismlarni qayta tiklanishida;

mutaxassis fikri olinishida;
ekspyert jalb qilinganda.

Solliq auditini o'tkazishning umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas.

Coliq auditining muddatini uzaytirish solliq auditini o'tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga asosan yuqori turuvchi solliq organining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bunda asoslantirilgan iltimosnoma solliq auditining muddati tugashidan besh ish kuni oldin byerilishi kyerak.

Solliq auditining muddati uzaytirilganda oldingi buyruqning ro'yxatga olish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda solliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan qo'shimcha buyruq chiqariladi.

Tekshirilayotgan kalendar yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarda solliq auditini o'tkazish muddati o'ttiz ish kunidan ortiq davom etishi mumkin emas, bundan jinoyat ishi doirasida o'tkaziladigan solliq auditi (taftish) mustasno.

Agarda solliq auditini tashkil etish borasida so'z yuritsak, solliq auditini o'tkazish muddati solliq to'lovchiga (solliq agentiga) solliq auditini tayinlash to'g'risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi.

Solliq auditini tayinlash to'g'risidagi buyruq nusxasi solliq to'lovchiga yoki uning vakiliga buyruqning ikkinchi nusxasiga uni olganligi to'g'risida imzo qo'ydirgan holda topshiriladi.

Agarda solliq to'lovchi yuridik manzilida joylashmaganligi yoki boshqa sabablarga ko'ra buyruqni taqdim qilishni imkoni bo'lmaganda, buyruq uning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Solliq to'lovchida solliq to'lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo'lmasa, buyruq buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliq auditi boshlanishidan oldin soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

shaxsiy xizmat guvohnomasini va tekshiruv o‘tkazish huquqini byeruvchi maxsus guvohnomasini ko‘rsatishi;

soliq to‘lovchini yoki uning vakilini tekshiruv maqsadi bilan tanishtirishi;

«Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi»ni to‘ldirishi, kitob yoki uning elektron shaklini to‘ldirish imkoni mavjud bo‘lmagan taqdirda, bu haqda soliq auditi dalolatnomasida qayd etishi;

soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqning bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etishi;

soliq to‘lovchining huquq va majburiyatlarini, shu jumladan tekshiruv ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi yoki tadbirkorlik subyektlarining boshqa tegishli birlashmalarini jalb qilishga haqli ekanligini tushuntirishi.

Soliq auditi «Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi» to‘ldirilganidan so‘ng o‘tkaziladi.

Soliq auditi dalolatnomasiga «Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi»ning to‘ldirilgan shakli (qog‘oz shakli to‘ldirilganda — elektron shakli to‘ldirilmaganligi sababi) yoki kitob taqdim etilmaganda — uning taqdim etilmaganligi to‘g‘risida soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs tomonidan tegishli yozuv kiritiladi.

Soliq auditini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs «Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi»ni to‘ldirishdan bosh tortgan taqdirda, soliq to‘lovchi soliq auditining o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaslikka haqli.

Soliq auditi 2022-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni soliq auditi tayinlanganligi to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilish orqali o‘tkaziladi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab soliq auditi Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimi orqali Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni kelishish

va o‘tkazish tartibi haqidagi vaqtinchalik nizomga (ro‘yxat raqami 3067, 2018-yil 7-sentyabr) asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan kelishilgan holda «Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi» to‘ldirilganidan so‘ng o‘tkaziladi.

Soliq auditi natijalari soliq organlari tomonidan tekshiruv tamomlangandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi.

Soliq auditini soliq to‘lovchining hududida o‘tkazishning imkoni bo‘lmaganida, soliq auditi soliq organi joylashgan joyda o‘tkaziladi. Bunda soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar soliq to‘lovchi (tugatuvchi) tomonidan soliq organiga taqdim etiladi.

Tugatilayotgan soliq to‘lovchilarda soliq auditini o‘tkazish xususiyatlari

Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarda soliq auditi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risidagi nizom qoidalari qo‘llanilmaydigan korxonalar va tashkilotlar tugatilishida soliq auditi ularni tegishlilik bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning xabarnomasi yoki ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi.

Soliq organida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasida soliq auditi uning soliq organida hisobga qo‘yilishiga asos bo‘lgan arizada yoki unga ilova qilingan shartnomada (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘rsatilgan muddat tugaganda o‘tkaziladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan hamda soliq qarzi mavjud bo'lmagan tijorat tashkilotlarida soliq auditi o'tkazilmaydi.

Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan soliq to'lovchida soliq auditi oxirgi soliq auditidan keyingi soliq davrini, lekin soliq auditi o'tkazilayotgan yildan oldingi uch yildan oshmagan davrni qamrab olishi mumkin.

Hudud va binolarni ko'zdan kechirish

Soliq organlarining bevosita soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxslari ko'rsatilgan obyektlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarning tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan ma'lumotlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hududlarini yoki binosini yoxud soliq solish obyektlarini ko'zdan kechirishni o'tkazishi mumkin.

Hudud va binolarni ko'zdan kechirish xolislar ishtirokida amalga oshiriladi hamda zarur bo'lgan hollarda, ko'zdan kechirish chog'ida fotosuratga olish va videoyozuvga tushirish amalga oshiriladi, hujjatlardan ko'chirma nusxalar olinadi yoki ko'zdan kechirish bilan bog'liq boshqa harakatlar bajariladi.

Bevosita soliq auditini o'tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshirilayotgan shaxsning hududiga yoki binosiga kirishi ushbu mansabdor shaxslar tomonidan xizmat guvohnomalari va soliq organi rahbarining (rahbari o'rinbosarining) ushbu shaxsning soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i (qarori) taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining soliq auditini o'tkazuvchi mansabdor shaxslariga mazkur hududlarga yoki binolarga (bundan turar-joy binolari mustasno) kirishiga to'sqinlik qilingan taqdirda soliq organining mansabdor shaxsi o'zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnomani Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda tuzadi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to'g'risida o'zida mavjud bo'lgan ma'lumotlar yoki xuddi shunday soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli.

Tekshirilayotgan shaxs ko'rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda mazkur dalolatnomaga tegishli qayd kiritiladi.

Soliq auditini o'tkazuvchi shaxsga hududlarga yoki binolarga (bundan turar joy binolari mustasno) kirishiga to'sqinlik qilingan yoki soliq to'lovchi ro'yxatga olish ma'lumotlarida ko'rsatilgan manzilida joylashmagan taqdirda, soliq organlari Soliq kodeksining 111-moddasiga muvofiq soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turishi mumkin.

Hudud va binolarni ko'zdan kechirish uchun ularga kirishga to'sqinlik qilingan holat bo'yicha dalolatnoma tuzilganidan keyin soliq to'lovchi tomonidan hudud va binolarga kirishga ruxsat byerilgan taqdirda, soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror bekor qilinadi hamda ko'zdan kechirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hudud va binolar ko'zdan kechirish natijasida Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda bayonnoma tuziladi.

Agarda mazkur soliq solish bilan bog'liq obyektlar boshqa viloyat hududida joylashgan taqdirda, ushbu obyektlarni ko'zdan kechirish, soliq to'lovchining mol-mulkini xatlovdan o'tkazish va savdo qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish soliq auditini o'tkazuvchi shaxsning murojaati asosida obyekt joylashgan joydagi soliq organi rahbarining (o'rinbosarining) buyrug'iga binoan amalga oshiriladi.

Soliq auditini o'tkazuvchi shaxs soliq to'lovchidan soliq auditi uchun zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilib olishga haqli. Bunda soliq to'lovchiga hujjatlarni taqdim etish to'g'risidagi talabnoma (bundan buyon matnda talabnoma deb yuritiladi) yuboriladi.

Talabnoma soliq to'lovchiga shaxsan imzo qo'ydirgan holda topshiriladi. Agar talabnomani mazkur usulda topshirish imkoni bo'lmasa, u Nizomning 4-bandida belgilangan tartibda yuboriladi.

Talab qilib olinadigan hujjatlar soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilishi yoxud telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda topshirilishi mumkin.

Soliq auditi davomida talab qilib olingan hujjatlar talabnoma olingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida taqdim etiladi. Agar tekshirilayotgan shaxs talab qilinayotgan hujjatlarni ushbu muddatda taqdim etish imkoniga ega bo'lmasa, u soliq auditini o'tkazuvchi shaxsni bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi.

Soliq to'lovchi talab qilingan hujjatlarni belgilangan muddatlarda taqdim etishning imkoni yo'qligi to'g'risida uning sabablarini ko'rsatilgan yozma shakldagi xabarnomani talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida yuborishi kyerak. Ushbu xabarnomada soliq to'lovchi talab qilingan hujjatlarni taqdim eta olishi mumkin bo'lgan muddatlar ko'rsatilishi lozim.

Soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) soliq to'lovchidan xabarnomani olgan kundan e'tiboran ikki kun ichida ushbu xabarnoma asosida hujjatlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo'lib, bu haqda alohida qaror chiqaradi.

Soliq to'lovchining talab qilinayotgan hujjatlarni taqdim etishni rad etganligi soliq auditini o'tkazuvchi shaxs tomonidan Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladigan hamda soliq to'lovchi va soliq auditini o'tkazuvchi shaxs tomonidan izolanadigan dalolatnomada qayd etiladi.

Soliq to'lovchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, bu haqda tegishli qayd kiritiladi. Hujjatlarni taqdim etish soliq to'lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi ushbu hujjatlarni olib qo'yish uchun asos bo'ladi.

Soliq auditi jarayonida soliq organlariga tekshirilayotgan shaxsning kamyeral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilganda ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek soliq monitoringini o'tkazish jarayonida tasdiqlangan ko'chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas.

Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo'lsa, shuningdek soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo'qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin.

Uchinchi shaxslardan hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish

Soliq auditini o'tkazuvchi shaxs soliq to'lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo'lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishga haqli.

Agar tekshirilayotgan soliq to'lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlar (axborot) boshqa hududda hisobda turgan soliq to'lovchidan (uchinchi shaxsdan) olish talab etilsa, soliq auditini o'tkazuvchi soliq organi tegishli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to'g'risida soliq to'lovchi (uchinchi shaxs) hisobda turgan joyidagi soliq organiga topshiriqnoma yuboradi.

Topshiriqnomada soliq auditini jarayonida talab qilib olinadigan hujjatlar (axborot) ko'rsatiladi hamda soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi buyruq nusxasi ilova qilinadi.

Topshiriqnoma olingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilinayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organi tomonidan uchinchi shaxsga talabnoma yuboriladi.

Talabnomaga hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to'g'risidagi topshiriqnomaning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

Talabnomani olgan shaxs talabnoma olingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida uni bajaradi yoki talab qilib olinayotgan hujjatlarga (axborotga) ega emasligini habar qiladi.

Agar talab etiladigan hujjatlarni (axborotni) mazkur muddatda taqdim etish imkoni bo'lmasa, soliq organi uchinchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra ushbu hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddatini uzaytirishga haqli.

Hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo'yish

Soliq auditini o'tkazuvchi shaxs soliqlarni va yig'implarni hisoblab chiqarish bilan bog'liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini (soliqqa oid axborotlarni saqlovchi moslamalar, shu jumladan kompyutyerning qattiq disk, noutbuklar va boshqalar) Soliq kodeksining 148-moddasida belgilangan tartibda olib qo'yishga haqli.

Hujjatlar va elektron axborot jismlari quyidagi hollarda olib qo'yiladi:

solliq auditini o'tkazish jarayonida hujjatlarni taqdim etish solliq to'lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

hujjatlarning ko'chirma nusxalari yetarli bo'lmasa hamda solliq organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo'q qilinishi, yashirilishi, o'zgartirilishi yoki almashtirib qo'yilishi mumkinligi to'g'risida taxmin qilish uchun etarlicha asoslar mavjud bo'lganda.

Olib qo'yilgan hujjatlar va elektron axborot jismlarini saqlash zarurati tugagunga qadar saqlab turiladi.

Solliq auditini uchun ahamiyati bo'lmagan hujjatlar va elektron axborot jismlari solliq auditini o'tkazuvchi shaxs tomonidan ko'zdan kechirib bo'lganidan keyin egalariga darhol qaytarib beriladi. Qaytarilgan hujjatlar va elektron axborot jismlari bo'yicha solliq to'lovchidan qabul qilib olganligini to'g'risida tilxat olinadi.

Hujjatlarning asl nusxalari olib qo'yilganda, solliq organlari ularning saqlanishini ta'minlashlari shart.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini olib qo'yish Nizomning 5-illovasiga muvofiq shakldagi solliq auditini o'tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini tungi paytda (soat 23-00 dan 06-00 ga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida) olib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Solliq tekshiruvini predmetiga aloqasi bo'lmagan hujjatlar va buyumlar olib qo'yilmaydi.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini olib qo'yish xolislar hamda hujjatlari va elektron axborot jismlarini olib qo'yish amalga oshirilayotgan shaxslar ishtirokida o'tkaziladi. Barcha olib qo'yiladigan hujjatlar va elektron axborot jismlari xolislariga hamda olib qo'yishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ko'rsatiladi va zarur bo'lgan taqdirda olib qo'yilgan joyda o'raladi.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini olib qo'yish to'g'risida Nizomning 6-illovasiga muvofiq shaklda bayonnoma tuziladi va uning ko'chirma nusxasi solliq to'lovchiga imzo qo'ydirilgan holda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchi bayonnomani olishdan bosh tortsa, bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi va bir nusxasi soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yoki pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq auditining ishtirokchilari

Soliq auditini o'tkazuvchi shaxs xodimlar, soliq to'lovchi va uning vakillari soliq auditining ishtirokchilaridir.

Soliq auditini o'tkazilishida Soliq kodeksining 149 — 153-moddalarida belgilangan tartibda guvoh, ekspyert, mutaxassis, tarjimon va xolislar jalb etilishi, shuningdek, agar yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish uchun ilm-fan, san'at, texnika yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar talab etilsa, ekspyertiza tayinlanishi mumkin.

Ekspyert, mutaxassis va tarjimonni jalb qilish uchun soliq organi tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotiga murojaat qilinadi. Mazkur shaxslarni davlat organlari va tashkilotlaridan jalb qilishning imkoni bo'lmagan taqdirda esa, mustaqil ekspyert, mutaxassis yoki tarjimonlar shartnoma asosida jalb qilinadi.

Soliq auditini amalga oshirishda guvohlardan ko'rsatmalar olishdan avval soliq auditini o'tkazuvchi shaxs guvohni ko'rsatmalar byerishni rad etganlik yoki bundan bosh tortganlik yoxud bila turib yolg'on ko'rsatmalar byerganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi va guvohning byergan ko'rsatmalari yuzasidan Nizomning 7-illovasiga muvofiq shaklda bayonnoma tuziladi. Bayonnoma soliq auditini o'tkazuvchi shaxs va guvoh tomonidan imzolanadi.

Ekspyertiza tayinlash to'g'risida soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) soliq auditini o'tkazuvchi shaxsning iltimosnomasi asosida Nizomning 8-illovasiga muvofiq qaror qabul qiladi.

Soliq auditini o'tkazuvchi shaxs soliq to'lovchini ekspyertiza tayinlanganligi to'g'risidagi qaror bilan tanishtiradi va huquqlarini tushuntirib, bu haqida Nizomning 9-illovasiga muvofiq bayonnoma tuzadi.

Soliq organlari xodimlari xolislar sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va (yoki) boshqa nodavlat notijorat

tashkilotlarning vakillari soliq to'lovchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun quyidagi hollarda soliq auditi jarayonida ishtirok etishi mumkin:

soliq to'lovchida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi a'zosi ekanligini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda;

vakilning xizmat guvohnomasi va tekshirishda qatnashish uchun ishonchnomasi bo'lganda.

Vakil soliq auditini o'tkazuvchi shaxs o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ular qonuniy faoliyatiga aralashmasligi lozim.

Soliq auditi natijalarini rasmiylashtirish

Soliq auditi natijasiga ko'ra soliq auditini o'tkazuvchi shaxs tomonidan Nizomning 10-ilovasiga muvofiq shaklda uch nusxada soliq auditi dalolatnomasi tuziladi.

Soliq auditi dalolatnomasiga tekshiruv davomida aniqlangan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishlari faktlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Agar soliq auditi natijasida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishlari aniqlanmagan bo'lsa, bu haqda soliq auditi dalolatnomasida qayd etiladi.

Soliq auditi dalolatnomasining barcha nusxalari soliq auditini o'tkazuvchi shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi. Soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga soliq auditi tugaganidan keyin uch kun ichida topshiriladi.

Soliq to'lovchining soliq auditi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq auditi natijalariga roziligini bildirmaydi.

Soliq to'lovchi soliq auditi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda, soliq auditini o'tkazuvchi shaxs bu haqda soliq auditi dalolatnomasiga tegishli yozuv kiritadi.

Bunday holda soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasida bayon etilgan faktlarga va (yoki) soliq auditini o'tkazuvchi shaxsning xulosalari hamda takliflariga rozi bo'lmagan taqdirda, soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida tegishli soliq organiga mazkur

dalolatnoma bo'yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e'tirozlarini taqdim etishga haqli.

Soliq to'lovchi o'z e'tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini) yozma e'tirozlarga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

Soliq auditi matyeriallari soliq to'lovchi hisobda turgan joydagi soliq organiga yuboriladi hamda soliq auditi tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro'yxatdan o'tkaziladi va soliq auditi natijasi bo'yicha ma'lumotlar soliq tekshiruvlari hisobini yuritish axborot tizimiga kiritiladi.

Soliq auditi matyeriallarini ko'rib chiqish va natijasi bo'yicha qaror qabul qilish Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

- 1.Soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi.
2. Soliq tekshiruvlarini rasmiylashtirish tartibi.
- 3.Soliq tekshiruvlarini amalga oshiruvchi subyekt va mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari.
4. Soliq tekshiruvlarini amalga oshirishga asos bo'luvchi omillar.

IV QISM. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI TEKSHIRUV ISHLARINING NATIJAVIYLIGI

9-BOB. SOLIQ TEKSHIRUVI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRILISHI VA UNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

9.1. Hujjatli tekshirish dalolatnemasini rasmiylashtirishda qo'yiladigan talablar

9.2. Hujjatli tekshirish dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi

9.3. Hujjatli tekshirish dalolatnomasining tavsif qismini tuzishda qo'yiladigan talablar

9.4. Hujjatli tekshirish dalolatnomasini imzolash va taqdim qilish

9.1. Hujjatli tekshirish dalolatnemasini rasmiylashtirishda qo'yiladigan talablar

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi doirasida harakatlar amalga oshirilganda bayonnoma tuziladi. Bayonnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

tekshirilayotgan shaxsning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi);

tekshiruvni o'tkazish asoslari, turi va davri;

muayyan harakat bajarilgan sana va joy;

harakat boshlangan va tugallangan vaqt;

bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, famiylasi, ismi, otasining ismi;

harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan va (yoki) hozir bo'lgan har bir shaxsning famiylasi, ismi, otasining ismi, zarur hollarda esa uning manzili;

harakatning mazmun-mohiyati, uni o'tkazish izchilligi;

soliq tekshiruvi paytida aniqlangan faktlar va holatlar.

Harakatlarning amalga oshirilishida ishtirok etgan va (yoki) hozir bo'lgan barcha shaxslar bayonnomani o'qib chiqadilar. Mazkur shaxslar o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga haqli va bu fikr-mulohazalar bayonnomaga kiritilishi yoki soliq tekshiruvi matyeriallariga qo'shib qo'yilishi lozim. Bayonnoma davlat soliq xizmati organining

bayonnomani tuzgan mansabdor shaxsi, shuningdek harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan va (yoki) hozir bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonnomaga fotosuratlar va negativlar, kinolentalar, videoyozuvlar hamda harakatlar amalga oshirilganda bajarilgan boshqa matyeriallar ilova qilinishi mumkin.

Tasdiqlangan dastur asosida, o'tkazilgan hujjatli tekshirish (taftish) natijalari bo'yicha tuzilgan tekshirish dalolatnomasi soliq organlarining vakolatli mansabdor xodimlari tomonidan, mazkur tartib asosida, uch nusxada tuziladi va uchinchi nusxasi tekshirilgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariga byeriladi. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining har bir nusxasi tekshiruvchi va tekshirilayotgan subyektning mas'ul xodimlari, ya'ni rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Dalolatnoma qog'ozda, o'zbek yoki rus tilida tuzilib, varaqlari ketma-ketlikda raqamlanadi. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasida yozuvlarni o'chirish, tuzatish hollariga yo'l qo'yilmaydi, agarda shu hollar ro'y byersa bu o'zgartirishlar imzo qo'yuvchilar tomonidan izohlanib, imzolari bilan tasdiqlanishi zarur. Dalolatnomada qisqartirishlar yoki umumiy qabul qilingan abbreviaturalar ishlatilishi, dastlab qisqartiriladigan so'z birikmasi to'liq yozilib, bir vaqtning o'zida keyinchalik qisqartiriladigan so'z birikmasi namunasi qavs ichida keltirilgan tartibda ifodalanadi.

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasida, tekshirish jarayonida hujjatlar asosida tasdiqlangan soliq va boshqa qonunbuzarliklar faktlari yoki qonunbuzarlik mavjud bo'lmagan hollar ifodalanishi lozim.

9.2. Hujjatli tekshirish dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi: kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo'ladi. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining kirish qismida o'tkazilayotgan tekshirish va tekshirilayotgan subyekt (soliq to'lovchi) haqida umumiy ma'lumotlar, ya'ni :

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining reja-jadvali va ruxsatnomasi;

- soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan hujjatli tekshirishni o'tkazish to'g'risidagi buyruqning raqami, sanasi;

- tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektining ta'ris hujjatlariga ko'ra to'liq va qisqacha nomi;
- soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR) va OKONX kodi;
- tekshirish o'tkazilgan joyning nomi (tekshirish o'tkazilgan hudud, aholi maskani);
- tekshiruv dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sana tekshiruv o'tkazgan shaxslarning dalolatnomaga imzo qo'ygan sanasi.

Hujjatli tekshirishga (taftishga) soliq xizmatining boshqa organlari mutaxasislari jalb etilgan taqdirda, tekshirish dalolatnomasida ularning ham familiyasi, ismi, mansabi va ular xizmat qilayotgan soliq organlari nomi ko'rsatilib o'tiladi.

Tadbirkorlik sub'ektining tekshiruv o'tkazilayotgan faoliyat davri, tekshirish boshlangan va tugallanish sanasi.

Bunda, tekshirishning boshlanish sanasi bo'lib, tekshirilayotgan subyekt rahbariga (vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi shaxsga), hujjatli tekshirishni o'tkazish to'g'risida soliq organi boshlig'ining (o'rinbosarlari) buyrug'ini taqdim qilingandagi sanasi, tekshirishni tugatilish sanasi esa - tekshiruvni amalga oshirgan tekshiruvchilarning dalolatnomaga imzo qo'ygan sanasi hisoblanadi. Ammo, tekshirishga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar bo'lmagan yoki ularni tekshiruvga taqdim etilmagan holatlarda, tekshirishni boshlanish sanasi bo'lib, tekshiruvga hujjatlar taqdim etilgan sana hisoblanadi.

-tekshirilayotgan davrda, tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxslarining (rahbari, bosh hisobchisi yoki ularning vazifasini bajaruvchilar) familiyasi, ismi, sharifi;

Agarda tekshirilayotgan davr maboynida yuqorida qayd etilgan shaxslar tarkibida o'zgarish yuz bergan bo'lsa, mazkur shaxslarning, qaysi vaqtdan boshlab (buyruq, farmoyish, ta'rischilar yig'ilish qarori yoki ishga tayinlash va bo'shatish to'g'risidagi boshqa hujjatlar) tegishli mansabga, ishga tayinlangani yoki bo'shatilgani ko'rsatib o'tiladi;

- tekshirilayotgan sub'ekt joylashgan manzili (xususiy tadbirkorning yashash manzili), shuningdek, ular tomonidan xo'jalik faoliyati amalga

oshirilayotgan manzil (davlat ro'yxatidan o'tgan manzil bilan solishtirish);

- maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshirilayotgan faoliyat to'g'risidagi malumotlar (sanasi, raqami, byergan tashkilotning nomi, ruxsatnoma amal qilishining boshlanish va tugash sanasi);

- subyektning haqiqatda amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati turi, shu jumladan qonun bilan taqiqlangan faoliyat turi yoki maxsus ruxsatnoma olmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi to'g'risidagi malumot;

- tekshirish o'tkazish uslubi, uning birlamchi hujjatlarni (to'liq yoki tanlash yo'li bilan) tekshirilishi tartibi;

- soliq bo'yicha qarama-qarshi tekshiruv o'tkazilganligi, tekshirish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar va buyumlarni olib qo'yilganligi, ekspyertiza, soliq to'lovchining mulklari sanoqdan o'tkazilganligi, korxonalar hududi va binolari ko'zdan kechirilganligi va tekshiruv davrida amalga oshirilgan boshqa tadbirlar to'g'risida malumot;

- bank muassasalaridagi hisob raqami (shu jumladan Respublikadan tashqarisida mavjud bo'lganlari) va boshqa malumotlar to'g'risida;

- ilgari o'tkazilgan tekshirishlar (Moliya vazirligi, soliq idoralari, huquqni muxofaza qilish idoralari va auditorlik tashkilotlari tomonidan), ular natijalari bo'yicha qabul qilingan choralar (soliq idorasiga qayta topshirilgan hisobotlar, keltirilgan zararining qoplanishi, ko'zg'atilgan jinoyat ishlari) haqida qisqacha malumot;

- tashkil etilgan sho'ba korxonalar, vakolatxonalar, filiallar va boshqa tarkibiy tuzilmalari haqida ma'lumot;

- ta'sischi va ta'sis hujjatlariga asosan nizom fondining miqdori va tekshiruv kuniga qadar nizom fondining haqiqatda shakllantirilganligi haqida ma'lumot (pul mablag'lari hisobida - so'm yoki valyuta, asosiy vositalar, intellektual mulk, nomoddiy aktivlar va h.k.);

- aksionerlik jamiyatlarida aksiyalarning chiqarilishi va ularning joylashtirilishi (foiz hisobida, pul mablag'lari va miqdor ko'rinishida) hamda aksionerlar va xususiylashtirish haqida boshqa zarur bo'lgan ma'lumotlar.

Hujjatli tekshiruv (taftish) natijasi bo'yicha tuzilgan dalolatnomaning tavsif qismida, tekshirish natijasida aniqlangan hujjatli tasdiqlangan soliq va boshqa qonunbuzarlik faktlari yoki qonunbuzarliklarni aniqlanmaganligi holatlari, shuningdek tekshirish natijalari bo'yicha qaror qabul qilishga ta'sir etadigan holatlar tizimli ifodalaniladi.

Tekshiruv davomida soliq qonunchiligiga taalluqli bo'lmagan lekin nazorati soliq idoralariga yuklatilgan qonunbuzarliklar aniqlanganda bunday faktlar ham hujjatli tekshiruvlar natijasi bo'yicha tuziladigan dalolatnomada aks ettirilishi lozim.

9.3. Xujjatli tekshirish dalolatnomasining tavsif qismini tuzishda qo'yiladigan talablar

Xujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining tavsif qismi DSQ (DSB, DSI) tomonidan tasdiqlangan tekshiruv dasturiga binoan va quyidagi talablarga muvofiq rasmiylashtirilishi zarur:

a) Ob'ektivlik, asoslilik va xolislik.

Dalolatnomada aks ettiriladigan faktlar - to'liq tekshirish natijasida aniqlangan, noaniqliklarni inkor qiluvchi, shuningdek soliq to'lovchi tomonidan (harakat va harakatsizlik oqibatida) yo'l qo'yilgan soliq qonunchiligi va boshqa qonunbuzarliklar haqida to'liq xulosa byerilishini ta'minlashi zarur.

Dalolatnomada aks ettirilgan har bir soliq qonunbuzarlik faktlari bo'yicha quyidagilar aniq izohlab byerilishi lozim:

- soliq va boshqa qonunbuzarliklarni turlari, qonunbuzarlikni sodir etish usuli va uni keltirib chiqargan sharoitlar, mazkur qonunbuzarlikka yo'l qo'yilgan soliq davri;

- soliq to'lovchi tomonidan DSIGA topshirilgan soliq hisob-kitoblari va haqiqatda tekshiruv natijalari asosida tuzilgan soliq hisob-kitoblari o'rtasidagi aniqlangan tafovutga baho byerish;

- soliq hisobotlari hujjatli tekshiruv dalolatnomasida yozma ravishda bayon etilib, dalolatnomaga taqqoslangan jadvallar hamda tegishli hujjatlar ilova qilinadi;

- qonunbuzarlik faktlarini tasdiqlovchi birlamchi buxgaltyeriya hujjatlari va boshqa asoslarga tayanish (zarur bo'lganda, buxgaltyeriya

yo'zuvlari to'g'ri byerilganligi, kyerakli xo'jalik opyeratsiyalarini buxgalyeriya registrlarida to'g'ri qayd etilganligi ko'rsatiladi);

- sodir etilgan qonunbuzarliklarni, amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida»gi nizomi buzilgan bandlariga bog'liq holda tasniflash;

-ekspyert xulosasi (agarda ekspyertiza amalga oshirilgan bo'lsa), mansabdor shaxslarning tushuntirish xati shuningdek hujjatli tekshirishni amalga oshirish vaqtida bajarilgan tadbirlar bo'yicha tuzilgan bayonnomalarga asoslanish;

-dalolatnomada tekshiruvchining etarli darajada isbotlanmagan, asossiz, sub'ektiv taxmin va xulosalari bo'lmasligi lozim.

b) Soliq va boshqa qonunbuzarliklarga aloqasi bo'lgan barcha holatlar to'liq va atroflicha yoritilishi zarur.

Soliq to'lovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarning dalolatnomadagi bayoni, izohlanayotgan dalilga aloqasi bo'lgan barcha hujjatlarni tekshirish, shuningdek soliq nazoratini ta'minlash uchun o'tkazilgan tadbirlar natijalariga, (agarda zarur bo'lgan hollarda boshqa nazorat organlari mutaxassislarini tekshiruvga jalb etgan holda), asoslanishi zarur.

Dalolatnomada, aniqlangan qonunbuzarliklarga taalluqli bo'lgan barcha muhim holatlar, shu jumladan quyidagi ma'lumotlar to'liq yoritilishi zarur:

-soliq idoralariga topshirilmagan soliq hisob-kitoblari;

-buxgalyeriya hisobida moliya-xo'jalik opyeratsiyalarini to'liq va to'g'ri qayd etilishi holati;

-ishlab chiqarish harajatlarini to'lash tartibi buzilishi holatlari tahlili va manbalari (naqd pulga, tovar ayirboshlash (bartyer), uchinchi shaxs orqali o'zaro hisob-kitob) haqida;

v) Dalolatnomada bayon etiladigan iboralar aniq, qisqa va ravon mumkin darajada buxgalyeriya hisobi bo'yicha maxsus tayyorgarligi bo'lmaganlar uchun ham tushunarli bo'lishi zarur. Dalolatnomada

keltirilgan iboralarning ikkiyoqlama talqin etilish holatiga yo‘l qo‘yilmasligi zarur.

g) Tekshirish natijalarini ifodalash tizimi.

Tekshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar, ular ta’sir etgan soliq turlari va qonunbuzarliklar xususiyatiga qarab tekshirilayotgan davr bo‘yicha bo‘limlar va bandlar ko‘rinishida tartib bilan jamlangan holda dalolatnomada izohlanadi.

Bir xil ko‘rinishdagi va ko‘plab uchraydigan xato va kamchiliklar ro‘yxat va jadvallar ko‘rinishida jamlanib dalolatnomaga ilova qilinishi mumkin. Bunday holatda dalolatnoma matnida, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning mohiyati, soliq to‘lovchi tomonidan amaldagi qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarning buzilgan bandlari, shuningdek mazkur xato va kamchiliklarning miqdoriy hamda pul ko‘rinishidagi oqibatlari bilan bayon etiladi va dalolatnomada ilova raqami keltiriladi.

Mazkur ilovalarda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

-hisobot (soliq) davri ko‘rsatilgan holda, bir turdagi soliq qonunbuzarliklarning to‘liq ro‘yxati;

-sodir etilgan operatsiyalarga tegishli hujjatlarning nomi, sanasi va raqami;

-mazkur operatsiyaning mohiyati;

-huquqbuzarlik me‘yori;

Har bir yuqorida ko‘rsatilgan ilova, tekshiruvchi, tekshirilayotgan korxonalar rahbari va bosh hisobchisi (vaqtinchalik vazifasini bajaruvchi shaxslar yoki tadbirkorlar) tomonidan imzolanishi zarur.

Soliq qonunchiligi buzilganlik to‘g‘risidagi dalillar bayon etilganda, dalolatnomaning tavsif qismida qonun buzulganligini tasdiqlovchi hujjatlarning asli yoki nusxasi olib qo‘yilganligi aks ettiriladi;

Xujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining yakuniy (tugallanuvchi) qismida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

-tekshiruv davomida yashirilgan yalpi tushum, foyda (daromad) va boshqa soliq to‘lash obektini yashirganligi yoki soliqlarni noto‘g‘ri hisoblanishi natijasida, to‘lanmagan (to‘liq to‘lanmagan) soliqlarning umumiy miqdori yoki ortiqcha hisoblab qo‘yilgan soliqlar, soliq turlariga va soliq davrlariga bo‘lib ko‘rsatilgan ma’lumot;

- tekshiruv vaqtida tasdiqlangan tekshiruv dasturiga asosan aniqlangan boshqa kamchiliklarni umumlashtirilgan ma'lumoti (Prezident Farmonlari va Hukumat qarorlarini bajarilishi, muddati o'tgan debitor qarzlari, 15 foizlik to'lov oldindan undirilmasdan mahsulot (ish,xizmat) jo'natish holatlari, tovar ayrboshlash (bartyer) operatsiyalari, kamomad, ortiqchalik, g'azna operatsiyalari, pul mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, eksport-import hamda valyuta operatsiyalari va boshqalar);

Soliq to'lovchining soliq qonunchiligini buzganligi uchun javobgarligini engillashtiradigan yoki og'irlashtiradigan holatlari (boqimanda yoki ortiqcha to'lovlar va boshqalar) dalolatnomaning yakuniy qismida aks ettiriladi.

Hujjatli tekshiruvlar dalolatnomasiga ilovalar.

Hujjatli tekshiruvlar dalolatnomasida quyidagi ilovalar bo'lishi zarur:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi reja-jadvalidan yoki rejadan tashqari tekshirish o'tkazish ruxsatnomasidan ko'chirma, huquqni muxofaza qiluvchi organlarning jinoyat ishi yuzasidan qabul qilgan «Hujjatli tekshirish (taftish) tayinlash to'g'risida»gi qarori;

- hujjatli tekshiruvni (taftishni) o'tkazish uchun soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan imzolangan buyruqdan ko'chirma;

- tekshiruvchilar tomonidan aniqlangan qonunbuzarliklar ko'rsatilgan holda tuzilgan va tekshiruv o'tkazilayotgan korxonalar rahbari va bosh hisobchisi (ular vazifasini vaqtinchalik bajaruvchilar) yoki xususiy tadbirkor tomonidan imzolangan soliq turlari bo'yicha hisob-kitoblar;

- tekshiruv o'tkazilayotgan tashkilotning asosiy vositalari, tovar moddiy boyliklari, hazinadagi naqd pullar va boshqalar bo'yicha o'tkazilgan sanoq dalolatnomalari (mazkur ilova agarda sanoqdan o'tkazilgan bo'lsa keltiriladi);

- qarama-qarshi tekshiruv matyeriallari (agarda o'tkazilgan bo'lsa);

- ekspyert xulosasi (agarda ekspyertiza o'tkazilgan bo'lsa);

- soliq to'lovchi tomonidan daromad olish manbai sifatida foydalanayotgan, ishlab-chiqarish, savdo, omborxonalar binolarini ko'zdan kechirishda ishtirok etgan shaxslarning izoh (tushintirish) xati,

shuningdek soliq nazoratini amalga oshirishda bajarilgan tadbirlar natijasida tuzilgan tushuntirishlar (shunday tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda);

- soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;

- soliq to'lovchi tomonidan, soliq qonunchiligi buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi yoki soliq to'lovchidan yuqoridagi hujjatlar olib qo'yilganda ularning asl nusxasi.

- bank (boshqa kredit tashkilotlar) ma'lumotnomasi;

- yakuniy tekshirish va zaruriyat tug'ilgan hollarda tekshirilayotgan subyektning banklardagi mavjud hisob raqamlaridagi pul mablag'larining harakati to'g'risidagi olingan ma'lumotlar (to'liq hujjatli tekshirish o'tkazilganda, butun tekshirilayotgan davr uchun olinadi);

- tadbirkorlik sub'ekti nizom jamg'armasining shakllanishi to'g'risida ma'lumot;

- ta'sischi tarkibi va har bir ta'sischining ulushlari miqdori to'g'risida ma'lumot;

- tekshirilayotgan sub'ekt rahbarlari tomonidan imzolangan, mavjud sho'ba korxonalari va mustaqil bo'linmalari, vakolatxonalari (ularning manzili, STIRlari) korxonaning asosiy hududidan tashqarida joylashgan ishlab-chiqarish binosi, omborxonasi va savdo shoxobchalari manzili, soliq to'lovchi qaramog'idagi yer uchastkasi to'g'risida malumot;

- hujjatli tekshiruv (taftish) dalolatnomasida aks ettirilgan soliq va boshqa qonun buzilish holatlarini tasdiqlovchi, shuningdek tekshirish natijalari bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

9.4. Hujjatli tekshirish dalolatnomasini imzolash va taqdim qilish

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi, tekshirishda ishtirok etgan soliq idoralarning vakolatli mansabdor xodimlari, tekshirilayotgan subyektning rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi.

Tekshirilayotgan subyekt rahbarlari, tuzilgan hujjatli tekshirish

dalolatnomasi bilan tanishish huquqiga egadirlar. Shu maqsadda hujjatli tekshirish dalolatnomasining nusxasi, soliq organining vakolatli mansabdor xodimi tomonidan, tekshirilgan xo‘jalik subyekti rahbariga tanishish va imzo qo‘yish uchun tekshiruv tugagan kundan kechiktirmasdan bir sutka muhlatga taqdim etiladi. Soliq organining vakolatli mansabdor xodimlari tomonidan imzolangan hujjatli tekshirish dalolatnomaning nusxasi, tekshirilgan subyekt rahbariga topshiriladi va soliq idorasida qoladigan dalolatnoma nusxasining ohirgi varag‘ida tekshirilgan korxonaga rahbari tomonidan «Dalolatnomaning nusxasini ilovalari bilan ___varaqda (ilova varaqlar soni) oldim» degan jumla yozilib ismi sharifi, dalolatnomani olgan kuni sanasi ko‘rsatilib imzolanadi.

Tekshirilgan subyekt rahbarlari hujjatli tekshirish dalolatnomasini qabul qilishdan bosh tortgan hollarda, soliq organining mansabdor xodimlari tomonidan bu holat bo‘yicha xolis guvohlar jalb etiladi va tekshirilayotgan subyekt rahbarlari tomonidan dalolatnomani qabul qilishdan bosh tortish holati yuzasidan bayonnoma tuziladi. Bayonnomaning guvohlar tomonidan imzolangan sanasi hujjatli tekshirish dalolatnomasini taqdim etilgan kun deb hisoblanadi.

Agar tekshirilayotgan subyekt rahbarlari dalolatnomani imzolash vaqtiga kelib, hech bir sababsiz yakunlash jarayonida ishtrok etmasa, xolis guvohlar jalb etiladi hamda yuzaga kelgan holat bo‘yicha bayonnoma tuziladi va pochta orqali tekshirilgan subyekt manziliga yuboriladi. Pochta orqali yuborilgan dalolatnoma sanasi hujjatli tekshirish dalolatnomasini taqdim etilgan kun deb hisoblanadi.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma‘murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni rasmiylashtirish qay tartibda amalga oshiriladi?
2. Rejali tekshirishlar deganda qanday tekshirishlarni tushunasiz va ularni rasmiylashtirish tartibi?
3. Qisqa muddatli tekshirishlar ham rejali bo'lishi mumkinmi?
4. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa davlat organ va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi?

10-BOB. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI

10.1 . Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi umumiy qoidalar.

10.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

10.3. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan shikoyat byerish

10.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o‘n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo‘lmasa, bu huquqbuzarlik uchun O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda qo‘llaniladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma‘muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Soliq to‘lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash

majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqqa oid bir necha huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar uncha og'ir bo'lmagan moliyaviy sanksiyani og'irroq jarima bilan qamrab olish yoxud tayinlangan jarimalarni to'liq yoki qisman qo'shish orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar majmui bo'yicha qo'llaniladi. Bunda jarimaning uzil-kesil miqdori jarimaning yuqori miqdori nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun belgilangan eng ko'p miqdordan oshishi mumkin emas.

Agar soliq to'lovchi birinchi ish bo'yicha qaror chiqarilguniga qadar soliqqa oid yana boshqa huquqbuzarliklar sodir etganligi ish bo'yicha qaror chiqarilganidan so'ng aniqlansa, ushbu moddaning sakkizinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha jarima qo'llaniladi. Bu holda, sud tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar majmui bo'yicha tayinlangan jarima miqdorida birinchi qaror bo'yicha to'langan jarimaning summasi hisobga olinadi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlikni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanksiyalarga tortilmagan hisoblanadi.

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun quyidagi holatlardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa holatlar ham mavjud bo'lgan taqdirda, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi);

soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali isbotlanadi) jismoniy shaxs — soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda;

vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida byergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda (mazkur holatlar ushbu organlarning tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjatlar ma'nosi va mazmuniga ko'ra, hujjatlar qabul qilingan sanadan qat'i nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz byergan soliq davriga taalluqli bo'lishi lozim).

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda;

soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish;

tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish;

sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga — soliq to'lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno.

Qo'llaniladigan moliyaviy sanksiya huquqbuzarlikning oqibatlariga nomutanosib bo'lgan, javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, shuningdek huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olib, sud ushbu Kodeksning 17-bobida nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyaning eng kam darajasidan ham kamroq, biroq belgilangan sanksiya eng kam miqdorining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda, sabablar va asoslarni albatta ko'rsatgan holda moliyaviy sanksiya qo'llashga haqli.

Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya matyeriallar sudga byerilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik subyekti — soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

10.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

Soliq to'lovchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining, bundan bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan soliq to'lovchilar mustasno, davlat soliq

xizmati organlarida hisobga turishdan bo‘yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi:

agar faoliyat ko‘pi bilan o‘ttiz kun amalga oshirilgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o‘n foizidan kam bo‘lmagan miqdorda;

agar faoliyat o‘ttiz kundan ortiq amalga oshirilgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning ellik foizidan kam bo‘lmagan miqdorda.

Soliq to‘lovchining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentining davlat soliq xizmati organida ob‘ektlar bo‘yicha hisobga turishdan bo‘yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi:

agar hisobga turish bo‘yicha belgilangan muddatdan ko‘pi bilan o‘ttiz kun o‘tgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida;

agar hisobga turish bo‘yicha belgilangan muddatdan o‘ttiz kundan ortiq o‘tgan bo‘lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida.

Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno, —

kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Kirim qilinmagan tovarlar qo‘zg‘atilgan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yoki jinoyat ishi doirasida davlat daromadiga o‘tkazilgan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan sanksiya qo‘llanilmaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) —

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash

amalga oshiriladi.

Ushbu moddani qo'llash maqsadida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrilarida aks ettirilmaganligi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat byeruvchi hujjatlar almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kamyeral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to'lovchi — jismoniy shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Buxgaltyeriya hisobining mavjud emasligi yoki uni belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmasligiga olib kelsa, soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi soliq to'lovchi — yuridik shaxsni buxgaltyeriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat byeruvchi hujjatlarsiz shug'ullanganlik uchun shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Hisobvaraqa-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish

Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan mahsulot yyetkazib byeruvchilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraqa-fakturada aks ettirganlik—

mahsulot yetkazib byeruvchilarga hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Bunda mahsulot yetkazib byeruvchi hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini byudjetga to'lashi shart.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilarga nisbatan jarima solish qo'llanilmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet bilan qayta hisob-kitob qilmaydi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob tyerminallarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib byerish, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni byerish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni byermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik — eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda — eng kam ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Texnik talablarga javob byermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda —

eng kam ish haqining ikki yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish — to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to'lov kuni ham shunga kiradi, 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi. Bunda boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan

summaga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Penya miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshib ketishi mumkin emas. Penya undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yuridik shaxs — tadbirkorlik subyekti ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penyalar hisoblash to'xtatiladi. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, penya belgilangan tartibda qo'shib hisoblanadi hamda hisoblashlar to'xtatib turilgan butun davr uchun undiriladi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer solig'ining summasiga ekvivalent miqdorda:

yuridik shaxslarga — ikki baravari miqdorida;

jismoniy shaxslarga — bir yarim baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

10.3. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat byerish

Har bir soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat byerish uchun davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) shikoyat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat

byerilganligi shunday shikoyatni sudga byerish huquqini istisno etmaydi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat byerish tegishincha shikoyat bo'yicha davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan qaror qabul qilinguniga yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar shikoyat qilinayotgan qarorni yoki harakatni ijro etishni, shu jumladan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirishni, shuningdek moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishini to'xtatib turadi.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat davlat soliq xizmatining tegishli yuqori turuvchi organiga yozma shaklda byeriladi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat soliq to'lovchi o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida byeriladi. SHikoyatga uni asoslantiruvchi hujjatlar ilova qilinishi kyerak.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan byerilgan shikoyat davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan shikoyat olingan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan byerilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi quyidagilarga haqli:

shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirish;

davlat soliq xizmati organining shikoyatga sabab bo'lgan qarorini bekor qilish yoki o'zgartirish.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan byerilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan mazmunan qaror chiqarishga haqli.

Davlat soliq xizmati yuqori turuvchi organining shikoyat yuzasidan qarori o'ttiz kun ichida qabul qilinadi. Shikoyat byergan shaxsga qabul qilingan qaror to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida yozma shaklda ma'lum qilinadi.

Tayanch iboralar:

Soliqqa doir huquqbuzarlik, tushuncha, javobgarlik, soliq munosabatlari, qaror, harakatlar strategiyasi, shikoyat.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1 . Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik to'g'risidagi umumiy qoidalar.

2. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik.

3. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan shikoyat byerish.

4. Soliq tekshiruv materiallarining davlat soliq xizmati organi tomonidan ko'rib chiqilishi.

5. Soliq tekshiruvini o'tkazishda g'ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik.

11-BOB. SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT SOLIQ IDORALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMI

11.1. O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligi tizimiga oid ma'lumotlar tahlili;

11.2. O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligi va uni takomillashtirish yo'llari.

11.1. O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligi tizimiga oid ma'lumotlar tahlili

Soliq ma'murchiligi davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishda soliq tushumlarini rejalashtirish funksiyasini bajaradi va soliqlarning mezon kriteriy ko'rsatkichlari bo'yicha rejalashtiriladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini inobatga olingan holda soliq tushumlari, ularning tarkibiy turlari bo'yicha bashorlashtiriladi, davlat byudjetining solikli daromadlari aniqlanadi, byudjet daromadlariga nisbatan harajatlar farqi aniqlanadi, davlat byudjetidagi respublika va mahalliy byudjetlar mablablari ulushi aniqlanadi. Ushbu bashorat ko'rsatkichlarini bajarish soliq xizmati hodimlari zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklaydi, ushbu vazifalarni borgan sayin takomillashtirib, hodimlar ishini yengillashtirish soliq ma'murchiligining o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

2017-yilda davlat byudjeti va maqsadli jamarmalariga jami 42492.3 mlrd so'm tushgan bo'lib, ular quyidagilar hisobiga amalga oshirildi:

➤ Hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash hisobiga - 37493.3 mlrd so'm (88%);

➤ Boshqa majburiy to'lovlar va jarimalar hisobiga – 3066.4 mlrd. so'm (7%);

➤ Qo'shimcha manbalarni jalb etish hisobiga – 1932.7 mlrd. so'm (5%).

2017- 1932.7 . , 2014- 1634.5 . , 2014- 298.2 . Soliqlarni rejalashtirish amaliyotida juda ommalashgan rejalashtirishning usullariga

Trend va Ekspyert usuli kiradi. Jizzax shahar Davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari asosida soliqlar bo'yicha rejalashtirishning ekspyert usulini qo'llagan holda prognozlashtirish ishini to'ri amalga oshirilgan yoki yo'qligini tahlil qilishimiz uchun avvalambor, quyidagi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqishimiz lozim.

Ushbu mexanizmning qanday shakllantirilishi haqida alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, hozirda intyernetdagi www.my.soliq.uz elektron soliq xizmatlari portal orqali, ish byeruvchi o'z hodimining arizasiga muvofiq, mahalliy soliqlarni portalning maxsus "Xodimlarni mol-mulk va yer soliini to'lash" tugmasini bosish orqali byudjetga o'tkazib byerish imkoniyati yaratildi. Bunda to'lovlar avtomatik ravishda xodimning shaxsiy kartochkasiga yoziladi va qarzdor xodimlarning reestrlarini qooz shaklda soliq idorasiga taqdim etishga hojat qolmadi. Lekin, ushbu to'lovlarni o'tkazib byerish muddati belgilanmaganligi sabab, ular tomonidan o'tkazib byerish muddatini belgilash, hamda, to'lovni o'tkazib byerishni xodimlarning arizasiga muvofiq amalga oshirib kelinmoqda. Shunga o'zgartirish kiritgan holda, xodimlar bilan ishga kirish jarayonida tuziladigan mehnat shartnomasiga muvofiq xodimlarning mahalliy soliqlarga to'lovlarni o'tkazib byerishni belgilash kyerak. Buning uchun, mehnat shartnomasiga qo'shimcha band sifatida, mahalliy soliqlar uchun to'lovlar bandini va uning Davlat byudjetiga joriy yilning 1-aprelga qadar o'tkazib byerilishi to'risida ma'lumot kiritish lozim. Ushbu jarayon 4-bosqichda amalga oshiriladi:

1.Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlaridagi joriy yilning 1-yanvar holatiga ishlayotgan xodimlarining ro'yxat ma'lumotlarini 1-fevralga qadar Davlat soliq xizmati organlariga yuboradilar

2.Bunga javoban Davlat soliq xizmati hodimlari korxonalariga 1-martga qadar korxonalar xodimlarining mahalliy soliqlari bo'yicha qancha miqdorda o'tkazib byerishlari to'risidagi ma'lumotni yuboradi.

3.Ushbu ma'lumotnomaga asosan korxonalar www.my.soliq.uz elektron soliq xizmatlari portalining "Xodimlarni mol-mulk va yer sog'lig'ini to'lash" imkoniyati orqali soliqlarni to'lab byeradilar.

4.Ushbu to'lovlar korxonalar tomonidan mustaqil belgilangan tartib bo'yicha xodimning oylik maoshidan ushlab qolinadi, lekin mehnat

kodeksida belgilangan bir oylik maoshdan qilinadigan ajratmalarning maksimal normalardan oshmagan holda bo'lishi lozim.

Bu soliq undirishning yangi mexanizmini joriy qilish orqali Davlat byudjetiga jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha tushumlar o'z vaqtida kelib tushadi, hamda uchastka davlat soliq inspektorlarining mahalliy soliqlarni undirishga ketadigan vaqt tejaladi.

Soliq ma'murchiligining **soliq hisobini yuritish** funksiyasida soliq to'lovchilar sonining o'zgarishi dinamikasi, belgilangan soliq va yiimlarning o'z vaqtida byudjetga tushishi, soliq organlarining moliyaviy ahvoli tahlil qilinadi.

Soliq to'lovchilarni ro'yhatdan o'tkazish va ularni hisobini olib borish dinamikasini Respublika miqyosida tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, 2013-yilda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni 551900tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014-yilga kelib 555400 taga yetdi, 2013-yilga nisbatan 3500taga yoki 0.6%ga ko'proqni tashkil etdi. 2017-yilning 1-yanvar holatiga jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni 560500tani tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda 586800 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilga nisbatan 25600 taga yoki 4.6%ga ko'proqni tashkil etadi. Eng ko'p ro'yhatdan o'tish soni ham aynan 2017-yilda kuzatilgan bo'lib, bunga ta'sir qiluvchi omil sifatida yurtimizda tadbirkorlik subektlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ular huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini keltirishimiz mumkin.

Soliq ma'murchiligining **soliq nazorati funksiyasi** soliq to'lovchilarning soliq to'lovlaridan qochishini, bo'yin tovlashni oldini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat Soliq xizmati organlari nazorat funksiyasini Kamyeral nazorat, Naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji, Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash va boshqa nazorat turlarini amalga oshirish orqali bajaradi. Respublika bo'yicha 2017-yil davomida kamyeral nazorat o'tkazish natijasida 124.7 ming ta xo'jalik yurituvchi subektlarda soliq va moliyaviy hisobotlarni to'ldirishda kamchiliklar aniqlangan bo'lib, 2014-yilning shu davriga nisbatan qiyosiy tahlil qilinganda 40.5 ta ko'pni tashkil etgan. Kamyeral nazorat o'tkazish natijalariga asosan 2017-yilda Davlat byudjeti va

maqsadli jamarmalariga 1119.0 mlrd. so‘m yoki 2014-yilga nisbatan 380.0 mlrd. so‘m ko‘p tushum undirilgan. Ushbu summaning 656.8 mlrd. so‘mi(58.6%) Davlat byudjetiga, 462.2 mlrd. so‘mi(41.4%) Davlat maqsadli jamarmalariga to‘g‘ri keladi.

Kamyeral nazorat bo‘yicha qo‘shimcha mablalarning Davlat byudjeti va maqsadli jamarmalarga undirilishining ortishining asosiy sabablaridan biri bu Davlat soliq xizmati organlarida ishga tushirilgan “Tashqi manba” dasturiy mahsuloti orqali 53 ta idoralar bilan 112ta yo‘nalish bo‘yicha soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘risida o‘zaro axborot almashinuvi elektron aloqa vositalari deb hisoblashimiz mumkin. Ushbu ma‘lumot almashinuvi orqali 1129.0 ming ta ma‘lumotlar olinib, qo‘shimcha aniqlanayotgan soliq summalarida 66.4% bunday ma‘lumotlar salmog‘iga to‘ri keladi.

Soliq ma‘murchiligining tartibga solish funksiyasining asosiy maqsadi soliqqa oid huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining umumiy, korporativ va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarini muvofiqligini ta‘minlash hisoblanadi. Soliqlar vositasida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish soliq ma‘murchiligining muhim qismi hisoblanib, davlatning soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqaruvi va soliqlar vositasida soliq munosabatlarini rabatlantirish tizimini tartibga solinishi quyidagi omillarni nazarda tutgan holda amalga oshirilishi kyerak:

- soliqqa tortish tizimini va tuzilmasining iqtisodiyot uchun samarali shaklini ishlab chiqish;

- soliq va yiimlar muddati, miqdorini o‘zgartirish;

- soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini yaratish;

- soliqqa tortishning umumiy darajasini o‘rnatish.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning huquqbuzarliklarini oldini olish borasida amalga oshirilgan taribga solish ishlari:

- 1481 marotaba ommaviy-axborot vositalarida mavzuli chiqishlar;
- 1851 ta davra suhbatlari;
- 2215 ta seminar va ko‘rgazmalar tashkil etilgan;
- davlat soliq xizmati organlarida «Ochiq eshiklar kuni» va «Ishonch telefon» tizimi joriy etilgan;

- soliq to'lovchilardan kelib tushgan 3,2 mingta muammoli murojaatlarining 2,9 mingtasi bugungi kunda hal qilingan;
- Muammoli masalalarni hal etish uchun 31,1 mingta soliq to'lovchilarga bevosita joyiga chiqib, tushuntirish ishlari olib borilgan

11.2. O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligi va uni takomillashtirish yo'llari

Soliq ma'murchiligi va uni mamlakatimizda takomillashtirilishida xorij tajribasidan foydalanish yuqori samara byeradi, chunki soliqqa tortish xorij mamlakatlarida bir necha yildan buyon samarali qo'llanilib kelinmoqda, bu bo'yicha to'plangan tajribalar talaygina. Chunonchi soliq ma'murchiligi, soliqlarning joriy etilishi va amal qilinishida davlat tomonidan yuritilayotgan iqtisodiy va moliyaviy siyosat ushbu mamlakat islohotlarining ijobiy samara byerishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa, bizning nazarimizda, rivojlangan mamlakatlarning soliqqa tortish amaliyotidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, soliq doktrinasining ikkita modelidan bittasiga e'tibor qaratmoqda. Birinchi model umumiy soliq solishning yuqori darajasini keng ijtimoiy to'lovlar tizimi bilan uyunlashtirishni nazarda tutgan bo'lsa, ikkinchisi, soliq solishning o'rtacha darajasini va ijtimoiy ta'minot borasida jilovlovchi siyosat yuritishni nazarda tutadi.

Rivojlangan davlatlarda mahalliy byudjetlar rejalarini ishlab chiqish, muhokama etish va tasdiqlash har tomonlama chuqur tadqiq etilgan holda rasmiylashtiriladi. Mahalliy byudjetlarning harajatlar qismini rejalashtirishda munitsipal va departamentlar tomonidan tuzilgan va ijro hokimiyati ko'rib chiqib kiritgan o'zgartirishlar asosida tuzilgan smetalar bo'yicha amalga oshiriladi. Kelgusi moliya yili uchun mahalliy byudjetlar rejasi kutilayotgan daromadlar darajasida departament tomonidan taqdim etilgan smetalarni oldingi yil smetalari bilan solishtirish orqali tuziladi. Mahalliy byudjetlar rejasi muhokamadan o'tgandan so'ng, ijro hokimiyati tasdiqqa taqdim etiladi. Muhokama davrida soliq stavkalari va rejalashtirilayotgan qarzlarga doir qarorlar qabul qilinadi. Bunda mahalliy hokimiyat organlari qonun bilan

mustahkamlangan byudjet tuzish tamoyillariga qat'iy amal qilishlari lozim. Ko'pgina davlatlarda, xususan, Koreya, Gyermaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya hamda mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida markaziy organlar mahalliy byudjetlarni tartibga solishda bevosita ishtirok etib, ularning ishtiroki hududlarning iqtisodiy rivojlanishi turlicha ekanligidan kelib chiqqan holda soliq tushumlariga ta'sir etadi. Turli hududlarda aholi jon boshiga to'ri keladigan o'rtacha daromad ko'rsatkichlariga asoslangan holda, ushbu ko'rsatkichlar yuqori bo'lgan hududlarda soliq tushumlarining bir qismini markaziy hokimiyat ixtiyoriga olinib, o'rtacha daromadi kam bo'lgan hududlarga yo'naltiriladi.

Milliy soliq agentligi dastlab 1949-yilda daromad, korporativ, iste'mol soliqlari va shu kabi bir qator soliqlarni undirish maqsadida Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan. Soliq siyosati Moliya vazirligi va uning tarkibiy qismi hisoblangan Milliy soliq agentligi tomonidan yuritilib, davlat soliq xizmati idoralari ijro etuvchi organ hisoblanadi. Xizmatning tarkibiy tuzilishi Milliy soliq agentligining markaziy apparati, 12 ta hududiy boshqarmalari va ularning 524 ta soliq inspeksiyalari, Soliq kolleji hamda Soliq tribunaldan iborat.

Milliy soliq agentligining Markaziy apparatida 683 nafar (1,2 foiz), hududiy soliq boshqarmalarida 10,8 ming nafar (19,3 foiz), davlat soliq inspeksiyalarida 43,9 ming nafar (78,1 foiz), Soliq kollejida 336 nafar (0,6 foiz), Soliq arbitrajida 477 nafar (0,8 foiz) soliq xodimlari mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Hozirgi paytda Yaponiya soliq tizimida jami 56 000 nafardan ortiqroq soliq xodimlari ishlaydi. Yaponiyada jami 25 dan ortiq davlat va 30 turdan ortiq mahalliy soliqlar joriy qilingan.

Yaponiya soliq tizimini rivojlanish jarayonida soliq to'lovchilar bilan ishlash va ularga xizmatlar ko'rsatish sohasi ham mos ravishda shakllangan.

Umumdavlat soliqlarini tarib qilish va jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha Yaponiya milliy soliq agentligida 12 nafar xodim, 12 ta hududiy boshqarmalarda 65 nafar xodim, 524 ta inspeksiyalarda esa 134 nafar xodimlar ajratilgan.

Yaponiyada soliq maslahati faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. soliq maslaxatchilarining xizmatlari - pullik xizmat bo'lib, soliqlar bo'yicha

professional bilimga ega bo'lgan mutaxassislar soliq to'lovchilarga soliqqa oid barcha masalalar bo'yicha malakali maslahatlar byeradilar. Yaponiyada soliq maslaxatchilari soni 71 606 nafar bo'lib, soliq xizmati xodimlari sonidan (56 000 dan ortiq) ko'pchilikni tashkil etadi.

Yaponiyada Moliya vazirligi huzuridagi **Milliy soliq agentligi** tomonidan umumdavlat soliqlarining to'ri hisoblanishi, muddatida va to'liq byudjetga tushishini nazorat qilinishi belgilangan bo'lib, mahalliy soliqlar va yiimlarni hududiy munisipalitetlar nazorat qilishi, byudjetdan tashqari maqsadli jamarmalarning nazorati esa ushbu jamarmalarni yiish bilan shuullanuvchi idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Umumdavlat soliqlarni majburiy undirish bo'yicha vazifalar to'liq soliq organlariga yuklatilgan. Bunda o'z muddatida to'lanmagan soliqlar aniqlangandan so'ng 50 kun muddat ichida talabnoma jo'natiladi.

Soliqlar bo'yicha qarzdorlik 10 kun muddat ichida bartaraf etilmagan taqdirda, soliq to'lovchining mol-mulki inventarizastiya qilinib, xatlanishi hamda sotuvga qo'yilishi orqali soliq qarzini qoplanishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, 10 mln. engacha soliq qarzi mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarga doimiy ravishda telefon tarmoqi orqali ogohlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, buning uchun barcha (12 ta) soliq boshqarmalarida **«Soliq qarzdorliklarini undirish bo'yicha intensiv telefon qo'ng'iroqlari»** Markazi tashkil etilgan.

10 mln. engacha qarzdorliklar telefon Markazi tomonidan, 10 mln. endan 30 mln. engacha qarzdorliklar hududiy soliq inspeksiyalari tomonidan va 30 mln. endan yuqori bo'lgan qarzdorliklar esa soliq boshqarmalari tomonidan undiriladi.

Shuni qayd etish lozimki, «Soliq qarzdorliklarini undirish bo'yicha intensiv telefon qo'ng'iroqlari» Markazi tomonidan 10 mln. engacha bo'lgan qarzdorliklarning undirilish darajasi 68 foizni tashkil etadi. Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga yillik 14,7 foiz penya (ya'ni kuniga taxminan 0,04 foiz) hisoblanadi. Soliq qarzi paydo bo'lgan kundan boshlab dastlabki 2 oy ichida penyaning maxsus stavkasi (yillik 4,3 foiz, ya'ni kuniga taxminan 0,01 foiz) qo'llaniladi.

Soliq to'lovchi qonun bilan belgilangan muddatdan kechikib soliq to'lovini amalga oshirganda quyidagi moliyaviy choralar ko'riladi:

- dastlabki kechiktirilgan 2 oy uchun 4,5 % yillik miqdorda (foiz stavkalari bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqib har yili o'zgartiriladi),

- 2 oydan oshgan qismiga 14,6 % yillik foiz miqdorida

Davlat byudjetining asosiy qismini to'ri soliqlar jumladan yuridik va jismoniy shaxslardan daromad solii tashkil qiladi. Bu soliqlar byudjetning 60 foiz atrofidagi salmoini tashkil qiladi.

Jismoniy shaxslar davlat daromad soliini progressiv shkalada to'laydilar. Bu shkala 5 ta soliq stavkasidan iborat. Shu bilan bir qatorda 3 stavkali prefektura daromad solii mavjud. Buning ustiga qo'shimcha har bir fuqaro daromad manbaining hajmidan qat'iy nazar 3200 en miqdorida soliq to'laydilar.

Soliq to'lash hajmi har bir soliq to'lovchining soliq yilida 1 yanvardan 31 dekabrgacha davrda olingan daromadlari hajmidan kelib chiqadi.

Daromad solii to'lovchi shaxslar 2 asosiy guruhga bo'linadi.

- tadbirkorlik faoliyatidan daromad oluvchilar;

- boshqa turdagi foliyat turlaridan daromad oluvchilar.


Birinchi guruhga savdo-sanoat sohasidagi tadbirkorlar, fyermyerlar, doktorlar, advokatlar kiradi. Bular o'z navbatida tijorat, qishloq xo'jalik va boshqa daromad oluvchilarga bo'linadi. Bir qarashda to'ri daromad solii juda yuqoridek ko'rinadi lekin shuni hisobga olish kyerakki daromad soliidan katta miqdorda imtiyozlar va chegirmalar mavjud. O'rtacha daromad oluvchi soliq to'lovchi 30 foiz atrofida soliqlardan ozod qilinadi yoki unga imtiyozlar byeriladi.

Doimiy ish joylariga ega bo'lgan shaxslardan Deklaratsiyalardan tashqari oylik o'rtacha ish haqi miqdoridan daromad solii ushlab boriladi va yil yakuni bilan o'zaro hisob-kitob amalga oshiriladi.

Soliq yili davomida soliq organlari Deklaratsiyalarni to'ri va belgilangan muddatida taqdim qilish borasida seminarlar, uchrashuvlar o'tkazadi.

2017-yil 1-yanvardan boshlab Gyermaniya va EI mamlakatlarida QQS stavkasini "digital syervice" ya'ni raqamli xizmatlar(kino, musiqalarni yuklab olish, online o'yinlar, e-kitob,e-mail, intyernet radio va raqamli tv xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar) ko'rsatishni iste'molchilarga taklif qiluvchilarga qo'llash bo'yicha o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra, endilikda agar EI ga a'zo mamlakat sotuvchisi tomonidan boshqa bir EI ga a'zo mamlakatga tovar, ish va xizmatlar realizastiya qilinsa, **haridor qaysi**

mamlakat fuqarosiligiga qarab, o‘sha davlatning QQS stavkasida soliqni to‘lab byeradi. Ya’ni QQS stavkasi Gyermaniyada 19%, Buyuk Britaniyada 20%. Buyuk Britaniyalik sotuvchi Gyermaniyalik haridorga tovar sotdi, haridor QQS soliini 19%lik stavkada to‘laydi va bu to‘langan summa Gyermaniya davlat byudjetiga borib tushadi. Bu o‘zgarish EIga a’zo bo‘lmagan davlatlarga, hamda B2B(Business to business) ya’ni korporatsiyalar o‘rtasida tovar ayirboshlashga taaluqli emas.



14.1-rasm. Yevropa ittifoqidagi ayrim davlatlarning QQS stavkasi¹³

Asosiy oziq ovqat tovarlari, shuningdek, kitob jurnal mahsulotlariga pasaytirilgan QQS stavkasi 7% qo‘llaniladi. Gyermaniya hukumati 2017-yil 1-yanvardan boshlab elektron kitoblarga ham pasaytirilgan QQS stavkani qo‘llanilishini e’lon qildi va amalga joriy qildi. Pasaytirilgan stavkani qo‘llash quyidagilarga ham tadbiq qilinmaydi:


- YOshlar uchun xavfli hisoblangan electron kitoblarga;
- “Youth Protection Act” - YOshlarni himoya qilish nizom qoidalariga zid kelsa;
- Audio gazeta, audio jurnal va o‘yinlarga.

Koreya, AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Gyermaniyada hududlar ixtiyoriga kelib tushadigan mahalliy soliqlar boshqa bir qator rivojlangan

¹³ Manba: www.hrblock.com сайти маълумотлари

davlatlardan farqli ravishda, mustaqil belgilanishi bilan harakterlidir. AQSH va boshqa bir qator arb davlatlari hududlarining moliyaviy resurslarini turli guruhlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruhni ushbu hududlarning o'ziga tegishli hamda biriktirilgan va shu hududdan undiriladigan soliqlar sifatidagi moliyaviy resurslar tashkil etib, ular bevosita va bilvosita soliqlardan iboratdir. Bevosita soliqlarni mulk solii, yer solii (hunarmandchilik), tadbirkorlik va myeros soliqlari tashkil esta, bilvosita soliqlarni esa, savdo-sotiq solii va o'ziga xos aksizlar tashkil etadi. Ikkinchi guruhni bizning respublikamizdagidek umumdavlat soliqlaridan mahalliy hududlarga muayyan foiz miqdorida biriktirilib byeriladigan soliqlarga o'xshash moliyaviy resurslar tashkil etadi. Respublikamiz byudjet tizimida bo'lgani kabi yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga subsidiyalar ajratish boshqa bir qator davlatlarda, xususan, AQSH moliya tizimiga ham xos xususiyatdir. Chunonchi, Vashington mahalliy byudjetining 84%i biriktirilgan moliyaviy resurslar hisobiga shakllansa, qolgan 16%ini fedyerall byudjetdan ajratilgan subsidiyalar tashkil etadi. AQSHda ham xuddi bizning respublikamizdagi singari hukumat subsidiya, subvensiya va dotastiyalarni yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga ajratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etib turadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonida AQSHdagi eng muhim va boshqalardan, xususan, respublikamizdan farq qiluvchi jihatlaridan biri, u yoki bu soliq turining hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarining qo'llanilishi hamda ayrim soliqlarning ba'zi hududlarda amal qilishi va boshqa hududlarda esa amal qilmasligidir. Masalan, hududlarning asosiy moliyaviy resurslaridan biri hisoblangan savdo-sotiq solii ayrim hududlar uchun 6% stavkada undirilsa, boshqasida 1% miqdorida undiriladi. Bundan tashqari, iqtisodiy (ishbilarmonlik) faollik solii shuningdek, ayrim hududlarda, xususan, Alyaska, Delavyer, Nyu-Jyersi shtatlarida amal qilmasa-da, boshqa hududlarda esa, mahalliy hokimiyatlar (shtatlar) tomonidan belgilagan stavkalar bo'yicha undiriladi.



14.2-rasm. AQSHdagi sotishdan olinadigan soliqning stavkalari¹⁴

Qayd etish joizki, mulk solii AQSHda hudud mahalliy byudjetlarining moliyaviy resurslari shakllanishida katta salmoqni egallaydi. Masalan, Nyu-YORK shtati mahalliy byudjetida ushbu soliq hisobiga jami moliyaviy resurslarning 40% ga yaqini shakllanadi. O‘z navbatida, bu soliq turi ham barcha hududlar uchun bir xil tartibda belgilanmagan. AQSHda mulk soliining o‘rtacha stavkasi 1,4% foizni tashkil esta-da, bu Illinoys shtatida uning amal qilish stavkasi 6,4%ga tengdir. Bundan tashqari, AQSHda hududlarning moliyaviy resurslari ayrim turdagi mahsulotlarni sotish uchun litsenziyalar, uy hayvonlarini saqlash uchun ruxsatnomalar va shu kabilardan tushgan yiimlardan ham shakllanadi¹⁵.

O‘zbekistondagi mahalliy soliqlar tizimini rivojlangan davlatlardagi mahalliy soliqlar bilan taqqoslagan holda, Respublikamizda ushbu soliq tizimining hozirgi rivoji, uni yanada rivojlantirish bo‘yicha jahon tajribasidan foydalanish masalalari haqida umumiy xulosalar qilish mumkin.

Masalan, Janubiy Koreyada mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy manbai bo‘lib ko‘chmas mulklar: yer, uy-joy, do‘konlar, zavod va fabrikalardan undiriladigan soliqlar hisoblanadi. Bularga tegishli bo‘lgan

¹⁴ манба: www.ИРС.gov AQSHning Ички даромадлар тизими расмий сайтининг маълумотлари

¹⁵ Романовский М., Врублевский О. Налоги и налогообложение. - СПб.: Питер, 2007. -68с.

mulk qiymati muntazam qayta baholanib boriladi. Ushbu tadbirlar daromadlar boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliqqa tortish maqsadida o'zgaruvchan inflyatsion sharoitda mulkni muntazam qayta baholab borish O'zbekiston soliq tizimi uchun ham foydadan holi emas. Shuningdek, soliqqa tortish maqsadida mulkni qayta baholash organlarini soliq xizmati organlari qoshida tashkil etish, bizningcha, maqsadga muvofiqdir.

Koreyada mulk solii mahalliy soliq sifatida asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, turli xil mahalliy soliq turlari ham mavjud. Har bir shtatda turli xil soliq turlarini uchratish mumkin. AQSH va Buyuk Britaniyada ham mahalliy hokimiyat organlari mustaqil ravishda soliqlar joriy qilish huquqiga egadir. Ushbu tajribani respublikamiz soliq tizimida ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, bunday huquqni byerish mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligini va manfaatdorligini oshirib, hududda mavjud moliyaviy imkoniyatlarni kelib chiqib soliq stavkasi belgilansa, ulardan samarali foydalanishni rabatlantirgan bo'lar edi.

AQSH va Yaponiya davlatlari soliq ma'murchiligi tizimida yana shunday tizim yaratilganki, ular soliq to'lovchilarni soliqqa oid bilimlarini oshirish borasida hamda ularga ko'makchi vazifasini bajrish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, uning nomi "Tax Answyer" deb nomlanadi, soliqqa oid savollarga javoblar. Ushbu tizim orqali, soliq to'lovchilar o'zlari qiziqtirgan har qanday soliqqa oid savollarga, hech qayerga bormasdan uylaridan intyernet tarmoiga ulangan holda to'g'ri va ishonchli javobni olishadi. Ushbu tizimni O'zbekiston Respublikasining soliq maomurchiligi tizimiga joriy etish orqali soliq to'lovchilarga qulay imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda, soliq xizmati hodimlarining soliq to'lovchilar ma'lumot so'rab kelgan vaqtda ularga javob byerishga ketadigan vaqt tejalishi hisobiga, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni yanda samarali bajarishga qo'shimcha vaqt paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda turli sohalar kabi soliq sohasida ham turli xil o'zgarishlar, takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Lekin, ushbu takomillashtirish ishlari butun dunyo rivojlanib, kundan-

kunga o'zgarib borayotganligi sabab, bir joyda to'xtab qolishi aslo mumkin emas. Shu boisdan, Respublikamiz soliq ma'murchiligi tizimini isloh etib borish Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jumladan Davlat soliq xizmati organlarining zimmasiga yuklangan vazifalardan biri hisoblanadi.

Soliq islohotlari o'tkazilishiga bo'lgan zamonaviy omillardan biri yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatidagi soliqqa tortiladigan obyektlarni nazorat qilinishining susayganligidir. Buning asosiy sabibi birinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati to'risida ma'lumotlar olish tizimining yetarlicha takomillashmagani bo'lsa, ikkinchidan, soliq to'lovchilarning xufyona daromad olishini nazorat qilish vakolati zimmasiga yuklangan davlat tashkilotlarining huquqiy ma'suliyati sunoiy ravishda ularning qonuniy majburiyatlariga zid holda pasayib ketgan.

Xo'jalik subyektlari faoliyatining davlat nazorati susaygan sari soliq to'lovlaridan bo'yin tovlash miqyoslari kengayib bormoqda, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorlik miqdori oshib borishi baozi holatlarda kuzatilmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish davriga xos bunday holatlarda soliq ma'murchiligi tizimida ham o'ziga xos o'zgartirishlar kiritish lozim. Bunday sharoitda aniq maqsadga qaratilgan soliq mexanizmi ishlab chiqish davlat ijtimoiy siyosatining huquqiy asosini tashkil etadi.

Shu sabab, Davlat soliq qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi PQ-1843-son "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'risida"gi qaroriga asosan Mobil aloqa xizmatini ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishlari lozim. Hamkorlikka asosan, Mobil aloqa xizmatini ko'rsatuvchi kompaniyalar davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi sabab, shuningdek ular bilan mobil aloqa vositalari orqali muomalaga kirishish maqsadida ularda ro'yhatda turuvchi abonentlarining uyali aloqa nomyerlari to'risidagi axborotlarni elektron shaklda taqdim etish lozim bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarning sir

saqlanishiga javobgarlik davlat soliq xizmati organlari zimmasiga yuklatiladi.

Yuqorida keltirilgan taklifni inobatga olgan holda, O‘zbekiston soliq tizimini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilor tajribalar mavjud. Masalan, Yaponiya soliq maomurchilgi tizimidagi barcha 12ta soliq boshqarmalarida 2002-2004-yillarda **“Soliq qarzdorliklarini undirish bo‘yicha intensiv telefon qo‘niroqlari”** Markazi tashkil etilgan bo‘lib, 10 mln. engacha soliq qarzi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarga doimiy ravishda telefon tarmoqi orqali ogohlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. 10 mln. engacha qarzdorliklar telefon Markazi tomonidan, 10 mln. endan 30 mln. engacha qarzdorliklar hududiy soliq inspeksiyalari tomonidan va 30 mln. endan yuqori bo‘lgan qarzdorliklar esa soliq boshqarmalari tomonidan undiriladi.

Shuni qayd etish lozimki, **“Soliq qarzdorliklarini undirish bo‘yicha intensiv telefon qo‘niroqlari”** Markazi tomonidan 10 mln. engacha bo‘lgan qarzdorliklarning undirilish darajasi 68 foizni tashkil etadi. Agarda ushbu markazni bizning respublikamizdagi davlat soliq idoralarida ham tashkil etilsa, soliqlarni undirish borasida yangicha usul joriy qilinadi va soliq qarzdorliklarini kamaytirishga yerishiladi. Ushbu Markazni tashkil qilish uchun mobil aloqa kompaniyalari bilan hamkorlik davlat soliq xizmati organlariga ko‘mak vazifasini o‘taydi.

Endi Gyermaniya va Evropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, 2017-yil 1-yanvardan boshlab Gyermaniya va EI mamlakatlarida QQS stavkasini “digital syervice” yaoni raqamli xizmatlar(kino, musiqalarni yuklab olish, online o‘yinlar, e-kitob, e-mail, intyernet radio va raqamli tv xizmatlari va shunga o‘xshash boshqa xizmatlar) ko‘rsatishni isteomolchilarga taklif qiluvchilarga qo‘llash bo‘yicha o‘zgartirish kiritildi. Unga ko‘ra, endilikda agar EI ga aozo mamlakat sotuvchisi tomonidan boshqa bir EI ga aozo mamlakatga ushbu turdagi tovar, ish va xizmatlar realizastiya qilinsa, **haridor qaysi mamlakat fuqaroligiga qarab, o‘sha davlatning QQS stavkasida soliqni to‘lab byeradi.** YAoni QQS stavkasi Gyermaniyada 19%, Buyuk Britaniyada 20%. Buyuk Britaniyalik sotuvchi Gyermaniyalik haridorga tovar sotdi, haridor QQS solini 19%lik stavkada to‘laydi va bu to‘langan

summa Gyermaniya davlat byudjetiga borib tushadi. Bu o'zgarish EIga aozo bo'lmagan davlatlarga, hamda B2B(Business to business) yaoni korporatsiyalar o'rtasida tovar ayirboshlashga ta'aluqli emas. Balki, ushbu soliq tizimidagi o'zgarishni Shanxay hamkorlik tashkilotiga aozo davlatlar o'rtasida tovar va xizmatlar ko'rsatishning turli yo'nalishlari bo'yicha joriy qilinsa, investisiya va eksportni rag'batlantirishga qo'yilgan qadam bo'lishi mumkin.

AQSH va Yaponiya davlatlari soliq ma'murchiligi tizimida yana shunday tizim yaratilganki, ular soliq to'lovchilarni soliqqa oid bilimlarini oshirish borasida hamda ularga ko'makchi vazifasini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, uning nomi "Tax Answyer" deb nomlanadi yaoni soliqqa oid savollarga javoblar. Yaponiya soliq tizimini rivojlanish jarayonida soliq to'lovchilar bilan ishlash va ularga xizmatlar ko'rsatish sohasi ham mos ravishda shakllangan. Umumdavlat soliqlarini tarib qilish va jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha Yaponiya milliy soliq agentligida 12 nafar xodim, 12 ta hududiy boshqarmalarda 65 nafar xodim, 524 ta inspeksiyalarda esa 134 nafar xodimlar ajratilgan. "Tax Answyer" tizimi orqali, soliq to'lovchilar o'zlari qiziqtirgan har qanday soliqqa oid savollarga, hech qayerga bormasdan uylaridan intyernet tarmoiga ulangan holda to'ri va ishonchli javobni olishadi. Ushbu tizimni O'zbekiston Respublikasining soliq maomurchiligi tizimiga joriy etish orqali soliq to'lovchilarga qulay imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda, soliq xizmati hodimlarining soliq to'lovchilar ma'lumot so'rab kelgan vaqtda ularga javob byerishga ketadigan vaqt tejalishi hisobiga, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni yanda samarali bajarishga qo'shimcha vaqt paydo bo'ladi.

Tayanch iboralar:

soliq tizimi, tushuncha, tamoyil, soliq munosabatlari, boshqarish, harakatlar strategiyasi, soliq siyosati, davlat soliq xizmati organlari, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq ma'murchiligi, soliq hisobotlari.

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Soliq ma'murchiligi va soliq nazoratini amalga oshirishda DSX organlarining vazifalari.

2. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati va uni asosiy yo'nalishlari.

3. O'zbekiston Respublikasi soliq va byudjet tizimining o'zaro bog'liqligi.

4. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

5. Umumdavlat soliqlarini mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlashning amal qilish mexanizmi.

6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Soliq mahmuriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi", 2017-yil 30-dekabr, O'RQ-455-son bilan Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar haqida nimalarni bilasiz?

12-BOB . SOLIQ MA'MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

12.1. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o'ziga xos jihatlari;

12.2. Yaponiya soliq ma'murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to'lovchilar bilan ishlash tajribasi;

12.3. Rossiya Fedyeratsiyasi soliq tizimi va uning konseptual asoslari;

12.4. Xitoy soliq tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

12.1. Yaponiya davlatining tizimi va soliq siyosatining o'ziga xos jihatlari

Yaponiya davlati soliq tizimi haqida to'xtaladigan bo'lsak, 2017-yil moliya yili Fiskal konsolidatsiyalashgan rejaning ikkinchi yilini belgilaydi. Undagi byudjetda hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish va fiskal konsolidastiyalashtirishni davom ettiradi.

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida:

-Jamiyatdagi fuqarolarga yaxshi hayot tarzi yaratish maqsadidagi siyosatlar: a) bola parvarishlovchilarning va uzoq muddatli hamshiralarning oylik maoshini oshirish; b) bola parvarishi imkoniyatlarini kengaytirish ya'ni kutish ro'yxatidagi bolalar sonini kamaytirish; d) minimum pensiya olish davrini 25 yildan 10 yilga qisqartirish; e) ayollar uchun bola tug'ish davri daromadining olib turish vaqtini uzaytirish; f) ishchilar sug'urta to'lovlarini kamaytirish va g) yangi davlat ta'lim grantlarini joriy qilish

-iqtisodiyotni rivojlantirishda. Xususiy va jamoat sohalari uyg'unlashuvi potensial o'sishiga e'tibor qaratish; ilmiy tadqiqot harajatlarini oshirish; innovatsiya va yangi texnologik ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash va foydali sohalarda jamoat investitsiyalarini oshirish.

-ishlash sharoiti reformlari. Ish haqqini oshirish uchun moliyaviy yordamlarni ta'minlash, doimiy ta'tillarni joriy qilish va doimiy bo'lmagan ishchilar uchun ish sharoitlarini oshirish

2. Fiskal konsolidatsiyalash siyosati.

- ijtimoiy himoya tizimini sog'lomlashtirish. Ijtimoiy himoya harajatlarining o'sishini nazorat qilish (+ 500 milliard en). Adolatli soliq yuki va maqbul imtiyozlarga yerishish uchun turli xil reformlar tashkil qilish. Bular orasida: 1) 70 yoshdan oshganlar uchun yuqori tibbiyot va parvarish harajatlariga limitlarni muntazam oshirib boorish; 2) 75 yoshdan oshgan qariyalar uchun tibbiyot sug'urtasi to'lovlaridagi vaqtincha discount stavkalarini hisobga olish va 3)uzoq muddatli hamshira to'lov tizimiga asoslangan yangi hioblashni joriy qilish

- davlat obligastiyalari bo'yicha. Davlat obligastiyalari bo'yicha rejalashtirilgan ko'rsatkichga (34,4 trilion en) amal qilish

Bundan tashqari Yaponiya davlatida soliq sohasidagi islohotlarga katta e'tobor qaratiladi. Hamda jamiyatda soliq madaniyati yuqori bo'lish bilan bir qatorda har bir fuqaroning soliqlani o'z vaqtida to'lash majburiyati qonuniy belgilab qo'yilgan. Jumladan, Yaponiya Konstitustiyasining 30-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilab qo'yilgan soliqlarni to'lashga majburdir", 84-moddasida esa "Qonun va unga tenglashtirilgan hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlar asosida yangi soliqlar joriy qilinmaydi va undirilmaydi" kabi moddalar kiritingan.

Shu o'rinda, Yaponiya davlatining soliq tizimini nazariy o'rganishni mamlakatda qanday turdagi soliqlar mavjudligiga oydinlik kiritib olishdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada jami bo'lib, 46 ta soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undiriladi. Ulardan 20 tasi umumdavlat soliqlari, 14 tasi mahalliy soliqlar bunda ular prefektura doirasida undiriladi. Qolgan 12 tasi shahar, tuman va qishloq doirasidagi mahalliy soliqlar.(shuni ta'kidlash lozimki, Mamlakatda 47 prefektura bo'lib, u o'z ichiga 3045 shaharlar, tumanlar va qishloqlar jamlagan hamda ularning hammasi mahalliy byudjetga ega).

Yaponiya soliq tizimini o'rganish jarayonida biz uchun notanish hisoblanuvchi pyerfektura va munitsipal tushunchalariga duch kelamiz.

Pyerefekruta deganda yirik hudud nazarda tutilib, O'zbekiston misolida olib qaralganda viloyatga to'g'ri keladi. Bu degani Yaponiyada prefekturalar munisipallardan tashkil topadi. Munistipallat o'z navbatida tuman munitsipallari, shahar munitsipallari va qishloq munitsipallariga ajraladi. Bir munitsipal shaklidan boshqasiga o'tish uchun me'zon aholi soni hisoblanadi, ya'ni agar qishloq munitsipal deyilganda aholi soni 50 mingdan kam bo'lgan prefekturaga bo'sunuvchi hududiy birlik nazarda tutiladi. Qizig'i shundaki, poytaxt Tokio shahri ham 23 ta munitsipaldan tashkil topgan.

Shu o'rinda Yaponiya davlat byudjetida asosiy o'rinda turuvchi soliqlar haqida ma'lumot byerib o'tmoqchi edik.

1. Korxonalar foydasidasidan olindigan soliqlar.

Yaponiyada korxonalar foydasiga qaratilgan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- korporatsiya solig'i (umumdavlat solig'i)
- biznes solig'i (mahalliy soliq)
- pyerfektura va munitsipal ro'yxatda turganlik uchun soliqlar

Shuni eslatib o'tish kyerakki, kichik va o'rta korxonalar ustav kapitali 100 mln. eng teng va undan kam korxonalar kiradi. Quyidagilar bundan mustasno, agar:

- Ustav kapitalning 100 foizi katta korxonalar tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa (bunday katta korxonalar ustav kapitali 500 mln endan yuqori bo'lgan korxonalar kiradi).
- Ustav kapitalning 100 foizi ikki va undan ortiq katta korxonalar tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa.

Biznes solig'i odatda soliq bazasiga ega bo'lgan korxonalarda, ya'ni foyda olgan korxonalar undiriladi. Ammo korxonaning ustav kapitali 100 mln endan yuqori korxonalar ham undirilishi mumkin. Suv, elektr enyergiya ta'minotini ko'rsatuvchi korxonalar va sug'urta tashkilotlari olgan foydasidan emas belgilangan tushum doirasida to'laydilar. Biznes solig'ining stavkasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Perfektura va munitsipal ro'yxatda turganlik uchun soliqlar ikki turdagi mahlliy soliqlardan tashkil topgan: milliy korporatsiya daromadi

asosida hisoblanadigan foyda solig'i va mahalliy korporatsiya solig'i. Maxsus stavkalar mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Korporatsiya solig'idan undiriladigan ro'yxatda turganlik uchun soliq milliy hukumat tomonidan mahalliy korporatsiya so'lig'I sifatida undiriladi ya'ni, 2014-yil oktyabrdagi soliq islohotidan keyin moliya yili uchun qishloq va shahar byudjeti o'rtasidagi tafovutni kamatirish uchun qo'llaniladi, hamda uning stavkalarii quyidagicha.

Undirilgan soliq stavkalardan kelib chiqib prefektura yoki municipal byudjetga taqsimlanadi. Bundan tashqari, mahalliy korporatsiya solig'ining stavkasi 2014 -yil soliq islohotidan keyin barcha korxonalar uchun 4.4% qilib belgilandi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadiga solinadigan soliqlar

Yaponiyada Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadiga solinadigan soliqlar milliy daromad soliq hamda mahlliy ro'yxatda turganlik uchun soliqdan iborat. Milliy daromad solig'i uchun soliq solinadigan yil kaledar til hisoblanadi. Mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliq munitsipal hokimiyat tomonidan o'sha hududda yashavchi va daromad oluvchi jismoniy shaxslarga qo'llaniladi.

Yaponiyada shaxslarni soliq majburiyati ularning rezidentlik statusidan kelib chiqib belgilanadi. Jismoniy shaxslar quyidagi 3 ta kategoriya bo'yicha klasifikatsiyalanadi:

-Doimiy rezidentlar. Ularga Yaponiya millati vakili yoki 10 yil davr mobaynida hech bo'lmasa 5 yili davomida Yaponiyada bo'lgan norezidentlar kiradi.

-Doimiy bo'lmagan norezidentlarga Yaponiya millati vakili bo'lmagan oxirgi 10 yil ichida 5 yildan kam Yaponiyada yashagan shaxslar kiradi.

-Yuqoridagi talablarga javob byermaydigan shaxslar norezidentlar hisoblanadi¹⁶.

Chet el millati vakili Yaponiyaga kelishi bilan o'z ish byeruvchisi bilan aniqlishtirilgan holda shartnoma tuzmasa, ya'ni bir yildan kam muddatda mamalakatda bo'lishi haqida, resident jismoniy shaxs

¹⁶ Worldwide PyyersonalTax and Immigration Guide 2016–17

hisoblanadi. Bundan tashqari davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama soliqqa tortmaslik kabi xalqaro sharnomalardam kelib chiqib, quyidagi talablarga javob byeruvchi norezidentlarning daromadi soliqqa tortilmaydi:

- 12 oy ketma-ketlik ichida 183 kundan kam myddatda Yaponiyada yashaganlar;
- Ularning oylik maoshlari norezident tomonidan to'langan bo'lsa;
- Byerilgan maosh Yaponiyadagi doimiy muassasa tomonidan byerilmagan bo'lsa¹⁷;

Doimiy rezidentlar ularning chetda topgan daromadlari bilan manbasidan qat'iy nazar soliqqa tortiladi. Doimiy bo'lmagan rezidentlar esa faqat Yaponiyada topgan va mamlakatda bo'lmagan mambalardan to'langan hamda Yaponiyaga qaytarilgan daromadlari yuzasidan soliqqa tortiladi. Norezidentlar esa faqat yaponiyada topgan daromadlari doirasida soliqqa tortiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada milliy daromad solig'ining stavkasi progressive stavka hisoblanadi, ya'ni eng kam stavkasi 5% ni tashkil qilib yil davomida olingan daromadning 1950 000 eni ushbu stavkaga tortiladi, eng yuqori stavkasi 45% ga teng va 40 mlndan yuqori daromadlar ushbu stavkada soliqqa tortiladi. Bundan tashqari, har yili chegirilishi mumkin bo'lgan daromad miqdori keltiriladi, ushbu harajatlarga asosan tibbiy harajatlar kiradi.

Mahalliy ro'yxatda turganlik uchun soliq ham o'z navbatida ikki ko'rinishda undiriladi: birinchisi, daromadidan qat'iy nazay belgilangan summada ya'ni minitsipal darajada 300 en prefektura darajasida 1000 en miqdorida. Ikkinchisi, proporsional tartibda 10% stavkada.

3. Bilvosita soliqlar. Yaponiyada ushbu tartibda undiriladigan soliqlarga iste'mol solig'i, bojxona bojlari va aksiz bojlari kiradi.

Iste'mol solig'ida soliq solindigan baza mamlakat ichidagi o'tkazmalar uchun sharttnomalar qiymatidan kelib chiqib aniqlansa, import qilinayotgan tovarlar uchun soliq bazasi tovarning bojxona bahosi hamda bojxona bojlari va aksiz bojlarini qo'shib hisoblanadi. Soliq stavkasi 2015- yil oktyabrdagi soliq islohotlaridan keyin 8%dan 10%ga

¹⁷ Taxation in japan 2015 -KPMG Taxcorporation

oshirildi. Ushbu stavka 2017-yil 1-aprelgacha qilib belgilangan edi, ammo mamlakatdagi iqtisodiy holatdan kelib chiqib 10%lik soliq stavkasini 18 oyga kechiktirildi.

Bojxona bojlari Yaponiyada Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan belgilangan normalar asosida tartibga solinadi. Bundan tashqari, Yaponiyada har 3-5 yilda bojxonadan tovar olib kiruvchi importorlar bojxona auditidan o'tkaziladi, qonunbuzarlik holatlari aniqlangan holatlar bundan mustasno. Bojxona auditi odatda, bojxona inspektorlari tomonidan o'tkaziladi. Bunda ular tekshiruv o'tkazish uchun tanlangan vimpotor yoki eksportordan bojxonaga oid dalolatnomalarni, yuk xalarini va boshqa hujjatlarni talab qilib olish huqqiga ega. Odatda buday tekshiruv 2 oydan 6 oygacha davom etadi. Tekshiruv natijasida aniqlangan deklaratsiyaga kiritilmagan tovarga 15%, bojxona boji vaqtida to'lanmaganlariga esa 10% jarima qo'llaniladi.

Mol-mulk solig'i.

Yaponiyada mol-mulk solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar bir xil stavka bo'yicha to'laydilar. Odatda bu mol-mulk qiymatidan 1.4 % ga teng bo'ladi, uch yilda bir marta qayta baholanadi. Soliq solish obyektiga butun ko'chmas mulk, bank depozitlari bo'yicha foizlari kiradi. Shu bilan birga mol-mulk solig'i mulkning bir egadoridan boshqasiga o'tayotgan paytidan, ya'ni mulkni harid qilish va sotish paytida ham to'lanadi¹⁸.

Myeros solig'i va hadya solig'i.

Yaponiya myeros va hadya soliqlari Soliq Qonuni bilan tartibga solinadi. Myeros solig'i myerosni qabul qilib olgan va vafot etgan shaxsning myerosxo'ridan undiriladi. Hadya solig'i moddiy ko'rinishda sovg'a qabul qilib olgan shaxslardan undiriladi. Hadya solig'i myeros solig'ini to'ldiruvchi soliq hisoblanadi. Ikkala soliq ham umumdavalat solig'i hisoblanadi va mahalliy darajada undirilmaydi. Myeros solig'ida vorisning o'zi soliqqa tortiladi, uning myeros tariqasida olgan mulki emas. Myeros solig'i mulkning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda har bir myerosxo'r uchun alohida-alohida hisoblanadi¹⁹.

Soliqni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- Barcha myerosxo'rlardan soliqqa tortiladigan mulk mukllar jamlanadi.

- "Jami soliqqa tortiladigan mulkning qiymatidan" chigirilishi lozim bo'lgan ¥30 million hamda har bir myeros oluvchining sonidan kelib chiqib, har biridan ¥6 milliondan chegiriladi.

- Soliqqa tortiladigan mulk qilyamati har bir soliq to'lovchining mulkka bo'lgan qismi doirasida taqsimlanadi

- Quyida byerilgan progressive stavka bo'yicha har bir soliq to'lovchining ulushi doirasida alohida-alohida myeros solig'i hisoblanadi.

Misol. Yaponiya bir kishi o'limidan oldi xotini va ikki o'g'liga 400 mln enlik myerosni qoldirdi. Bunda xotiniga 200 mln. en yoki myerosning 50%i, o'g'illariga 100 mln endan. Myeros oluvchilar uchun myeros solig'ini hisoblaymiz:

1. Ruxsat etilgan summani umumiy soliq obektidan chegiramiz, ya'ni $30 \text{ mln} + 6 \text{ mln} * 3$ (myeros oluvchi shaxs uchu nafar bo'lganligi uchun), jami 48 mln en bo'ladi.

2. 48 mln enni myeros summasining nisbatidan kelib chiqib har bir myeros oluvchidan chegiriladi, ya'ni ayoldan 24 mln en o'g'illaridan 12 mln endan.

3. Har biri uchun myeros solig'i hioblaymiz.

Xotiniga: $200 - 24 = 176$ $176 * 40\% = 70.4$ mln en

Birinchi o'g'liga: $100 - 12 = 88$ $88 * 30\% = 26.4$ mln en

Ikkinchi o'g'liga: $100 - 12 = 88$ $88 * 30\% = 26.4$ mln en

Jami to'lanishi kyerak bo'lgan myeros solig'i summasi: 123.2 mln eng teng.

Hadya solig'i hadya oluvchidan hadya byergan shaxs hayotlik vaqtida undiriladi. Hadya solig'ining soliq solinadigan bazasi deyilganda ruxsat etilgan 1.1 mln. enni chiqrib tashlangandan so'ng kalendar yil davomida olingan sovg'alar qiymatidan kelib ciqib hisoblanadi. Hadya solig'i bo'yicha soliq stavkalari yaqin qarindoshlar o'rtasida byeriladigan sovg'a bilan begona shaxslar bir-biriga byeradigan hadyalar bo'yicha farqlanadi. Ushbu soliq turi bo'yicha eng past stavka 10% 2 million

engacha bo‘gan hadyalar uchun, eng yuqorisi 55% bo‘lib, 45 milliondan yuqori bo‘lgan soliq bazasiga tadqib etiladi.

12.2. Yaponiya soliq ma‘murchiligi tarkibiy tuzilishi va soliq to‘lovchilar bilan ishlash tajribasi

Milliy soliq agentligi dastlab 1949-yilda daromad, korporativ, iste‘mol soliqlari va shu kabi bir qator soliqlarni undirish maqsadida Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan.

Soliq siyosati Moliya vazirligi va uning tarkibiy qismi hisoblangan Milliy soliq agentligi tomonidan yuritilib, davlat soliq xizmati idoralari ijro etuvchi organ hisoblanadi.

Xizmatning tarkibiy tuzilishi Milliy soliq agentligining markaziy apparati, 12 ta hududiy boshqarmalari va ularning 524 ta soliq inspeksiyalari, soliq kolleji hamda, soliq arbitrajidan iborat.

Milliy soliq agentligining Markaziy apparatida 683 ta (1.2%), hududiy soliq boshqarmalarida 10,8 ming nafar (19.3%), davlat soliq inspeksiyalarida 43.9 ming (78.1%), soliq kollejida 336 (0.6%), soliq arbitrajida 477 nafar (0.8%) soliq hodimlari mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Ta‘kidlash lozimki, umumdavlat soliqlarini undirish va nazorat qilish bilan milliy soliq agentligi (56.2 ming nafar hodimlar) va milliy soliqlarni undirish bilan esa Munisipial davlat idoralari (84 ming nafar) shug‘ullanadi.

Soliqlarni undirish, soliq tekshiruvlarini tashkil etish va soliq to‘lovchilarga xizmatlar ko‘rsatish sohalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Yaponiyada Moliya vazirligi huzuridagi milliy soliq agentligi tomonidan umumdavlat soliqlarining to‘g‘ri hisoblanishi, o‘z vaqtida va to‘liq hajmda davlat byudjetida tushishini nazorat qilinishi belgilangan bo‘lib, mahalliy soliqlar va yig‘imlarni hududiy munisipalitetlar nazorat qilishi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning nazorati esa ushbu jamg‘armalarni yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

To‘langan soliqlar dastlab “Umumdavlat soliqlarini yig‘ish fondi”ga jamlanib, so‘ngra oy yakuni bilan markaziy bankdagi davlat byudjet daromadlarini tashkil etuvchi maxsus hisob raqamiga o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgan. Bunda Umumdavlat soliqlarini yig‘ish fondining nazorati Yaponiyaning Moliya vazirligiga yuklatilgan.

Yaponiyada kucha-kunduz (24 soat) ishlovchi savdo do‘konlarida soliq to‘lovlarini qabul qilish amaliyati joriy etilgan bo‘lib, bu ish bilan band hodimlarni ishdan keyin bo‘sh vaqtlarida soliqlarni to‘lash imkoniyatlarini byeradi²⁰.

Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan umumdavlat soliqlari bo‘yicha soliq davri va uni to‘lash muddatlari qonunchilikda belgilangan bo‘lsa, yuridik shaxslar to‘laydigan ayrim umumdavlat soliqlari bo‘yicha korporatsiyalar hisob siyosatida ko‘zda tutadigan soliq davri va uni to‘lash muddatlaridan kelib chiqib, soliqlar bo‘yicha hisobotlarni toshirish va to‘lovni amalga oshirish huquqlari byerilgan.

Bu birinchidan, tadbirkorlik faoliyatining yerkinligini ta‘minlasa, ikkinchidan, soliq hisobotlari va to‘lovini har bir korporatsiya o‘zi ixtiyoriy tanlash huquqini byeradi.

Soliq qarzi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarga doimiy ravishda telefon tarmog‘i orqali eslatmalar berib boriladi.

Yaponiyada soliq to‘lovchilarni nazorat qilish maqsadida, birinchi navbatda, ularni hisobga olish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchungun soliq to‘lovchilarda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tish, aniq yuridik manziliga ega bo‘lish, yuridik manzili o‘zgargan hollarda soliq idoralarini xabardor etish talab qilinadi. Bulardan tashqari, soliq organlari orasida o‘zaro soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi mavjud ma‘lumotlar almashinishi yo‘lga qo‘yilgan.

Soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi dastlabki barcha ma‘lumotlar jamlanib, kelgusida nazorat tadbirlarini amalga oshirish maqsadida, soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi yagona ma‘lumotlar bazasi “KSK” tizimi joriy etilgan²¹.

²⁰ www.nta.go.jp

²¹ www.mof.go.jp

Mazkur bazaga soliq organlari tomonidan to'plangan barcha hujjatlardan olingan ma'lumotlar, soliq to'lovlari bo'yicha hisobot ma'lumotlari va to'lovlar miqdorlari jamlanadi.

Soliq tekshiruvlarini tashkil etishdan avval ushbu ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda soliq to'lovchining Tovar aylanmasi va faoliyat turlariga qarab tahlil hamda kamyeral nazorat o'tkaziladi.

Qonun buzilishi mavjud holatlarda soliq to'lovchilar og'zaki va yozma ravishda ogohlantiriladi.

